

# INTERNETDA AYOL- JURNALISTLAR XAVFSIZLIGI

Ma'lumotnoma yo'riqnomasi #SOFJO

## INTERNETDA AYOL JURNALISTLARNING XAVFSIZLIGI — Yo'riqnoma #SOFJO

<b>Mualliflar:</b>	D-r Silviya Chokarro Sara Klark Paulina Guterres Djudi Teyng
<b>Muharrir:</b>	Kristin Olson
<b>Loyiha koordinatori:</b>	Yuliya Xaas
<b>Ekspert bahosi:</b>	Barbora Bukovska
<b>Korrektorlar:</b>	Elizabet Vitchel Ton van den Brandt Laura Vidal Sebastyan Denton
<b>Dizayner va rassom:</b>	Peno Mishoyan
<b>Tarjimon:</b>	Nargis Kosimova
<b>Tahrir:</b>	Shakhlo Khimatova

Mazkur nashr 2020 yilda EXHTning OAV erkinligi masalalari vakolatxonasi tomonidan "Internetda ayol-jurnalistlar xavfsizligi" loyihasi yoki #SOFJO doirasida chop etilgan. Hujjatda mualliflarning fikrlari, qarashlari, xulosalari, talqin va tavsiyalari EXHT va a'zo davlatlar rasmiy qarashlarini o'zida aks ettirmasligi mumkin.

© Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (EXHT) OAV erkinligi masalalari vakolatxonasi Byurosi.

2020 y.

Wallnerstrasse 6

A-1010 Vienna, Austria Tel.: +43-1 514 36 68 00 El.

Pochta: [pm-fom@osce.org](mailto:pm-fom@osce.org)

<https://www.osce.org/fom/safety-female-journalists-online>

ISBN: 978-92-9271-085-9

# INTERNETDA AYOL - **JURNALISTLAR XAVFSIZLIGI**

Ma'lumotnoma yo'riqnomasi #SOFJO



# Mundarija

---

<b>Kirish:</b> Bajarilgan ishlarni baholash va kelajakdagi rejalar	<b>5</b>
<b>Rezyume:</b> Yagona yondashuv va 40 ta tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar	<b>11</b>
<b>Kirish:</b> Umumiy xavflarni faqatgina birgalika yengish mumkin	<b>25</b>
<b>Sharhi</b> internetda ayol-jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq inson huquqlari sohasida halqaro standartlar	<b>35</b>
<b>So'zdan amaliy faoliyatga o'tish:</b> Asosiy qatnashchilar nima qila olishadi	<b>51</b>
<b>1. Davlat organlarining ijro organlari:</b> Ayol-jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida siyosat va faoliyatni amalga oshirish	<b>59</b>
<b>2. Qonun chiqaruvchi davlat organlari:</b> Internetda va uning tashqarisida xavfsizroq muhit yaratish maqsadida yangi qonun qabul qilish yoki amaldagi qonunchilikni moslashtirish	<b>83</b>
<b>3. Odil sudlov organlari:</b> Odil sudlovni ta'minlash va huquqbuzarlarning jazosiz qolishining oldini olish	<b>97</b>
<b>4. Huquq-tartibot organlari:</b> Himoya usullarini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish	<b>113</b>
<b>5. Xalqaro tashkilotlar:</b> Standartlarni o'rnatishdan davlatlarga yordam berishgacha	<b>131</b>
<b>6. Internet-vositachilar:</b> Xotin-qizlar huquqlarini hurmat qilish va Internetda ularning xavfsizligini ta'minlash	<b>149</b>
<b>7. OAV:</b> Jurnalistlar himoyasi ish joyidan boshlanadi	<b>171</b>
<b>8. Jurnalistik tashkilotlar va oz-ozini boshqarish organlari:</b> Hamkorlikdagi harakatlarni tashkil etish va ahloq kodekslarini ishlab chiqish	<b>191</b>
<b>9. Fuqarolik jamiyatini tashkil etish va ta'lim muassasalari:</b> Mobilizatsiya, tadqiqotlar va ilg'or tajribalar almashish	<b>209</b>
<b>10. Jurnalistlar va OAV xodimlari:</b> Birinchi galdagi vazifalar - o'z -o'zini himoya qilish va hamkasblarni qo'llab-ko'vvatlash	<b>229</b>
<b>Mualliflar haqida</b>	<b>241</b>
<b>Ilova:</b> Vazirlar Mahkamasining qarori № 3/18 «Jurnalistlar xavfsizligi»	<b>243</b>



# Kirish

Bajarilgan ishni  
baholash va  
kelajakdagi rejalari





## **Kirish**

### **Bajarilgan ishlar va kelgusidagi rejalar**

Internetda ayol-jurnalistlar va OAV xodimlariga tahdidlar oshayotganligidan xavotirlangan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilligining Idorasi (EXHT Vakilligi Idorasi) 2015 yilda Internetda gender asosda jurnalistlarni ta'qib qilishga qarshi kurashish bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish tashabbusi bilan chiqdi. Mazkur muhokama "Internetda ayol-jurnalistlar xavfsizligi" yoki #SOFJO<sup>1</sup> loyahasini amalga oshirishga turtki bo'ldi.

Loyihaning birinchi besh yilida EXHT Vakilligi idorasi jurnalistikada gender xilma-xilligini ta'minlashga qaratilgan turli tadbirlarni amalga oshirdi. EXHTning ommaviy axborot vositalari erkinligi bo'yicha o'tgan yillar davomida bir-birlarining o'rniga kelgan barcha vakillari o'z zimmlariga yuklatilgan erta ogohlantirish funksiyasini bajarish jarayonida xalqaro majburiyatlarni bajarishga ko'maklashish maqsadida ayol-jurnalistlarni himoya qilishga alohida e'tibor qaratdilar. Mazkur yo'riqnoma ishtirokchi davlatlarga o'z majburiyatlarini amalga oshirishda yordam berish orqali ushbu maqsad doirasida keyingi qadamni belgilaydi.

#### **› Haqiqatan qorong'i joy**

#SOFJO loyahasini amalga oshirish jarayonida EXHT Vakilligi idorasi turli manfaatdor tomonlar bilan birgalikda barcha ishtirokchilar uchun hukumatlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari uchun innovatsion, aniq tavsiyalarga asoslangan dasturiy hujjatlarni ishlab chiqdi. Loyiha ayol jurnalistlar orasida xabardorlikni oshirish, jamoaviy strategiyalarni ishlab chiqish va vositalar hamda resurslar almashish uchun mashhur platformaga aylandi. #SOFJO loyahasining ijtimoiy tarmoqlardagi konferensiyalari, yopiq guruhlardagi uchrashuvlari va ijtimoiy tarmoqlardagi axborot kampaniyasi

EXHTga a'zo barcha davlatlarning hukumat vakillari, ommaviy axborot vositalari, ilmiy doiralari va fuqarolik jamiyati xodimlari ishtirokida qo'llab-quvvatlash tarmog'ini tashkil etishga yordam berdi.

Tadqiqot va tavsiyalar turli xil maqolalarda, xususan 2016 yilda chop etilgan "Internetda ayol-jurnalistlarni ta'qib qilishga qarshi kurash"<sup>2</sup> "Ommaviy axborot vositalarining plyuralizmi, ayol jurnalistlar xavfsizligi va cheksiz ovozlarni onlayn himoya qilish bo'yicha komyunike"<sup>3</sup> 2019 yil; Xalqaro Matbuot Instituti (XMI) bilan hamkorlikda ishlab chiqarilgan va 2019 yilda chop etilgan Internetda jurnalistlarga nisbatan ta'qiblar va tajovvuzlarga qarshi huquqiy javoblar"<sup>4</sup> maqolasi ko'plab muammolar va mumkin bo'lgan yechimlar haqida jamoatchilikka kengroq tushuncha berishga hissa qo'shdi.



2018 yilning oxirida EXHT Vakilligi idorasi XMI bilan hamkorlikda "Qorong'u joy" nomli hujjatli filmni suratga oldi.<sup>5</sup> Ushbu hujjatli filmda taniqli ozarbayjon jurnalisti Arzu Geybullaning fikriga ko'ra, ta'qib va tazyiqqa uchragan ayol jurnalistlar haqiqatan ham "juda qorong'i joyga" tushishlari mumkin. Film internetda kuchli ta'qib va haqoratlarga chidagan jurnalist ayolning boshidan kechirganlari haqida hikoya qiladi. Bundan tashqari, huquqshunoslar, ommaviy axborot vositalari rahbarlari, texnologlar va gender ekspertlari o'z-o'zini tanqid qilish va ma'lum fikrlarni taqiqlash xavfi ortib borishi natijasi sifatida ta'qib va suiiste'molning ommaviy axborot vositalarining xilma-xilligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida gapirishmoqda.

Hujjatli film EXHT mintaqasida va undan tashqarida namoyish etilgan va namoyish qilinmoqda. Ko'rsatuvdan so'ng ogohlilikni oshirish va o'zgarishlarni rag'batlantirish maqsadida aksariyat holatda guruh muhokamalari yuzaga keladi.

Keyingi qadamni tashlash vaqti keldi. Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining OAV erkinligi bo'yicha vakili ofisi davlat va nodavlat tashkilotlarga jurnalist ayollarning onlayn xavfsizligini qanday yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar berish uchun ushbu keng qamrovli Ma'lumotnoma yo'riqnomasini ishlab chiqdi. Ushbu qo'llanma ayol jurnalistlarning internetda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha nazariy maslahatlar va amaliy ta'minot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qaratilgan.

Qo'llanmada jurnalistlar xavfsizligini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlar va majburiyatlarni qanday amalga oshirish bo'yicha ilg'or tajriba namunalari keltirilgan. Unda ommaviy axborot vositalari erkinligi va jurnalistlar xavfsizligi uchun qulay muhit yaratishda asosiy rol o'ynaydigan ishtirokchilarga tavsiya etiladigan tizimli yondashuv belgilangan.

Jurnalist ayollarga qo'rquv, ta'qib va zo'ravonliksiz ishlash imkoniyatini berib, sa'y-harakatlarimizni birlashtirish, so'zdan amalga o'tish vaqti keldi.

EXHT Vakilligi ofisi ushbu nashrga hissa qo'shgan barcha ekspertlarga, ayniqsa matn muallifi Silvia Chokarro va uning hammualliflari Sara Klark, Paulina Gutierrez va Judi Taingga, shuningdek, hujjatni tahrirlash va nashr etishda hissa qo'shgan Ofis xodimlariga, xususan, Kristin Olson, Julia Xaas, Ton van den Brandt va Sebastyan Dentonga samimiy minnatdorchilik bildiradi.

29 October 2020



**Jürgen Heissel,**

*Director, Office of the OSCE  
Representative on Freedom of the Media*

## Izohlar

- 1** Safety of Female Journalists Online (#SOFJO) project of the Office of the OSCE RFoM, <https://www.osce.org/fom/sofjo>.
- 2** "New Challenges to Freedom of Expression: Countering Online Abuse of Female Journalists", OSCE RFoM, 17 September 2015, <https://www.osce.org/files/f/documents/4/1/193556.pdf>.
- 3** OSCE RFoM, Communiqué No. 1/2019, "Media Pluralism, Safety of Female Journalists and Safeguarding Marginalized Voices Online", 29 February 2019, <https://www.osce.org/files/2019-02-21%20SOFJO%20Communique.pdf>.
- 4** Scott Griffen (ed.), "Legal Responses to Online Harassment and Abuse of Journalists: Perspectives from Finland, France and Ireland", OSCE RFoM and IPI, 7 March 2019, <https://www.osce.org/files/f/documents/8/9/413549.pdf>.
- 5** OSCE RFoM, 'A Dark Place: A SOFJO Documentary' Trailer, 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/410423>.

## **Rezyume**

Yagona yondashuv va 40  
ta tavsiya etiladigan chora-  
tadbirlar



## **Rezyume**

### **Yagona yondashuv va 40 ta tavsiya etiladigan chora-tadbirlar**


Ayol jurnalistlarning internetdagi xavfsizligi bevosita demokratiya sifatiga va jamiyatning turli ma'lumotlardan foydalanish huquqiga ta'sir qiladi. Ushbu Qo'llanma Internetdagi ayol jurnalistlarning xavfsizligi bilan bog'liq bo'shliqlarni to'ldiradi.

EXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakili tashabbusi bilan boshlangan "Jurnalist ayollarning onlayn xavfsizligi" loyihasining davomi sifatida ushbu qo'llanma davlatlarga yordam berish va EXHT mintaqasidagi barcha manfaatdor tomonlarga, shu jumladan nodavlat ishtirokchilarga Internetda jurnalist ayollarni suiiste'mol qilish va ta'qiblarga qarshi kurash bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatishga qaratilgan.

Muammoning qisqacha tavsifi va onlayn jurnalist ayollar xavfsizligi bo'yicha xalqaro inson huquqlari standartlariga umumiy nuqtai nazardan so'ng, Qo'llanma tegishli misollar va ma'lumot manbalari bilan to'ldirilgan, umumiy yondashuvga asoslangan 40 tavsiya etilgan harakatlarning ro'yxatini taqdim etadi.

#### **› Gender jihatlari inobatga olingan yagona yondashuv**

Barcha tavsiya etilgan chora-tadbirlar genderni nisbatan sezgir tarzda amalga oshirilishi kerak, bu jamiyatning turli guruhlariga mansub erkaklar va ayollarning mehnati va hayotiga ta'sir qiluvchi shart-sharoitlardagi farqlarni dastlabki tushunishni nazarda tutadi; ajratilgan ma'lumotlar va axborotlarni faol ishlab chiqarish; ko'plab manfaatdor tomonlarning keng ishtirokiga asoslangan jarayonlarni ta'minlash; resurslardan to'g'ri foydalanish, bajariladigan ishlarni rejalashtirish va baholash; ayol jurnalistlarni himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ularning asosiy huquqlarini buzmasligini ta'minlash.



## **Davlat hokimiyatining ijro etuvchi organlari**

Ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha siyosat va amaliyotlarni amalga oshirish


---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Jurnalist ayollar uchun alohida shart-sharoitlarni hisobga olgan holda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish;
2. Gender jihatlarini hisobga olgan holda jurnalistlarni himoya qilish choralari ko'rish;
3. Siyosatni ishlab chiqish va to'liq ma'lumot asosida tadqiqot o'tkazish, shuningdek, qaror qabul qiluvchi shaxslar va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan axborot kampaniyalarini rivojlantirish maqsadida jurnalist ayollarga qarshi hujumlar to'g'risida ma'lumotlarni to'plash;
4. Ayol jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq vaziyat to'g'risida asosiy xalqaro inson huquqlari mexanizmlarini xabardor qilish va bu masalani tashqi siyosat kun tartibiga kiritish.





## **Qonun chiqaruvchi davlat organlari**

Internetda va uning tashqarisida xavfsizroq muhit yaratish maqsadida yangi qonun qabul qilish yoki amaldagi qonunchilikni moslashtirish

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Qayta ko'rib chiqish va zarur holatlarda qonunchilikni o'zgartirish yoki jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashda gender jihatlarini hisobga olish maqsadida yangi qonunlarni qabul qilish;
2. Internetda jurnalist ayollarni ta'qib va suiiste'mol qilish bilan bog'liq qonunchilik so'z erkinligiga bo'lgan huquqni buzmasligini kafolatlashi zarur.



## **Odil sudlov organlari**


Odil sudlovni ta'minlash va huquqbuzarlarning jazosiz qolishining oldini olish

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Barcha sud tizimi doirasida ayol-jurnalistlarni himoya qilishning muhim jihati sifatida gender masalalari bo'yicha xabardorlikni oshirish;
2. Sud organlari xodimlarining so'z erkinligi, jurnalistlarning xavfsizligi, shuningdek, hayotda va Internetda ta'qib va suiiste'mol qilish bo'yicha malakasini oshirish;
3. Odil sudlov masalalari, sud qarorlarini chiqarish va huquqiy himoya vositalarini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribalardan foydalanish va ilgari surish;
4. Jurnalistlarni xavfsizligi bilan bog'liq masalalarni hal qilish uchun milliy huquqni himo qiluvchi tashkilotlarni jalb qilish



## **Huquq-tartibot organlari**

Himoya usullarini takomillashtirish  
va samaradorlikni oshirish

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Gender muammolarni inobatga olgan holda internetda jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash masalalarida huquq-tartibot organlari xodimlarining malakasini oshirish;
2. Ta'qib va taziyq xavflarini baholashda gender jihatlarini inobatga olgan holda ularni qayta ko'rib chiqish va yaxshilash;
3. Jurnalistlar va so'z erkinligiga qarshi jinoyatlar bo'yicha surishtiruv ishlarini olib borish protokollari, usullari va amaliy jarayonlarni takomillashtirish;
4. Huquq-tartibot organlari, OAV va fuqarolik jamiyati o'rtasida jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha dialog va majmuaviy harakatlarni kengaytirish.



## **Davlatlararo tashkilotlar**


Standartlarni oʻrnatishdan davlatlarga yordam berishgacha

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Jurnalistlar xavfsizligini oʻz ichiga olgan huquqni himo qiluvchi standartlar va mexanimlarga gender jihatlarini oʻz ichiga olgan yondashuvlarni kiritish;
2. Jurnalistlar xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlarni qoʻllashdagi kamchiliklarni bartaraf etishda davlatlarga yordam berish;
3. Internetda jurnalist ayollarning xavfsizligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan tashabbuslar uchun axborot manbasi boʻlib xizmat qilishi mumkin boʻlgan maʼlumotlar va tadqiqotlar hajmini kengaytirishga koʻmaklashish;
4. Manfaatdor tomonlar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlik va muvofiqlashtirishga ustuvor ahamiyat berish.



## **Internet-vositachilar**

Xotin-qizlar huquqlarini hurmat qilish va  
Internetda ularning xavfsizligini ta'minlash

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Siyosat va amaliyotda so'z erkinligi, shaxsiy daxlsizlik, ishtirok etish huquqi va kamsitishdan himoyalaniish bo'yicha xalqaro inson huquqlari standartlariga rioya etilishini ta'minlash;
2. Foydalanuvchilar uchun kontentni moderatsiya qilish siyosati aniq, shaffof va ochiq bo'lishini hamda ularning kontentni moderatsiya qilish, onlayn ta'qib qilish, Internetda suiiste'mol qilish haqida ma'lumot berish mexanizmlari haqida xabardorliklarini ta'minlash;
3. Har qanday faoliyatni amalga oshirishda foydalanuvchiga yo'naltirilgan va kamsitilishlardan holi yondashuvlarni qo'llash;
4. Kontentni olib tashlash va foydalanuvchilarning ma'lumotlarni olishga doir so'rovlarini qayta ishlashda shaffoflik va izchillikni ta'minlash;
5. Jurnalistikada ayollar rolini ilgari surishga ko'maklashish.



## **OAV**

Jurnalistlar himoyasi ish joyidan boshlanadi

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Xavfsizlik va gender masalalari sohasida kompleks siyosatni amalga oshirish orqali ish joyida xulq-atvor madaniyatini shakllantirish;
2. Internetda ta'qib va haqoratga uchragan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va o'qitish;
3. Interaktiv onlayn platformalar uchun genderni mos keladigan hamjamiyat qoidalarini ishlab chiqish;
4. Ayol jurnalistlarga, jumladan, mustaqil jurnalistlarga nisbatan internetdagi ta'qib va zo'rvonlik holatlarini kuzatish va hujjatlashtirish.



## **Jurnalistik tashkilotlar va o'z-o'zini boshqarish organlari**

Hamkorlikdagi harakatlarni tashkil etish va ahloq kodekslarini ishlab chiqish

---

### **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Jurnalist-ayollarning xavfsizligini ta'minlash va mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida samarali hamkorlikni amalga oshirish;
2. Hamkasblar bilan samarali muloqotga kirishish, o'qitish va amaliy qo'llab -quvvatlash orqali salohiyatni mustahkamlash;
3. Hujumlarni hujjatlashtirish va asosiy ishtirokchilarning xabardorligini oshirish uchun axborotdan foydalanish;
4. O'z-o'zini boshqaruvchi organlar faoliyatiga xavfsizlik va gender tengligi masalalarini kiritishga ko'maklashish.



## **Fuqarolik jamiyatini tashkil etish va ta'lim muassasalari**

Mobilizatsiya, tadqiqotlar va ilg'or tajribalarni almashinish

---

### **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Ma'lumotlar hajmini oshirish, shuningdek, asosiy ishtirokchilar va butun jamiyatning Internetdagi ta'qib va gender assosidagi zo'rvonlik haqida bilim va xabardorlik darajasini oshirish;
2. Milliy miqyosda mehnat xavfsizligi standartlarini joriy etish va ish joyida jurnalist ayollar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish;
3. Jurnalist ayollar xavfsizligi bo'yicha kompleks o'quv va ta'lim materiallarini ishlab chiqish;
4. Xavfsizlik va gender tengligi masalalarini OTMlarning jurnalistika fakultetlari o'quv dasturiga kiritish.





## **Jurnalistlar va OAV xodimlari**

Ustivorlikda o'z-o'zini himoyalash va hamkasblarni qo'llab-qo'vvatlash

---

## **Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar**

---

1. Ayol jurnalistlar uchun xavflar spektrini monitoring qilish va baholash;
2. Xavfsizlikka, jumladan, jismoniy, huquqiy, psixo-ijtimoiy va raqamli xavfsizlikka kompleks yondashish;
3. Tahdidlar va bosqinchiliklarni hujjatlashtirish va xabar berish;
4. Onlayn zo'ravonlik va ta'qibga duchor bo'lgan hamkasblarga va bunday xavflarga uchrayayotgan jurnalistlarga yordam ko'rsatish;
5. Qo'llab-quvvatlashning mavjud shakllari, shu jumladan huquqiy mexanizmlar haqida ma'lumot olish.



QONUN CHIQARUVCHI  
DAVLAT ORGANLARI




DAVLAT HOKIMIYATINING  
IJRO ETUVCHI ORGANLARI



ODIL SUDLOV ORGANLARI

HUQUQ-TARTIBOT  
ORGANLARI



INTERNET-  
VOSITACHILAR



FUQAROLIK  
JAMIYATI  
TASHKILOTLARI VA  
TA'LIM MUASSASALARI



DAVLATLARARO  
TASHKILOTLAR



OAV



JURNALISTLAR  
VA OAV  
XODIMLARI



JURNALISTIK  
TASHKILOTLAR VA  
O'Z-O'ZINI BOSHQARISH  
ORGANLARI

# #SOFJO

# KIRISH



## **Kirish**

### **Umumiy xavf bilan birgalikda kurashish mumkin**

«Bugun kechqurun seni zo'rlashadi».

«Bu aqldan ozgan qanjiqni mag'lub etishga hech kimning jasorati yetmaydimi?»

«Kimdir u qaerga borishi, qaerda yashashini biladimi?»

«Boshqalarga o'rnak bo'lishi uchun seni kaltaklasammikan?»<sup>1</sup>

Bu ijtimoiy tarmoqlar orqali ayol-jurnalistlar olgan xabarlarining bir nechtasi, xolos<sup>2</sup>, Oltmish uch foiz ayol-jurnalistlar o'z faoliyatlarini amalga oshirganliklari uchun bir marotaba bo'lsa ham Internetda ta'qib va tazyiqqa uchragan.<sup>3</sup> «Gardian» gazetasi o'tkazgan so'rovnoma ko'ra, ayol-jurnalistlar uhamkasb-rkaklarga nisbatan bunday ta'qiblarga to'rt marotaba ko'proq uchrashadi.<sup>4</sup>

Butun dunyoda aksariyat ayol-jurnalistlar uchun Internetdagi ta'qib va xaqoratlar ularning mehnat faoliyatiga xalaqit beradigan jiddiy kasbiy xavfga aylandi. Bunday holat ularning erkin fikr bildirish va jamiyatning barcha a'zolarining axborotga egalik qilishiga to'siq bo'lmoqda. EXHT Byuro vakilligining OAV erkinligi masalalari bo'yicha tashabbusi bilan Xalqaro matbuot instituti hamkorligida suratga olingan "Qorong'u joy" hujjatli filmida Bi-Bi-Sining siyosiy muharriri Laura Kuensberg quyidagi fikrni bildirgan: "Men xattoki ijtimoiy tarmoqlardagi barcha akkauntlarimni o'chirishni o'yladim. Ammo bu ijtimoiy tarmoqqa axborot olish uchun kiruvchilarning mag'lubiyati bo'lardi, bu men uchun muhim, bu mening ham mag'lubiyatim bo'lardi".

Jurnalistlar butun dunyoda o'sib borayotgan kasbiy faoliyat bilan bog'liq xavfiar va zo'ravonlikka uchrarmoqda.<sup>5</sup> Aksariyat holatda haqiqatni aytish uchun ular juda ham katta haq to'lashmoqda. Ular zo'ravonlik, ta'qib, bosqinchilikka uchrab, hibsga olinmoqda. Og'ir holatlarda esa o'ldirilmoqda yoki bedarak

yo'qolmoqda. E'tibordan qochish va norozilikni bo'g'ish uchun hukumatlar va turli kuchlar o'zlarini javobgarlikka tortmoqchi bo'lganlarning ovozi o'chirmoqda.<sup>6</sup>

Ayol-jurnalistlar aynan ayol bo'lganliklari sababli qo'shimcha xavf-xatar ichida yashamoqdalar. Bu jismoniy yoki jinsiy zo'rovonlikning to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tahdidlari, haqoratli xabarlar va maqsadli ta'qiblar (ko'pincha bir nechta tajovuzkorlar birlashgan holda amalga oshirishadi), shaxsiy daxlsizlikni buzish (masalan, qo'rqitish, tasvirlangan shaxsning rozilgisiz intim tasvirlarni almashish va doksing, ya'ni jabrlanuvchining uy manzili kabi shaxsiy ma'lumotlarni e'lon qilish).bo'lishi mumkin bo'lgan genderni asoslangan onlayn ta'qib va zo'rovonlikda namoyon bo'ladi.<sup>7</sup> Sanab o'tilgan ta'qib shakllarining har biri ichki qonun hujjatlarida yoki inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida turlicha berilishi mumkin. Ijtimoiy media operatorlari va akademik doira vakillari kabi sohaning boshqa ishtirokchilari ushbu hodisani kontseptsiyalash uchun o'zlarining lug'atlarini yaratdilar<sup>8</sup>. Umumjahon qabul qilingan terminologiya mavjud bo'lmasa-da, ushbu Ma'lumot yo'riqnoma yuqorida tavsifiangan xatti-harakatlarga ishora qilish uchun "tazyiq va suiiste'mol" atamasidan foydalanadi".

Har ikki jinsdagi jurnalistlar onlayn ta'qib va zo'rovonlikka duchor bo'lishsa-da, ayollar duch keladigan hujmlarning shakli va tez-tezligi ayniqsa xavotirli<sup>9</sup> va ko'plab ayol jurnalistlarning o'z faoliyatini cheklashiga yoki kasbni tark etish haqida o'ylashiga sabab bo'ladi. Global tadqiqotga ko'ra, ayol jurnalistlarning taxminan 40 foizi onlayn ta'qiblar tufayli ma'lum yangiliklarni nashr etishdan qochishlarini aytishgan.<sup>10</sup> Jurnalist ayollarga nisbatan zo'rovonlik yakka tartibda sodir bo'lmaydi – bu patriarxal jamiyatdagi ayollarga nisbatan zulm va shunga bog'liq bo'lgan gender tengligiga putur yetkazuvchi omillar, masalan, ish haqining farqlanishi, qaror qabul qilish jarayonlaridan chetlatilganligi va to'lanmaydigan oila parvarishining og'ir yuki bilan uzviy bog'liqdir. Jurnalist-ayollarga nisbatan zo'rovonlik izolyatsiya holatida sodir

bo'lmaydi. U bevosita ayollarning patriarxal jamiyatdagi o'rne va unda gender tenglik o'rnatilmaganligi bilan bog'liq. Avvalo bu ish haqidagi tafovutlar, qaror qabul qilish jarayoniga ayollarni jalb qilmaslik, oiladagi mehnatiga haq to'lanmasligi va og'ir ishlar uning zimmasiga yuklatilganligi bilan bog'liq. Ta'qibga asosan gender me'yorlar va stereotiplar borasida o'z qarashlari va fikrlarini ommaga oshkor qilishga qo'rqmaydigan ayol-jurnalistlar uchraydi.<sup>11</sup> Ular ta'qibga faoliyatlari maqbul kelmaydiganlar tomondangina emas, balki hamkasblari, o'z manbalari, hattoki qarindoshlari tomonidan ham uchrashadi. Aksariyat holatda ayol-jurnalistlar ular himoyalaniishi kerak bo'lgan joyda, masalan o'zlari ishlayotgan OAV tahririyatlarida ham ta'qib ostiga olinadi.<sup>12</sup>

Shubhasiz, jurnalistlar duch keladigan tahdid va hujumlarning tabiati va ta'siri ko'pincha jinsi va irqi, etnik kelib chiqishi, diniy e'tiqodi, jinsiy orientatsiyasi, yoshi hamda biror bir ijtimoiy guruhga mansubligi kabi boshqa omillar bilan bog'liq.<sup>13</sup> Xavfni oshiruvchi omillarga ishning frilanser xarakteri<sup>14</sup> yoki korruptsiya,<sup>15</sup> uyushgan jinoyatchilik,<sup>16</sup> atrof-muhit muammolari,<sup>17</sup> inson huquqlari va ayollar huquqlari, shuningdek ziddiyatlar xususida material tayyorlash kabi o'ta nozik mavzularni yoritish kiradi.<sup>18</sup> Bu o'ziga xoslikni, turli guruhlarga mansub jurnalistlar har xil turdagi tahdidlarga duch kelishi mumkinligini tushunish jurnalistlarga qilingan hujumlarning oldini olish, to'xtatish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha kompleks, maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun zarurdir. Afsuski, qonunlar, davlat siyosati va davlatlar tomonidan qabul qilingan boshqa choralar ushbu gender va interseksional jihatni hisobga olmaydi.

## › **Ayol jurnalistlarning onlayn xavfsizligiga ko'p qirrali, genderga mos yondashuv**

Ushbu Qo'llanmaning maqsadi Internetda jurnalist ayollar xavfsizligi bo'yicha bo'shliqlarni to'ldirishdir. sel dannogo Spravochnogo rukovodstva sostoit v

tom, chtoby ustranit probely v voprosax obespecheniya bezopasnosti jencin-jurnalistov v Internete. O'tgan o'n yil ichida manfaatdor tomonlar gender nuqtai nazarini tushunish va jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarga integratsiya qilishda istiqbolli yutuqlarga erishdilar.

Inson huquqlari borasidagi xalqaro standartlar jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq masalalarda gender jihatlar e'tiborga olinishi kerakligini tez-tez aytishmoqda. Shu bilan birga jurnalist-ayollarga bo'layotgan hujumlar, ta'qib va onlayn su'stimol qilishlarni tadqiq qilish hajmi ham oshmoqda.

Milliy miqyosda ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati guruhlaridan jurnalistlar uchun onlayn gender ta'qib va zo'ravonlikka qarshi kurashish vositalari va dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha sa'y-harakatlar kuchaymoqda. Biroq, bu ko'proq harakat talab etadi. Onlayn genderga asoslangan ta'qib va zo'ravonlikka, umuman, jurnalist ayollarga nisbatan tazyiqqa qarshi kurashish, ilgari erkaklarning vakolati deb hisoblangan masalalarda, masalan, siyosatda hamda ish joyidagi ijtimoiy tenglikni ta'minlash, ayollarning fikrini barcha ommaviy axborot vositalari orqali eshitishni ta'minlash uchun jamoatchilikning xabardorligini oshirish borasidagi kampaniyalarini o'z ichiga olishi kerak. Hukumatning turli tarmoqlari, xalqaro va mintaqaviy organlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, internet-vositachilar va fuqarolik jamiyatining turli subyektlarini jalb etgan holda ko'p tomonlama yondashuv zarur.

Internetda ta'qib va haqoratga uchragan ayol jurnalistlar mazkur muammoni hal qilinishiga qaratilgan yondashuvlarni ishlab chiqishda ishtirok etishlari muhim. Albatta ularga ko'rsatilayotgan har qanday yordam jurnalistlarning roziligi bilan amalga oshirilishi lozim.

Ushbu Qo'llanma turli manfaatdor tomonlarga har tomonlama yondashuvdan foydalangan holda ayol jurnalistlarning onlayn xavfsizligini yaxshilash bo'yicha



keyingi qadamlarni aniqlashda yordam berishga qaratilgan. Qo'llanma o'nta bobdan iborat bo'lib, ularning har biri asosiy toifadagi aktyorlarga qaratilgan.

Har bir bobda Internetdagi ta'qib va zo'rvonlikka qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlar bilan tanishtirilib, amaliy mashg'ulotlar va foydali adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Qo'llanmada ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlarning to'liq tavsifi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha chora-tadbirlarning to'liq ro'yxati keltirilmagan. Uning maqsadi manfaatdor tomonlarga ularning faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlashda yordam berish, shuningdek, Internetda jurnalist ayollarni ta'qib qilish va suiiste'mol qilishga qarshi kurashga qaratilgan vositalar va tashabbuslarni ishlab chiqish yoki takomillashtirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat. Davlat sub'ektlari, ya'ni ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha ko'rsatmalar va ma'lumotlarni ushbu qo'llanmada topishlari mumkin. Tavsiya etilgan chora-tadbirlar qatoriga qonunchilikni qayta ko'rib chiqish va isloh qilish, milliy harakat rejalari va muloqotlarni ishlab chiqish, barcha davlat organlarida gender-mulohazaviy yondashuvni, tergov jarayonlari va jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini joriy etish, davlat xizmatchilari salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash dasturlarini joriy etish kiradi. Besh bobning davlat ishtirokchilari haqidagi dastlabki bobida hukumatlararo organlarning roli ko'rsatilgan va inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni takomillashtirish va ularni milliy miqyosda samarali amalga oshirishga qaratilgan yondashuvlar tavsifiangan.

Keyingi besh bobda internet vositachilari, ommaviy axborot vositalari, mustaqil o'zini o'zi boshqarishda muhim rol o'ynaydigan jurnalist tashkilotlari va organlari, fuqarolik jamiyati va ta'lim muassasalari, shuningdek, alohida jurnalistlar va

ommaviy axborot vositalari xodimlari kabi nodavlat subyektlarga tavsiyalar berilgan. Tavsiya etilayotgan harakatlar qatoriga quyidagilar kiradi: kadrlar salohiyatini raqamli instrumentlarni o'rgatish va huquqiy bilimlarni oshirish; hamkasblarni qo'llab-quvvatlash tarmoqlari va boshqa psixo-ijtimoiy resurslarni rivojlantirish; xavflarni baholash hamda onlayn ta'qiblar haqida xabar berish va chora ko'rish protokollarini takomillashtirish; axborot kampaniyalarini o'tkazish va ish joyida tenglikni ta'minlashga qaratilgan xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlash. Nodavlat sub'ektlarga bag'ishlangan bo'limlarda gender jihatlarini inobatga olgan holda Internetdagi hujum va ta'qiblarni hujjatlashtirishni yaxshilashga qaratilgan tavsiyalar mavjud. Umumiy tavsiyalar manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik va muvofiqlashtirish harakatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu Ma'lumot qo'llanmasi ayol jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq xalqaro inson huquqlari standartlari bo'limini o'z ichiga oladi. Onlayn genderga asoslangan ta'qib va zo'ravonlikka qarshi kurashda insonning so'z erkinligi va shaxsiy daxlsizlik kabi asosiy huquqlari hurmat qilinishi muhim.

Afsuski, internetda jurnalist ayollarning ta'qib va haqoratlanishi haqida hech qanday ma'lumot yo'q. Shu sababli, bu real yechimlarni talab qiladigan haqiqiy muammodir.

## Izohlar

- 1** EXHtning OAV erkinligi bo'yicha vakili tashabbusi bilan IPI bilan hamkorlikda suratga olingan "Qorong'u joy" (A Dark Place) hujjatli filmidan iqtiboslar. Treylerni ushbu sayt orqali tomosha qiling: <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/410423>.
- 2** Barcha ayol jurnalistlarni o'z ichiga oladi.
- 3** Michelle Ferrier, Attacks and Harassment The Impact on Female Journalists and Their Reporting, International Women's Media Foundation, TrollBusters, Washington, 2018 <https://www.iwfm.org/wp-content/uploads/2018/09/Attacks-and-Harassment.pdf>.
- 4** Becky Gardiner yet al., "The dark side of Guardian comments", The Guardian, 12 April 2016, <https://www.theguardian.com/technology/2016/apr/12/the-dark-side-of-guardian-comments>.
- 5** ARTICLE 19, Global Expression Report 2018/19, London, 2019, <https://www.article19.org/xpa-2019/>.
- 6** O'sha yerda.
- 7** ARTICLE 19 and ILGA Europe, "Third Party intervention submission in the European Court for Human Rights, Andrea Giuliano and Hungary, App. No. 45305/16", 2 March 2020, <https://www.article19.org/wp-content/uploads/2020/03/Guiliano-v-Hungary-Submission-2-March-2.pdf>.
- 8** O'sha yerda.
- 9** APC, "Online gender-based violence: A submission from the APC to the UN Special Rap- porteur on violence against women, its causes and consequences", 2017, [https://www.apc.org/sites/default/files/APCSubmission\\_UNSR\\_VAW\\_GBV\\_O\\_0.pdf](https://www.apc.org/sites/default/files/APCSubmission_UNSR_VAW_GBV_O_0.pdf).
- 10** 3 izohda ko'rsatilgan hujjatni qarang.
- 11** UN General Assembly, Human Rights Council, Report by the Special Rapporteur on violence against women, its causes and consequences, "Combating violence against women journalists", A/HRC/44/52, 2020, <https://undocs.org/en/A/HRC/44/52>.
- 12** Barbara Trionfi and Javier Luque Martinez, "Newsroom Best Practices for Addressing Online Violence against Journalists: Perspectives from Finland, Germany, Poland, Spain and the United Kingdom", IPI, in co-operation with the OSCE RFoM, June 2019, <https://newsrooms-on-the-line.ipi.media/wp-content/uploads/2019/06/IPI-report-online-harassment-06032019.pdf>. Silvia Chocarro, The safety of women journalists: Breaking the cycle of silence and violence. IMS Defending Journalism book series, International Media Support, 2019, <https://www.mediasupport.org/publication/the-safety-of-women-journalists/>.
- 13** Amnesty International, "Toxic Twitter - A toxic place for women", 2018, <https://www.amnesty.org/en/latest/research/2018/03/online-violence-against-women-chapter-1/#topanchor>.
- 14** Committee to Protect Journalists, "The Best Defense: Threats to journalists' safety demand fresh approach", 2017, <https://cpj.org/reports/2017/02/best-defense-threats-safety-journalists-free-lance-emergencies-attack-digital/>.
- 15** Transparency International, "The High Costs Journalists Pay When Reporting on Corruption", 2020, <https://www.transparency.org/en/news/the-high-costs-journalists-pay-when-reporting-on-corruption#>.
- 16** Reporters Without Borders, "Journalists: the bête noire of organized crime", 2018, [https://rsf.org/sites/default/files/en\\_rapport\\_mafia\\_web\\_0.pdf](https://rsf.org/sites/default/files/en_rapport_mafia_web_0.pdf).
- 17** Reporters Without Borders, "Hostile climate for environmental journalists", 2015, [https://rsf.org/sites/default/files/rapport\\_environnement\\_en.pdf](https://rsf.org/sites/default/files/rapport_environnement_en.pdf).
- 18** Reporters Without Borders, "Women's rights: forbidden subject", 2018, [https://rsf.org/sites/default/files/womens\\_rights-forbidden\\_subject.pdf](https://rsf.org/sites/default/files/womens_rights-forbidden_subject.pdf).



## **SHARHI**

Internetda ayol jurnalistlar  
xavfsizligi bilan bog'liq inson  
huquqlari sohasida halqaro  
standartlar



## SHARHI

### Internetda ayol-jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq inson huquqlari sohasida halqaro standartlar

Demokratiya jurnalistlardan teng huquqlilik va xavfsizlik sharoitida to'siqlarsiz hukumatga haqiqatni gapirishni, mansabini su'istemol qilish va korrupsiya holatlari bo'yicha surishiruv o'tkazishni, jamoat munozaralarida qatnashish, aholini xabardor qilish ko'nikmalariga bog'liq. Ammo jurnalistlar muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan EXHT hududlari bilan birgalikda butun dunyoda inqirozni kuzatish mumkin. Jurnalistlar jim yurishi uchun ularga nisbatan qo'llaniladigan bevosita va bilvosita choralar ko'paymoqda. Bular o'z ichiga jismoniy, yuridik, psixologik tahdidlar, zo'ravonlik, tazyiq hamda Internetdagi ta'qibni o'z ichiga oladi.<sup>1</sup> Mazkur tendensiyani inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni samarali davlat siyosatiga aylantirmay turib, o'zgartirib bo'lmaydi. Ayol jurnalistlarga nisbatan zo'ravonliklar erkak jurnalistlardan farq qiladi. Shu bilan birga mazkur muammoning yechimi jins va boshqa bir biriga bog'liq omillar bilan farq qiladi hamda gender jihatlarni inobatga olinishini taqozo qiladi.

Mazkur bo'limda siyosat va amaliyot asosini tashkil etishi lozim bo'lgan, Internetda gender bo'yicha ta'qiblar va kamsitishlarga qarshi kurashiga qaratilgan fikrlar erkinligi, tenglik va ayol jurnalistlarga nisbatan kamsitilishga yo'l qo'ymaslik kabi eng dolzarb xalqaro standartlar qisqacha yoritilgan.<sup>2</sup>

#### › So'z erkinligiga bo'lgan huquqni amalga oshirish Internetdagi ta'qib va suiiste'mollikning boshqa manbasiga aylanmasligi kerak

Internetd zo'raovnlikka va suiiste'molchilikka uchragan jurnalistning so'z erkinligiga bo'lgan huquqini buzadi, chunki unda o'z xavfsizligi uchun qo'rquv yoki psixologik tanglik uni o'zini aybdor his qilishga olib kelishi mumkin. Ta'qib

va zo'raonliklar haqidagi xabarlar boshqa jurnalistlarda qo'rqovni keltirib chiqarib, ularning o'z fikrlarini erkin aytishlarini chegaralashga olib keladi. Bu butun jamiyatning turli xil fikrlar va ma'lumotlardan foydalanish huquqiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi sababli, Internetdagi ta'qib va suiiste'mollikka qarshi samarali choralar ko'rilishni taqozo etadi, zero bunday harakatlar erkinlikka oid xalqaro inson huquqlari standartlarini to'liq hurmat qilgan, so'z va ommaviy axborot vositalari erkinligini ta'minlangan holda amalga oshirishi kerak.

So'z erkinligi huquqi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasi kabi xalqaro inson huquqlari standartlari<sup>3</sup> Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning (FHXP) 19-moddasi,<sup>4</sup> shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Evropa konventsiyasi kabi mintaqaviy inson huquqlari shartnomalari bilan kafolatlangan.<sup>5</sup>

Fikr erkinligiga bo'lgan huquq keng qamrovga ega. U butun jamiyatga ta'sir qiladi va davlatlarni chegaralaridan qat'i nazar insonlarning o'zlari tanlagan har qanday vositalar yordamida har qanday turdagi axborot va fikrlarni izlash, olish va tarqatish huquqini kafolatlashga majbur qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi (BMT IXQ), mustaqil ekspertlardan tashkil topib, ishtirokchi-davlatlar tomonidan ICCPRning bajarilishini nazorat qilish uchun tashkil etilgan shartnoma organi, elektron va internetda fikr bildirish va axborot tarqatishning barcha shakllarini, shu bilan birga so'z erkinligining himoya qilinishi barcha mamlakatlarga taalluqli ekanligini tan olganini ta'kidlash muhimdir.<sup>6</sup> Fikrni ifodalash shakli yoki Internet orqali tarqatish vositalariga qo'yilgan har qanday cheklovlar, quyida ko'rsatilganidek, elektron bo'lmagan yoki internetga yoritilmagan ifoda vositalariga qo'yilgan cheklovlar bilan bir xil mezonlarga muvofiq asoslanishi kerak.<sup>7</sup>



## › **Qonuniylik, ochiqlik, shuningdek zaruriyat va mutanosiblik: so'z erkinligini cheklash uchun uch qismdan iborat test**

MHXPning 19.3-moddasida qayd etilishicha, inson huquqlari xalqaro standartlariga ko'ra, so'z erkinligini cheklash faqatgina qonuniylik (qonuniy maqsadga muvofiqlik), zarurlik va mutanosibl ik mezonlariga muvofiqlik "uch qismli test" dan o'tgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.<sup>8</sup>

Ushbu testning birinchi komponenti qonuniylikdir, ya'ni so'z erkinligini cheklash qonun bilan belgilanishi kerak. Tegishli qonunlar yoki me'yoriy-huquqiy hujjatlar jamoatchilikka ochiq bo'lishi va ularni amalga oshirish yuklangan sub'ektlarga so'z erkinligiga qo'yilgan har qanday cheklovlarning qonuniyligini aniqlash va hokimiyat tomonidan cheklovlarni suiiste'mol qilish yoki suiiste'mol qilishning oldini olish imkonini beradigan darajada aniqlik va ravshanlik bilan shakllantirilishi lozim.

Davlatlar javob berishi kerak bo'lgan ikkinchi mezon - so'z erkinligini cheklash qonuniy maqsadga xizmat qilishi kerak. MHXPning 19.3-moddasiga ko'ra, boshqalarning huquqlari yoki obro'-e'tiborini hurmat qilish yoki milliy xavfsizlik, jamoat tartibini himoya qilish; jamoat salomatligi yoki axloqini o'z ichiga oladi.

MHXPning 20.2-moddasiga ko'ra, kamsitish, tazyiq yoki zo'rovonlikka yetaklovchi milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo'zg'atuvchi har qanday harakat qonun bilan taqiqlanishi kerak. 2011-yilda BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi (UNHRC) 19-moddani ko'rib chiqish chog'ida MHXPning 20-moddasida nazarda tutilgan cheklovlar MHXPning 19.3-moddasida ko'rsatilgan uchta mezonga ham javob berishi kerakligini ta'kidladi.<sup>9</sup>

Shunga ko'ra, so'z erkinligi huquqini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga olib keladigan jurnalist ayollarga nisbatan ta'qib va zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha barcha sa'y-harakatlar "uch qismli test"ning qat'iy talablariga javob berishi kerak.

### › **Tenglik va kamsitishdan himoyalaniş huquqi**

Jinsga asoslangan ta'qib va jurnalistlarni onlayn tarzda suiiste'mol qilish so'z erkinligi huquqidan tashqari inson huquqlarini buzishi mumkin. Mazkur holat jurnalistikada teng ishtirok etishni xavf ostiga qo'yadi va mavjud kamsituvchi ijtimoiy normalar hamda gender stereotiplarini kuchaytiradi, shu bilan birgalikda ayol jurnalistlarning o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyatini shubha ostiga qo'yadi. Ayol jurnalistlar to'liq xavfsiz sharoitida aaxborotni tarqatish imkoniga ega bo'lmasa, OAVda plyuralizmga erishish mumkin emas.

Tenglik huquqi, kamsitishlardan himoyalaniş, so'z erkinligi huquqi bir-birini mustahkamlovchi hamda bir-birini to'ldiruvchi huquqlardir. Ushbu huquqlarni ta'minlash bo'yicha kelishilgan va maqsadli harakatlar amalga oshirilgan taqdirdagina, ularning har birini hayotga tadbiiq etish mumkin.

Xalqaro inson huquqlari har kimning qonun oldida tengligini va kamsitishdan himoyalanişini kafolatlaydi. Davlatlar inson huquqlarini amalga oshirishda tenglikni va qonunning teng himoyasini ta'minlashi shart. Diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik printsiipi xalqaro inson huquqlari qonuni tomonidan e'tirof etilgan jihatlar asosida shaxslarni har qanday farqlash, istisno qilish, cheklash yoki afzal ko'rishni taqiqlaydi.<sup>10</sup>

Bir qator xalqaro hujjatlar ayollarga nisbatan tenglik va kamsitilmaslik huquqlarini qo'llashni tasdiqlaydi, aniqlaydi va batafsil tushuntiradi. 1979

yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi (UNGA) tomonidan ayollar huquqlari to'g'risidagi xalqaro qonun loyihasi sifatida qabul qilingan Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW) ayollarga nisbatan kamsitishni "har qanday farqlash, istisno qilish yoki jinsi bo'yicha cheklash, bu ayollarning oilaviy ahvolidan qat'i nazar, erkaklar va ayollar tengligi, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sohalarda inson huquqlari va asosiy erkinliklari tan olinishi, ulardan bahramand bo'lishi yoki amalga oshirilishini zaiflashtirish yoki bekor qilishga qaratilgan "ligini qayd etadi.<sup>11</sup>

Ayol jurnalistlar haqida aniq ma'lumotni ayollarga nisbatan gender asosidagi zo'rvonlik bo'yicha 35-sonli CEDAW Bosh tavsiyanomasida topish mumkin, unda madaniy, mafkuraviy va siyosiy omillar bilan bog'liq ayollarga nisbatan gender zo'rvonligini targ'ib qiluvchi zararli urf-odatlar va an'analar, ayol jinsiga mansub bo'lgan huquq himoyachilari, siyosatchilar, faollar va jurnalistlarga nisbatan jinoyatlar ham kiradi.<sup>12</sup> Tavsiyada, shuningdek, "ishtirokchi davlatlar ayollarga nisbatan gender asosidagi zo'rvonlikka qarshi kurashish bo'yicha turli chora-tadbirlar ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari kerakligi" qayd etilgan.<sup>13</sup>

Ommaviy axborot vositalaridagi ayollar muammosi 1995 yilda BMTga a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasida belgilangan 12 ta asosiy muammodan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu, xususan, xotin-qizlarning ommaviy axborot vositalarida fikr-mulohazalarini bildirish va qarorlar qabul qilish imkoniyatlaridan, ommaviy axborot vositalari va yangi kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda ishtirokini oshirish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida ayollarning muvozanatli va stereotipsiz qiyofasini ta'minlash zarurati bilan bog'liq.<sup>14</sup>

EXHT Vazirlar Kengashining 4/18-sonli "Ayollarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish to'g'risida"gi qarorida ishtirokchi davlatlar

ayollarga, jumladan, jurnalist ayollarga nisbatan zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish majburiyatini oladilar. Ular "jamoat sohasida va/yoki jamoat manfaatlarida professional faollik ko'rsatuvchi ayollar o'z ishi munosabati bilan zo'rvonlik yoki zo'rvonlikning, tahdid va ta'qiblarning muayyan shakllariga duchor bo'lish ehtimoli ortib borishini" tan olishadi. Ushbu majburiyatlar o'z ichiga odil sudlovni ta'minlashni, ishlarni samarali tekshirish va aybdorlarni javobgarlikka tortishni, ularning huquqlari, shu jumladan shaxsiy daxlsizlikni; ayollarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllarining oldini olish va ularga qarshi kurashishni, zo'rvonlik, tahdid va ta'qiblariga, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.<sup>15</sup>

2017-yil 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan BMTning ayollarga nisbatan zo'rvonlik, uning sabablari va oqibatlarini bo'yicha hamda BMTning fikr va so'z erkinligi huquqini targ'ib qilish va himoya qilish bo'yicha ayollarni onlayn ta'qib qilish, zo'rvonlik muammosini hal qilish uchun choralar ko'rishga chaqirish hamda ularni tsenzura xavfi haqida ogohlantirish bo'yicha maxsus ma'ruzachilar hukumatlar va kompaniyalarga qo'shma murojaatnoma e'lon qilishdi. Ular internetda ayollar tez-tez uchrab turadigan zo'rvonlikni rag'batlantiruvchi sharoitlarni bartaraf etishda inson huquqlarini hurmat qilish zarurligini ta'kidladilar.<sup>16</sup>

## › Internetda insoning haqiqiy huquqlarini himoya qilish

Umuman olganda, onlayn jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash va ayniqsa, genderni asoslangan ta'qib va zo'rvonlikka qarshi kurashish uchun xalqaro inson huquqlari standartlari raqamli sohaga qanday tatbiq etilishini tushunish juda muhimdir.

2013 yili BMT insonning barcha huquqlari Internetga ham tegishli ekanligini qayd etdi. BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashining (BMT IHK) 32/13 Rezolyusiyasiga ko'ra, shuningdek Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasining 19-moddasi va Fuqarolik va siyosiy huquqlar Xalqaro paktiga muvofiq "Internetda inson huquqlarini rag'batlantirish. Himoya qilish va amalga oshirish", "insonning ofiayn muhitdagi mavjud huquqlari xususan so'z erkinligi, chegaralardan qat'iy nazar va inson tomonidan tanlab olingan ommaviy axborot vositalari doirasida onlayn muhitda ham himoyalaniishi zarur".<sup>17</sup> U shuningdek, davlatlarni ayollarni axborot- kommunikatsion texnologilardan samarali foydalanishlarini ta'minlash va genderlararo raqamli uzilishning oldini olishga chaqirdi.<sup>18</sup>

Kommunikatsion texnologiyalar o'z fikrini aytish imkonini kengaytirdi. Shu bilan birga AKT kuzatish va xabarlarini yo'lda tutib qolish uchun qulay bo'lib, bu narsa inson huquqlarini xavf ostiga qo'yib, xususan shaxsiy yozishmalarning sir tutilishining buzilishiga olib keladi. Mazkur huquq Fuqarolik va siyosiy huquqlar Xalqaro paktining 17 moddasida ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra, "hech kim o'zboshimchalik bilan o'zgalarning shaxsiy va oilaviy hayotiga bevosita va bilvosita, noqonuniy holda aralashishi mumkin emas yoki uning uyiga yoxud shaxsiy yozishmalarini oshkor etishga yoki uning salohiyati va qadriyatini toptash huquqiga ega emas".<sup>19</sup>

Inson huquqlari sohasidagi standartlar ta'qibdan himoyalasada, ayniqsa o'z kasbiy faoliyatlaridan kelib chiqqan holda, ularning og'izlarini yopish maqsadida noqonuniy aralashuv uchun zaif bo'lgan jurnalistlar uchun real xavf tug'diradi. Shu sababli raqamli texnologiyalar asrida so'z erkinligiga bo'lgan huquqni ta'minlashda shifrlash va anonimlik kafolati muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>20</sup> Shifrlash va anonimlik borasida cheklovlar o'rnatish qonuniylikka asoslangan, oshkoralikka asoslangan bo'lishi zarur.<sup>21</sup> Mazkur yondashuv

EHXT Vazirlar Kengashining 3/18 sonli "Jurnalistlar xavfsizligi" (ilova qilinadi) qarorida o'z aksini topgan. U qatnashchi-davlatlarni "jurnalistlarning anonimlashtirish va raqamli texnologiyalardan erkini foydalanishlariga cheklov o'rnatmaslikka", shuningdek noqonuniy va erkin kuzatish usullardan foydalanmaslikka chaqiradi".<sup>22</sup>

### › **Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan inson huquqlari sohasidagi standartlarning soni oshmoqda.**

Ochiq, inklyuziv va demokratik jamiyatning mavjudligi aholining axborotga egaligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jurnalist-ayolga nisbatan tahdidlar har bir insonning axborotga bo'lgan huquqini paymol qilish demakdir. Inson huquqlari borasida xalqaro huquqlarga ko'ra, davlat jurnalistlarni himoya qiligi zarur. So'nggi o'n yilda mazkur masalaga bag'ishlangan, gender tenglikka xavf solinayotganligini tan olgan va turli xil yondashuvlarni nobatga olayotgan xalqaro hujjatlarining soni ortmoqda. Xalqaro tashkilotlar raqamli davrda jurnalistika funksiyalarini shallantirish ustida ish olib borishayotir. 2013 yildan buyon faoliyat yuritayotgan Inson huquqlari bo'yicha BMTning Qo'mitasi o'zining 34-sonli umumiy tartibdagi qaydlarida "jurnalist funksiyalarini ko'plab odamlar amalga oshirishadi, shu jumladan reporterlar va analitiklar, bloggerlar va boshqa shaxslar."<sup>23</sup> Yevropa Kengashining bergan tavsifiga ko'ra, «jurnalist» - bu jurnalistik faoliyatni olib boradigan yoki jamoatchilik nazoratini amalga oshiradigan shaxsdir".<sup>24</sup>

O'tgan yillar davomida BMT jurnalistlar xavfsizligini mustahkamlash muhimligini bir necha bor tan oldi. 2012-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha o'zining birinchi rezolyutsiyasini qabul qilib, davlatlarni "jurnalistlar o'z faoliyatini mustaqil va ortiqcha aralashuvlarsiz amalga oshirishlari uchun xavfsiz va qulay muhit yaratishni rag'batlantirishga",<sup>25</sup> shu jumladan, qonunchilik faoliyati, xabardorlikni

oshirish, monitoring va hisobot berish, hujumlarni jamoatchilik tomonidan qoralash va bunday hujumlarni tekshirish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur resurslarni ajratish orqali chaqirdi. Ushbu rezolyutsiya qabul qilinishidan oldin YUNESKO va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi (BMT Xavfsizlik Kengashi) jurnalistlar xavfsizligiga oid ikkita hujjat qabul qildi.<sup>26</sup>

2012-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining 32/13 rezolyutsiyasi qabul qilinganidan beri BMT Bosh Assambleyasi (UNGA), BMT XK va YUNESKO Bosh konferensiyasi jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha o'ndan ortiq rezolyutsiyalarni qabul qildi. Ularning ba'zilarida, masalan BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2019 yilda qabul qilingan 74/157 -sonli,<sup>27</sup> rezolyusiyasida ayol jurnalistlarning xavfsizligi masalalariga qaratilgan.<sup>28</sup> BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining 45/17 (2020) rezolyutsiyasi davlatlarni jurnalist ayollarga nisbatan ham onlayn, ham real hayotda "jinsiy zo'raonlik va jinsiy hamda gender asosidagi zo'raonlikning boshqa shakllarini oldini olish choralarini ko'rish"ga alohida chaqiradi.<sup>29</sup> Bundan tashqari, mazkur qarorlar ijrosi yuzasidan turli hisobotlar chop etildi.<sup>30</sup> E'tiborlisi, BMT Bosh kotibining 2017-yilgi jurnalistlar xavfsizligi haqidagi hisobotida ayol jurnalistlar xavfsizligiga alohida e'tibor qaratilgan.<sup>31</sup> 2020 yilda BMTning ayollarga nisbatan zo'raonlik, uning sabablari va oqibatlari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi jurnalist ayollarga nisbatan zo'raonlikka qarshi kurash bo'yicha hisobotini e'lon qildi.<sup>32</sup>

2012 yilda BMTning birinchi idoralararo strategiyasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jurnalistlar xavfsizligi va jazosiz qolish muammosi bo'yicha Harakat rejasi jurnalistlar xavfsizligi va jazosiz qolishga qarshi kurashda "genderga nisbatan sezgir yondashuv"ni talab qiladi va BMTning ushbu masala bo'yicha hamkorlik faoliyatining markazida turadi.<sup>33</sup>

Jurnalistlar xavfsizligi butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish va taraqqiyot nuqtai nazaridan muhim rol o'ynashining yana bir belgisi bu masalaning Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ro'yxatiga kiritilganidir. BRMning 16 maqsadi "Barqaror rivojlanish uchun tinch va inklyuziv jamiyatlarni rag'batlantirish, hamma uchun adolatli sudlovdan foydalanishni ta'minlash va barcha darajadagi samarali, mas'uliyatli institutlarni qurish" ga qaratilgan.<sup>34</sup> 16.10.1 ko'rsatkichda qayd etilishicha, "Jurnalistlarni o'ldirish, o'g'irlash, ularning issiz yo'qolishi, o'zboshimchalik bilan hibsga olish va qiynoqqa solish bilan bog'liq tasdiqlangan holatlar sonini" aks ettiradi.<sup>35</sup>

2018 yilda EXHTga a'zo davlatlar jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha birinchi qarorini qabul qildi. EXHTga a'zo barcha 57 ta davlat tomonidan konsensus asosida qabul qilingan "Jurnalistlar xavfsizligi to'g'risida"gi 3/18-sonli EXHT Vazirlar kengashining qarori ishtirokchi-davlatlarni jurnalistlarga qarshi hujumlarning oldini olish, himoya qilish va ta'qib qilish choralarini ko'rishga chaqiradi. Bundan tashqari, u "jurnalist ayollar o'z faoliyati, xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan alohida xavf" haqida tashvish bildiradi va "jurnalist ayollarning tajribasi va muammolarini samarali hisobga olish orqali maksimal xavfsizligini ta'minlash muhimligini" ta'kidlaydi.<sup>36</sup> Qaror, shuningdek, davlatlarni "Jurnalist ayollarga o'z faoliyati munosabati bilan qilingan hujumlarni, jumladan, jinsiy zo'rvonlik, tazyiq, qo'rqitish, tahdid va zo'rvonlikni, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ochiq va aniq qoralash"ga chaqiradi.<sup>37</sup> Garchi bu EXHTning jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan birinchi qarori bo'lsa-da, EXHTning so'z erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligi va axborotdan foydalanish bo'yicha ko'plab standartlari,<sup>38</sup> shuningdek, jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha qator ko'rsatmalar mavjud.<sup>39</sup>



## › **Tadbirkorlar inson huquqlari xalqaro standartlariga rioya qilishlari shart**

Birinchi navbatda davlatlarga qaratilgan xalqaro inson huquqlari standartlari ijtimoiy media operatorlari kabi tijorat korxonalariga ham taalluqlidir, ya'ni bu korxonalar inson huquqlarini hurmat qilish majburiyatiga ega. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Biznes va inson huquqlari bo'yicha yo'l-yo'riqli" qonunida ishbilarmonlik munosabatlari natijasida ularning faoliyati, mahsulotlari yoki xizmatlariga bevosita bog'liq bo'lgan, hatto ular bunday ta'sirga bevosita hissa qo'shmagan bo'lsa ham tadbirkorlik subyektlari "o'z faoliyati orqali inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishdan yoki ularga hissa qo'shishdan qochishlari va bunday ta'sirlarning oqibatlarini ular sodir bo'lgan joyda bartaraf etishlari" hamda "inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish yoki yumshatishga intilishlari kerak", deyiladi.<sup>40</sup>

2019 yilda Xalqaro Mehnat Tashkiloti "Mehnat dunyosida zo'rvonlik va zo'rvonlikka barham berish to'g'risida"gi 190-sonli konventsiyani qabul qildi. Unda har bir insonning "zo'rvonlik va tazyiqdan, shu jumladan genderga asoslangan zo'rvonlik va ta'qibdan, teng imkoniyatlar tamoyiliga tahdidan xoli mehnatga bo'lgan" huquqini tan oladi. Konventsiya Tashkilot a'zolari zo'rvonlik va ta'qiblarga nisbatan nol toqatlilik umumiy muhitini targ'ib qilish uchun alohida mas'uliyatga ega ekanligini eslatib o'tadi.<sup>41</sup>

## Izohlar

- 1 ARTICLE 19, Global Yexpression Report 2018/19, London, 2019, <https://www.article19.org/xpa-2019/>.
- 2 For more information on international standards that apply to freedom of yexpression and women's yequality, see ARTICLE 19, Freedom of Yexpression and Women's Yequality: Yensuring Comprehensive Rights Protection. London, 2020.
- 3 UN Universal Declaration of Human Rights, 10 December 1948, <https://www.un.org/en/universal-declaration-human-rights/>.
- 4 UN General Assembly, Resolution 2200A (XXI), International Covenant on Civil and Political Rights, 16 December 1966, entry into force: 23 March 1976, Article 49, <https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/ccpr.aspx>.
- 5 Council of Europe, European Convention on Human Rights, yentry into .force: 21 September 1970, [https://www.echr.coe.int/Documents/Convention\\_ENG.pdf](https://www.echr.coe.int/Documents/Convention_ENG.pdf).
- 6 UN Human Rights Committee, General Comment No. 34, Article 19: Freedoms of opinion and expression, CCPR/C/GC/34, 12 September 2011, paragraph 11, <https://www2.ohchr.org/english/bodies/hrc/docs/gc34.pdf>.
- 7 O'sha yerda.
- 8 ilovada keltirilgan iqtibosga qarang
- 9 ilova 50 paragrafda keltirilgan iqtibosga qarang
- 10 UN Human Rights Committee, CCPR General Comment No. 18: Non-discrimination, 10 November 1989, paragraph 6, <https://www.refworld.org/docid/453883fa8.html>.
- 11 UN General Assembly, Resolution 34/180, Convention on the Elimination of Discrimination against Women, 18 December 1979, entry into force: 3 September 1981, <https://www.ohchr.org/documents/professionalinterest/cedaw.pdf>. See also "Convention on the Yelimination of All Forms of Discriminations against Women", UN Women, <https://www.un.org/womenwatch/daw/cedaw/>.
- 12 Committee on the Yelimination of Discrimination against Women, "General recommenda- tion No. 35 on gender-based violence against women, updating general recommendation No. 19", CEDAW/C/GC/35, 14 July 2017 [https://tbinternet.ohchr.org/Treaties/CEDAW/Shared%20Documents/1\\_Glob-al/CEDAW\\_C\\_GC\\_35\\_8267\\_E.pdf](https://tbinternet.ohchr.org/Treaties/CEDAW/Shared%20Documents/1_Glob-al/CEDAW_C_GC_35_8267_E.pdf).
- 13 O'sha yerda.
- 14 UN, Beijing Declaration and Platform for Action, 15 September 1995, [https://www.un.org/en/events/pastevents/pdfs/Beijing\\_Declaration\\_and\\_Platform\\_for\\_Action.pdf](https://www.un.org/en/events/pastevents/pdfs/Beijing_Declaration_and_Platform_for_Action.pdf).
- 15 OSCE, Ministerial Council, Decision No. 4/18, "Preventing and Combating Violence Against Women", 7 December 2018, <https://www.osce.org/chairmanship/406019?download=true>.
- 16 "UN yexperts urge States and companies to address online gender-based abuse but warn against censorship", UN Office of the High Commissioner for Human Rights, news item, 8 March 2017, <https://www.ohchr.org/EN/NewsEvents/Pages/DisplayNews.aspx?NewsID=21317>.
- 17 UN Human Rights Council, Resolution 32/13, The promotion, protection and enjoyment of hu- man rights on the Internet, A/HRC/RES/32/13, 18 July 2016, <https://undocs.org/A/HRC/RES/32/13>.
- 18 O'sha yerda.
- 19 4 ilovada keltirilgan iqtibosga qarang.
- 20 UN General Assembly, Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression, A/HRC/29/32, 22 May 2015, <https://undocs.org/A/HRC/29/32>.
- 21 O'sha yerda.
- 22 OSCE, Ministerial Council, Decision No. 3/18, "Safety of Journalists", 7 December 2018, <https://www.osce.org/files/f/documents/a/c/462187.pdf>
- 23 44 paragraf, 6 ilovada keltirilgan iqtibosga qarang.

- 24** Council of Europe, Committee of Ministers "Recommendation of the Committee of Ministers to member States on the protection of journalism and safety of journalists and other media actors", CM/Rec(2016)4, 13 April 2016 [https://search.coe.int/cm/Pages/result\\_details.aspx?Objec-tid=09000016806415d9#\\_ftn1](https://search.coe.int/cm/Pages/result_details.aspx?Objec-tid=09000016806415d9#_ftn1).
- 25** UN Human Rights Council, Resolution 21/12, "Safety of Journalists", A/HRC/RES/21/12, 9 October 2012, <https://undocs.org/A/HRC/RES/21/12>.
- 26** UNESCO, Resolution 29, "Condemnation of violence against journalists", November 1997, <https://en.unesco.org/sites/default/files/resolution29-en.pdf>. UN Security Council, Resolution 1738 (2006), 23 December 2006, <http://unscr.com/en/resolutions/doc/1738>.
- 27** "Resolutions on journalists' safety: How does the UN monitor their implementation?", IFEX news item, 22 December 2017, <https://ifex.org/resolutions-on-journalists-safety-how-does-the-un-monitor-their-implementation/>.
- 28** UN Human Rights Council, Resolution 45/17, "The safety of journalists", A/HRC/45/17, 6 October 2020. <https://undocs.org/en/A/HRC/RES/45/18>
- 29** United Nations General Assembly Resolution 74/157, "The safety of journalists and the issue of impunity", adopted on 18 December 2019, <https://undocs.org/A/RES/74/157>.
- 30** См. документ, цитируемый в примечании 28.
- 31** UN General Assembly, Report of the UN Secretary-General on "The safety of journalists and the issue of impunity", A/72/290, 4 August 2017 <https://undocs.org/A/72/290>.
- 32** UN Human Rights Council, Report of the Special Rapporteur on violence against women, its causes and consequences on Combating violence against women journalists, A/HRC/44/52, 6 May 2020 <https://undocs.org/en/A/HRC/44/52>.
- 33** UN Plan of Action on the Safety of Journalists and the Issue of Impunity, UNESCO, CI-12/CONF.202/6, 2012, <https://en.unesco.org/un-plan-action-safety-journalists>.
- 34** UN Sustainable Development Goals (SDGs), SDG 16: Promote peaceful and inclusive societies for sustainable development, provide access to justice for all and build effective, accountable and inclusive institutions at all levels, 2015, <https://sustainabledevelopment.un.org/sdg16>
- 35** "SDG Indicators Metadata repository", UN Sustainable Development Goals Statistics Division, <https://unstats.un.org/sdgs/metadata/?Text=&Goal=16&Target=16.10>.
- 36** 234 izohda keltirilgan hujjatga qarang.
- 37** 37 O'sha yerda.
- 38** OSCE RfOM, "Commitments: Freedom of the Media, Freedom of Expression, Free Flow of Information, 1975-2017", 4th edition, 2017, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/99565>.
- 39** OSCE RfOM, Publications, collected: [https://www.osce.org/resources/publications?filters=taxonomy\\_vid\\_1:\(27\)](https://www.osce.org/resources/publications?filters=taxonomy_vid_1:(27)).
- 40** UN Office of the High Commissioner for Human Rights, Guiding Principles on Business and Human Rights, 2011, [https://www.ohchr.org/Documents/Publications/GuidingPrinciplesBusinessHR\\_EN.pdf](https://www.ohchr.org/Documents/Publications/GuidingPrinciplesBusinessHR_EN.pdf).
- 41** International Labour Organization, C 190-Violence and Harassment Convention, 2019, [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100\\_ILO\\_CODE:C190](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C190).





**Soʻzdan amaliy  
faoliyatga oʻtish**



## **Soʻzdan amaliy faoliyatga oʻtish**

### **Asosiy qatnashchilar nima qila olishadi**

Ayol jurnalistlarning onlayn taʼqibi va suisteʼmoliga qarshi kurashish koʻp qatlamli, manfaatdor tomonlarning hamkorligini talab qiladi. Qoʻllanmaning ushbu boʻlimida davlat va nodavlat tashkilotlari ayol jurnalistlarning onlayn xavfsizligini yaxshilash uchun koʻrishi mumkin boʻlgan tezkor choralar koʻrsatilgan. Maqsad – mavjud chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, asosiy ishtirokchilarni yangi tashabbuslar bilan chiqishga undashdan iborat. Birgalikda bu chora-tadbirlar oʻzaro hamkorlikni yaratishga yordam beradi, bunda ayol jurnalistlar xavfsizroq muhitda Internetda oʻz kasbiy faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

Keyingi oʻn bob mos ravishda hukumat va nodavlat subʼektlari uchun ikkita blokga boʻlingan. Mazkur qoʻllanmasi internetda jurnalist ayollarni taʼqib qilish va haqorat qilish bilan bogʻliq keng koʻlamli muammolarni hal qilish boʻyicha koʻriladigan chora-tadbirlarning toʻliq roʻyxatini taqdim etmaydi. Buning oʻrniga, u har bir asosiy manfaatdor tomonlarga eng dolzarb va amalga oshirilishi mumkin boʻlgan chora-tadbirlarning kichik tanlovini taklif qiladi. Misol tariqasida, tavsiya etilgan harakatlarning har biri turli mamlakatlardagi ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan amaliy misollar tariqasida tavsiya etiladi va ularning har biri foydali manbalar bilan toʻldiriladi. Buning oʻrniga, u har bir asosiy qatnashchiga eng dolzarb va amalga oshirilishi mumkin boʻlgan chora-tadbirlarning kichik tanlovini taklif qiladi. Misol tariqasida, tavsiya etilgan harakatlarning har biri turli mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan amaliy misollar va tavsiyalarning har bir roʻyxati foydali manbalar tanlovi bilan toʻldiriladi. Buning oʻrniga, u har bir asosiy qatnashchiga eng dolzarb va amalga oshirilishi mumkin boʻlgan chora-tadbirlarni taklif qiladi. Misol tariqasida, tavsiya etilgan harakatlarning har biri turli mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan amaliy misollarda namoyon boʻladi va tavsiyalarning har bir roʻyxati foydali manbalar tanlovi bilan toʻldiriladi.

Ayol jurnalistlarning internetdagi xavfsizligini barcha jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash choralariidan ajratib bo'lmaydi va bu muammoni butun jamiyatda gender tengligini ta'minlamasdan hal qilib bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, ayollarning ommaviy axborot vositalarida xavfsizligini ta'minlash, ularga hozirda erkaklar uchun mavjud bo'lgan huquqlar, imkoniyatlar va himoyalarni ta'minlash orqali yaxshilash mumkin. Yuqorida aytilganlarga asoslanib, tavsiya etilgan chora-tadbirlarning ba'zilari jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha mavjud tashabbuslarga genderga mos yondashuvni kiritishni o'z ichiga oladi, boshqalari esa gender tengligi bo'yicha mavjud choralarni kengaytirish yoki moslashtirishga qaratilgan.

## › Gender jihatlarini inobatga olingan yondashuvlar

Internetda ayol jurnalistlarni ta'qib qilish va suiiste'mol qilishni to'xtatish bo'yicha har qanday tashabbus gender nuqtai nazaridan ishlab chiqilishi kerak. Genderga sezgir yondashuv gender rollari, me'yorlari va munosabatlaridan xabardor bo'lish bilan bog'liq bo'lsa, genderga javob beradigan yondashuv gender me'yorlari, rollari va munosabatlarini hisobga olish va ular asosida harakat qilish hamda siyosat va choralarning erkaklar va ayollarga ta'sirini baholashdan iborat.

Quyida sanab o'tilgan chora-tadbirlar va tashabbuslarni amalga oshirishning o'nta yondashuvi mavjud:

### 1. **"Gender-neytal" gender jihatlariga e'tibor bermaslikni anglatadi.**

Har bir qaror va chora-tadbirlar, xoh u qonun hujjatlari, o'quv dasturi, byudjet yoki boshqa hujjat yoxud chora-tadbirlar bo'ladimi, har xil odamlarga, shu jumladan ularning jinsiga qarab turlicha ta'sir qiladi.



2. **Gender oʻziga xoslikning boshqa oʻlchovlari bilan oʻzaro bogʻliqdir.**

Gender yoshi, sinfi, daromadi, etnik kelib chiqishi, jinsiy orientatsiyasi, dini, nogironligi, irqi va boshqa omillar, masalan, shahar va qishloq kelib chiqishi kabi ijtimoiy jihatdan aniqlangan toifalarni tashkil etadi, ular bir-biri bilan bir-biriga bogʻliq boʻlgan tuzilmalarni keltirib chiqaradi. Ushbu yondashuv interseksional deb ataladi va uning zarurati tengsizlik turli odamlarga turli xil taʼsir koʻrsatishi bilan bogʻliqligida koʻrinadi.

3. **Jarayonning barcha bosqichlarida tengsizlikni bartaraf etish kerak.**

Ayollar va erkaklar oʻrtasidagi tengsizlikni, shu jumladan hokimiyat va huquqlardan tengsiz foydalanishni barcha jarayonda, qonunchilik, siyosat va boshqa har qanday harakatlarni ishlab chiqish, rejalashtirish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholash bosqichlarida hisobga olinishi kerak.

4. **Gap nafaqat eʼtiborga olingan narsada, balki qanday amalga oshirilayotganida hamdir.**

Genderga mos keladigan yondashuv nafaqat gender va hokimiyat munosabatlarining kontekstga taʼsir qilish darajasini, balki gender tengligini kuchaytiruvchi va ragʻbatlantiruvchi inklyuziv, ishtirokchi va hurmatga asoslangan jarayonni ham oʻz ichiga oladi.

5. **Axborot - yechimlarni topishning kalitidir.**

Turli siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlarga moslashtirilgan samarali javob choralarni ishlab chiqish uchun jurnalistlarga qarshi hujumlar toʻgʻrisidagi gender va boshqa kesishuvchi omillar boʻyicha aniq va keng qamrovli maʼlumotlar zarur. Turli fikrlarni tinglash muhimdir. Jurnalist ayollarning oʻz faoliyati bilan bogʻliq va ularning hayotiga daxldor boʻlishi mumkin

bo'lgan qarorlarni qabul qilishda faol ishtirokini ta'minlash maqsadida keng va ochiq maslahatlar, jumladan, tegishli sohalarda davlat va nodavlat tashkilotlari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish zarur.

6. **O'zgarishlarga erishish qobiliyatini rivojlantirish.** Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanadigan barcha shaxslarga genderga mos yondashuvlar bilan tanishish imkoniyati berilishi kerak. Keng ko'lamli va uzoq muddatli o'zgarishlarga erishish uchun birinchi navbatda etarlicha ta'sir va kuchga ega bo'lganlarga e'tibor qaratish kerak.
7. **O'zgarishlarga erishish qobiliyatini rivojlantirish.** Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanadigan barcha shaxslarga genderga mos yondashuvlar bilan tanishish imkoniyati berilishi kerak. Keng miqyosli va uzoq muddatli o'zgarishlarga erishish uchun birinchi navbatda etarlicha ta'sir va kuchga ega bo'lganlarga e'tibor qaratish kerak.
8. **Etarli resurslarni taqsimlash.** Genderga mos yondashuvga sodiqlik harakat bilan, xususan, ushbu yondashuvni amalga oshirish uchun yetarlicha insoniy va moliyaviy resurslarni ajratish orqali tasdiqlanishi kerak.
9. **S.M.A.R.T.ning maqsadlarini amalga oshirish.** S.M.A.R.T. Internetda jurnalist ayollarni ta'qib qilish va suiiste'mol qilishga qarshi kurashish tashabbuslari harakatlar uchun javobgarlikni rag'batlantiradigan aniq (Maxsus), o'lchanadigan, erishish mumkin bo'lgan (erish mumkin), tegishli va vaqt bilan bog'liq maqsadlarni belgilashi, gender tengligi hamda olingan saboqlarni tizimlashtirishi, shu bilan kelajakdagi harakatlar samaradorligini oshirishga yordam berishi lozim.

10. **Ayollarning xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlar ularning asosiy huquqlarini cheklash emas, balki ragʻbatlantirishi kerak.** Soʻz erkinligi huquqini cheklashga qodir boʻlgan barcha choralar qonun bilan belgilanishi, qonuniy maqsadga xizmat qilishi, demokratik jamiyatda zarur va mutanosib boʻlishi kerak. Ayollarning kasbiy faoliyatiga toʻsiqlar yoki cheklovlar yaratish ularning xavfsizligini taʼminlashga yordam bermaydi.





**Davlat  
boshqaruvining  
ijro organlari**

---

## Tavsiya etilayotgan chora-tadbirlar

---

1. Jurnalist ayollar uchun alohida shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha milliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
2. Gender jihatlarini hisobga olgan holda jurnalistlarni himoya qilish choralarini ko'rish;
3. To'liq axborotga asoslangan siyosat va tadqiqot olib borish, shuningdek, qaror qabul qiluvchi shaxslar va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan axborot kampaniyalarini rag'batlantirish maqsadida jurnalist ayollarga qilingan hujumlar to'g'risida ma'lumotlarni to'plash;
4. Inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro mexanizmlarni ayol jurnalistlar xavfsizligi holati to'g'risida xabardor qilish va bu

# **1. Davlat xokimiyatining ijro organlari**

## **Ayol jurnalistlar xavfsizligini yaxshilash bo'yicha siyosat va amaliyotlarni amalga oshirish**

Ijroiya hokimiyat davlat boshqaruvi, siyosatni shakllantirish va qonunlarni samarali amalga oshirish va ijro etish jarayonlarini o'rnatish uchun javobgardir. Ushbu bobda prezident ma'muriyati, hukumat rahbari yoki vazirlik ayol jurnalistlarning onlayn xavfsizligini himoya qilish va yaxshilash uchun ko'rishi mumkin bo'lgan bir qator chora-tadbirlar bayon etilgan. Garchi ushbu bo'lim o'z tuzilmasi va funksiyalari jihatidan bir-biridan farq qiladigan mahalliy hokimiyat organlariga tegishli bo'lmasa-da, tavsiya etilgan chora-tadbirlar ularga birdek tegishli bo'lishi mumkin. Ijroiya hokimiyatiga ham kiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning roli to'rtinchi bobda alohida ko'rib chiqiladi.

**EXHT Vazirlar Kengashining 3/18-sonli qarori ishtirokchi-davlatlarni "EXHTning so'z erkinligi va ommaviy axborot vositalari erkinligiga oid barcha xalqaro majburiyatlarni davlat chegaralaridan qat'i nazar axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini hurmat qilish, rag'batlantirish va himoya qilish orqali to'liq bajarishga chaqiradi.**

## › **Jurnalist ayollar uchun alohida shart-sharoitlarni hisobga olgan holda jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha milliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish**

Jurnalist ayollar xavfsizligini ta'minlashga sodiqlik davlatning eng yuqori pog'onasida ham so'zda, ham amalda namoyon bo'lishi kerak. Hukumat a'zolari jurnalist ayollarga kasbiy faoliyati bilan bog'liq hujumlarni, nafaqat jismoniy zo'rvonlik, balki jinsiy zo'rvonlik, qo'rqitish, tahdid va boshqa suiiste'mollik holatlarini, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanish holatlarini ochiq va so'zsiz qoralashi lozim.<sup>1</sup> Rasmiylar o'rnak bo'lishlari va ommaviy axborot vositalarini haqorat qilish, qo'rqitish yoki tahdid qilishdan, jumladan, ayol jurnalistlarga nisbatan seksizmni anglatuvchi so'zlarni ishlatishdan tiyilishlari kerak.

Internetda jurnalist ayollarga nisbatan zo'rvonlik, ta'qib va haqorat qilish ijtimoiy tengsizlik va umuman ayollarga bo'lgan munosabat bilan uzviy bog'liqdir. Genderga asoslangan zo'rvonlik va gender stereotiplarining asosiy sabablarini bartaraf etishga qaratilgan siyosat ayol jurnalistlar xavfsizligini yaxshilash bo'yicha harakatlar rejasini bilan birga bo'lishi va to'ldirilishi kerak. Nafaqat ommaviy axborot vositalarida, balki butun jamiyatda xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirishni rag'batlantirish zarur.

Albatta, internetda jurnalist ayollarga nisbatan tazyiq va tahqirlash ularning ommaviy axborot vositalaridagi faoliyati bilan bog'liq. Jurnalistlar xavfsizligini himoya qilish uchun har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish muhim, shuning uchun jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha milliy harakatlar rejasini ishlab chiqishda raqamli, yuridik va ayol jurnalistlar va ularning erkak hamkasblari tomonidan turli xil tahdidlarning (jismoniy, psixologik, iqtisodiy) ta'sirini baholashni o'z ichiga oladi.



Milliy harakatlar rejasining yakuniy maqsadi gender jihatlarini hisobga olgan holda jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq xalqaro inson huquqlari standartlarini amalga oshirish bo'yicha eng samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'lishi kerak. Bu gender tengligiga putur etkazuvchi gender rollari va hokimiyat munosabatlari dinamikasini o'zgartirish bo'yicha harakatlar bilan bir qatorda jurnalist ayollarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish bo'yicha harakatlarni ishlab chiqishni anglatadi. Aniq qadamlardan biri bu xavfsizlik bo'yicha milliy harakatlar rejasini amalga oshirish doirasida EXHT Vazirlar Kengashining Jurnalistlar xavfsizligi to'g'risidagi № 3/18 qarori kabi muayyan standartlar va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq gender auditini o'tkazishdir. Agar mamlakatda jurnalistlar xavfsizligini himoya qilish bo'yicha milliy harakat rejasi mavjud bo'lsa, u gender nuqtai nazarini aks ettirish va onlayn ta'qib va suiiste'mollikka qarshi kurash choralarini o'z ichiga olgan holda qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bunday chora-tadbirlar onlayn ta'qib va zo'raonlikni aniqlash va ularga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, jurnalist ayollar, ayniqsa, onlayn zo'raonlikka duchor bo'lganlar uchun yordam uyushmalari, tarmoqlari va forumlarini yaratish yoki mustahkamlashni o'z ichiga olishi mumkin.<sup>2</sup>

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda tegishli sohalarda, masalan, gender tengligi, inson huquqlarini himoya qilish va boshqalar bo'yicha milliy harakatlar rejaları doirasida boshqa tashabbuslar bilan hamkorlik qilish qat'iy tavsiya etiladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jurnalistlar xavfsizligi va jazosiz qolish muammosi bo'yicha Harakat rejasiga ko'ra, xalqaro, mintaqaviy va mahalliy darajada BMT tuzilmasidan tashqaridagi turli tashkilotlar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish zarur.<sup>3</sup> Jurnalist ayollarni ta'qib qilish va haqorat qilishiga qarshi kurashish chora-tadbirlari bevosita ushbu muammoga duch kelayotgan jurnalistlarning bevosita ishtirokida ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi kerak – bunda ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar ularning tajribasiga, jurnalistlarning ishtiroki

va ta'qib qilishdagi ishtirokiga asoslanadi. Jarayon, o'z navbatida, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va huquqlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda hokimiyatning barcha tarmoqlari ishtirok etishi mumkin; mustaqil inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari; ommaviy axborot vositalarini tartibga solish va o'zini o'zi boshqarish organlari; Internet-vositachilar; davlat, xususiy va jamoat ommaviy axborot vositalari; jurnalistlarning uyushmalari; fuqarolik jamiyati guruhlari; jurnalistika malakasini oshirish markazlari va ilmiy muassasalar; media savodxonligi bo'yicha ekspertlar va ayollar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar.

## Misollar

**Milliy harakatlar rejalarining integratsiyasi:** Shvetsiyaning "So'z erkinligini himoya qilish: jurnalistlar, alohida maqomga ega vakillar va madaniyat arboblari tahdid va nafratdan himoya qilish chora-tadbirlari" Milliy Harakat rejasida jurnalistlar xavfsizligi rejasini milliy gender strategiyasiga integratsiya qilish zarurligi va genderni bog'liqlikni sud tizimi kabi asosiy ishtirokchilar tomonidan ta'minlash zarurligi e'tirof etilgan. yondashuv.<sup>4</sup> Ushbu rejaning asosiy jihati jamoat muhokamalarida ishtirok etishi munosabati bilan tahdidlarga duch kelganlarni qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash markazlari va ishonch xizmatlari kabi mavjud institutlarni kengaytirish, rivojlantirish va moliyalashtirishdan iborat.

**Auditlarni o'tkazish:** 2018 yilda Amsterdam universiteti Yevropa Kengashining,<sup>5</sup> 2016 yilgi jurnalistikani himoya qilish va jurnalistlar va boshqa ommaviy axborot vositalari xodimlarining xavfsizligi bo'yicha Tavsiyalarining bajarilishi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun Niderlandiyada so'z erkinligi bo'yicha audit o'tkazdi.<sup>6</sup> Audit jurnalist

ayollarga nisbatan onlayn zo'rvonlik masalasini alohida ko'rib chiqmasada, bu samarali baholash yondashuvining yaxshi namunasidir.

**Jurnalistlarni himoya qilishni dasturiy hujjatlarga kiritish:** ta'sirni oshirish uchun jurnalistlarni himoya qilish gender tengligi va inson huquqlari bo'yicha milliy siyosat yoki boshqa tegishli siyosatlarga kiritilishi mumkin. Jumladan, Xorvatiyada amalga oshirilgan 2013-2016 yillarga mo'ljallangan Inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish milliy dasturida jurnalistlarga nisbatan tahdid va zo'rvonlik uchun aybdorlarni jinoiy javobgarlikka tortishni kuchaytirish tavsiya etilgan edi.<sup>7</sup>

## Manbalar

- YUNESKOning Jurnalistlar xavfsizligi ko'rsatkichlari (JXK)<sup>8</sup> milliy darajada jurnalistlar xavfsizligini himoya qilishni baholash uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar to'plamini, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalarni, shu jumladan genderni mos keladigan baholash mexanizmini o'z ichiga oladi.<sup>9</sup> JXK Afg'oniston, Gvatemala, Iroq, Keniya, Nepal va Pokistonda qo'llanilgan.
- BMT Ayollar tashkiloti tomonidan nashr etilgan Ayollarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi kurash bo'yicha Milliy harakatlar rejalari qo'llanmasi jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha harakatlar rejasiga gender nuqtai nazarini integratsiya qilish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qilishi mumkin.<sup>10</sup> "BMT Ayollar"ning yana bir nashri "Gender-sezgir baholashlarni o'tkazish usullari" jurnalida genderni mos yondashuvdan foydalangan holda jurnalistlar xavfsizligini baholash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.<sup>11</sup>

## › **Jurnalistlarni gender nuqtai nazaridan himoya qilish choralari ni ko'rish;**

Tahdidlarga duch kelgan jurnalistlarga maxsus himoya choralari ga to'g'ridan-to'g'ri kirish huquqi berilishi kerak. Jurnalistlarga qarshi tahdidlarga tezkor javob berish mexanizmi ta'qib (potentsial) qurbonini himoya qilish va zo'rvonlikning mumkin bo'lgan kuchayishini oldini olishning samarali vositasi bo'lishi mumkin. Bunday mexanizm davlat organi, masalan, yoki huquqni nazorat qilish organi milliy himoya mexanizm ostida vakolatli idoralararo guruh nazorati ostida bo'lishi mumkin.

Bunday mexanizmlar odatda jismoniy tajovuz holatlarida qo'llanilsa-da, ular huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish uchun, shu jumladan onlayn ta'qib va zo'rvonlik holatlarida ham qo'llanilishi mumkin.

Jurnalist ayollarga nisbatan jinsiy va boshqa zo'rvonlikni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan tahdidlarning aniq va ko'pincha nozik xususiyatini hisobga olgan holda, barcha choralarni, shu jumladan tezkor mexanizmlarni hisobga olish juda muhimdir. Birinchi navbatda, tahdidlarni tahlil qilishda gender o'ziga xosligini hisobga olish va xavfsizlikni ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan jamoalarga ayollarni kiritish zarur. Masalan, huquq-tartibot organlarining ayol xodimlariga hujum qurbonlarini himoya qilish, jumladan, ularni tansoqchi sifatida kuzatib borish, ayollarni ishonch telefoni operatori sifatida ishga yollash vazifasi yuklanishi mumkin. Xavfni baholash va javob protokollari, masalan, hujumga uchragan alohida ayollarning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda, boshqa joyga ko'chirish zarurati tug'ilganda, xavfsizlik yoki yordam choralari ni ko'rish kerak. Tez javob berish yoki himoya qilishning har qanday mexanizmi nafaqat reaktiv, balki profilaktik va faol choralar va echimlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Bu gender tahlili bilan birgalikda jurnalistlarga qarshi xavf va tahdidlarni monitoring qilish uchun onlayn yoki real tizim bo'lishi mumkin. Bunday profilaktika choralari tendentsiyalarni

aniqlashga yordam beradi va tahdidlarga yanada samarali qarshi turish imkonini beradi. Profilaktik chora-tadbirlar, shuningdek, barcha ishtirokchilar uchun trening dasturlarini, jurnalistlar mavjud mexanizmlar va choralar qanday qo'llanilishini o'rganishlari mumkin bo'lgan ochiq axborot resurslarini ishlab chiqish, jumladan, jurnalistlarni onlayn ta'qib qilish va suiste'mol qilishga qanday munosabatda bo'lish bo'yicha treninglarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu sa'y-harakatlarni axborot kampaniyalari bilan birga olib borish kerak. Himoya choralarini yanada qulayroq va samaraliroq qilish uchun ular har bir jurnalistning o'ziga xos ishi va vaziyatiga moslashtirilishi kerak. Bu, himoya vositalari ayollar kiyishi uchun moslashtirilishi, nafaqa oluvchining qaramog'ida bo'lgan shaxslar moddiy yordam ajratishda e'tiborga olinishi, internetda ta'qib yoki tahqirlangan jurnalistlarga maxsus psixologik yordam kafolatlanishi zarurligini bildiradi. Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchilarning barchasi genderni nisbatan sezgir yondashuvlarga o'qitilishi kerak.

Himoya mexanizmlari va chora-tadbirlarini, shu jumladan boshqaruv va nazoratda turli manfaatdor tomonlarning ishtirokini tizimlashtirish bilim va mas'uliyatning keng doirasini ta'minlaydi. Manfaatdor tomonlar ayollar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar va jurnalistik tashkilotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Xavfsizlik choralarini har doim jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun aybdorlarni javobgarlikka tortish va bunday jinoyatlar uchun jazosiz qolishga qarshi kurash bilan birga olib borilishi kerak. Aniq chora sifatida ijro etuvchi hokimiyat organlari so'z erkinligiga va jurnalistlarga qarshi jinoyatlar bo'yicha ixtisoslashgan mustaqil davlat prokurorini tayinlashi mumkin edi. Mustaqil prokuror ishlarni nazorat qiladi va muvofiqlashtiradi; jabrlanganlarga yordam ko'rsatadi; va so'z erkinligiga va jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun jazosiz qolmaslik madaniyatini rivojlantiradi.<sup>12</sup> Bunday mutaxassis genderni mos keladigan yondashuvlar bilan tanish bo'lishi kerak.

Ba'zi mamlakatlarda allaqachon yaxshi o'rnatilgan milliy himoya yoki tezkor javob mexanizmlari mavjud. Biroq, genderga asoslangan hujumlar, jumladan, onlayn ta'qib va zo'ravonlik nisbatan yaqinda jiddiy tahdidga aylanganligi sababli, genderga sezgir yondashuvni kiritish uchun mavjud mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish va isloh qilish zarurati paydo bo'lishi mumkin. Bu jarayon boshqa manfaatdor tomonlar, jumladan, davlat siyosati va xavfsizlikka yordam berishning gender aspektlari bo'yicha ekspertlar bilan maslahatlashgan holda amalga oshirilishi kerak.

## Misollar

**Tezkor milliy mexanizmlarini yaratish:** Italiya Ichki ishlar vazirligining Ufficio Centrale Interforze per la Sicurezza Personale bo'limi jinoiy tashkilotlar tomonidan tahdid qilingan jurnalistlarni tansoqchilar, zirhli transport vositalari va boshqa himoya vositalari bilan ta'minlash orqali tezkor javob mexanizmini joriy qildi.<sup>13</sup>

**Ko'p manfaatli guruhlarni tashkil etish:** Niderlandiya politsiya, prokuratura, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning bunday hujumlarga javob berish bo'yicha sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish uchun jurnalistlarga tajovuz va hujumlarga javob berish bo'yicha ko'p tomonlama muvofiqlashtiruvchi guruhni tuzdi.<sup>14</sup>

**Tergov komissiyalari faoliyatini rag'batlantirish:** Serbiya Ichki ishlar vazirligi Milliy xavfsizlik boshqarmasi va jurnalistlar uyushmalari bilan birgalikda 2013-yilda tuzilgan Sobiq Yugoslaviyada urush davrida sodir etilgan jurnalistlarni o'ldirish jinoyatlarini tergov qilish komissiyasi ishiga rahbarlik qiladi. Komissiyaning 2019-yildagi faoliyati natijasida 1999-yilda serbiyalik jurnalistning o'ldirilishini sodir etgan jinoyatchi sudlangan. Komissiya

internetda jurnalist ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holatlari bilan shug'ullanmasa-da, bu turli manfaatdor tomonlarning birgalikdagi tajribasi va nazoratidan samarali foydalanishning yorqin namunasidir.<sup>15</sup>

**Tez javob berishning mintaqaviy mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash:**

2020-yilda Yevropa Ittifoqi (YEU) jurnalistlarni ommaviy axborot vositalari erkinligi buzilishidan himoya qilish uchun tezkor javob mexanizmini yaratishni qo'llab-quvvatladi, bu esa bir guruh fuqarolik jamiyati tashkilotlari tomonidan kundalik ravishda boshqariladi<sup>16</sup>. Huquq himoyachilari uchun ProtestDefenders.yeu mexanizmi allaqachon mavjud bo'lib, u jurnalistlarni ham o'z ichiga oladi va inson huquqlari nodavlat notijorat tashkilotlari konsorsiumi tomonidan boshqariladi<sup>17</sup>.

**Milliy himoya mexanizmlarini yaratish:**

Kolumbiya dunyoda birinchi bo'lib jurnalistlarni himoya qilish milliy mexanizmini yaratdi, uning tarkibiga ayollar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, hukumat va BMT Ayollar kabi xalqaro tashkilotlar vakillaridan iborat ayollarni himoya qilish bo'yicha maxsus qo'mita kiradi. Qo'mita a'zolari har bir ishni gender nuqtai nazaridan tahlil qilib, vaziyatga to'g'ri javob berishga imkon beradi.<sup>18</sup> 2012 yilda, jurnalistlarni himoya qilish dasturi tashkil etilganidan o'n ikki yil o'tib, Kolumbiya hukumati ayol jurnalistlarga nisbatan tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha protokolni amalga oshirdi.

Bu genderga mos yondashuvni integratsiyalash uchun mavjud mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish va isloh qilishning ajoyib namunasidir.

**Maxsus prokurorlarni tayinlash:**

2006 yilda Meksikada birinchi marta so'z erkinligiga qarshi jinoyatlar, xususan, jurnalistlarga qarshi hujumlar bo'yicha maxsus prokuror tayinlangan.<sup>19</sup>

## Manbalar

- Inson Huquqlari Kengashining (BMTKK) yigirma to'rtinchi navbatdan tashqari sessiyasi ishi to'g'risidagi hisobotida jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat va nodavlat tashkilotlarning ilg'or tajribasi namunalari jamlangan.<sup>20</sup>
- Yevropa Kengashi (EK) jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha "Jurnalistlar va boshqa OAV vakillarini himoya qilish choralarini" nomli tavsiyalar va ilg'or amaliyot namunalari nashr etdi, ularda Idoralararo xavfsizlik standartlarini joriy etishning ba'zi mamlakatlarda jurnalistlarning xavfsizligi borasidagi aniq misollar keltirilgan.<sup>21</sup>
- Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashning bir qator mexanizmlarini "International Media Support" nodavlat notijorat tashkilotining "Jurnalistikani himoya qilish" nashrlari turkumida topish mumkin;<sup>22</sup> ushbu turkumdagi nashrlardan biri ayol jurnalistlar xavfsizligiga bag'ishlangan.<sup>23</sup>
- Jurnalistlar va OAV xodimlariga nisbatan tahdidlarni kuzatish va ularga javob berish mexanizmi Media Freedom Rapid Response Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar va a'zolikka nomzodlar tomonidan qabul qilingan jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar to'plamini chop etdi.<sup>24</sup>
- Palermo universiteti Kolumbiya, Meksika va Gvatemaladagi vaziyat haqidagi hisobotida ushbu mamlakatlarda jurnalistlarni himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi va institutsional tuzilishini tahlil qildi.<sup>25</sup>



› **Ayol jurnalistlarga qilingan hujumlar bo'yicha ma'lumotlar to'plami siyosatni ishlab chiqish va to'liq ma'lumotga asoslangan tadqiqot o'tkazish, qaror qabul qiluvchilar va jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan axborot kompaniyalarini rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.**

Jurnalist ayollarning onlayn ta'qibi va haqoratlanishiga qat'iy javob faqat siyosatchilar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, fuqarolik jamiyati guruhlari va keng jamoatchilik muammoning ko'lami va uning jurnalistlik kasbiga ta'siri, so'z erkinligi va erkin foydalanish imkoniyatlaridan to'liq xabardor bo'lgan taqdirdagina qabul qilinishi mumkin. Bu miqdoriy va sifatli ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tadqiq qilishni talab qiladi.<sup>26</sup>

Boshida jins bo'yicha, shuningdek, boshqa kesishuvchi omillar bo'yicha ajratilgan ma'lumotlarni to'plash kerak. Bunday ma'lumotlar zo'rvonlik ayollarga qanday ta'sir qilishining murakkabligi va xilma-xilligi to'g'risida qaror qabul qilish va tizimli zo'rvonlik jamiyatning ayrim guruhlariga qanday tatbiq etilishini tushunish uchun kerak. Tadqiqotning ba'zi asosiy yo'nalishlari zo'rvonlikning turli shakllarini aniqlash va onlayn hujumlarning jiddiyligini va ularning jurnalist ayollar huquqlari hamda ularning faoliyatiga ta'sirini baholash uchun ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga oladi. Ayollar duch keladigan to'siqlar va xavflarni aniqlash va ularning erkak hamkasblari duch keladigan to'siqlar hamda xavfiardan qanday farq qilishini tushunish siyosatni ishlab chiqish, boshqa mumkin bo'lgan dalillarga asoslangan javoblar haqida ma'lumot beradi. Ideal holatda ma'lumotlarni to'plash milliy statistika idoralari, universitetlar, milliy inson huquqlari institutlari va fuqarolik jamiyati guruhlari bilan hamkorlikda eng aniq va mustaqil ma'lumotlarni olish va shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlash uchun amalga oshirilishi kerak.<sup>27</sup> Milliy ishtirokchilardan tashqari to'plangan ma'lumotlar xalqaro mexanizmlar uchun foydali bo'lishi mumkin. Masalan, 16.10.1 indikatorni amalga oshirish

bo'yicha ixtiyoriy milliy sharhlar. Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDGs) hukumatlardan o'z mamlakatlarida jurnalistlarga qarshi hujumlar soni haqida hisobot berishni talab qiladi.<sup>28</sup>

Ma'lumotlar to'plash internetda jurnalist ayollarga nisbatan uyushtiriladigan ta'qib va hujumlar bu faqatgina jurnalistlarga emas, balki butun OAV da so'z erkinligiga, shuningdek inson va jamiyatning axborotga bo'lgan huquqiga nisbatan tahdid bo'lib, faol axborot kampaniyalarini tashkil etishga turtki bo'lishi mumkin.<sup>29</sup>

Axborotiy-ma'rifiy faoliyat jamiyatdagi mavjud muammolarni yaxshiroq tushunish uchun oldinga qo'yilgan qadamdir. Ta'lim muassasalari ijtimoiy media va joriy tendentsiyalarni o'quv rejalari yoki mediasavodxonlik dasturlariga kiritishi, jamiyatda ommaviy axborot vositalari va raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan kattalar ta'limi va norasmiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi mumkin. Bunday yondashuv barchaga, ayniqsa ayol-jurnalistlarga xavfsiz muhitni yaratish imkonini beradi.

Jamoatchilikni xabardor qilish strategiyasining bir qismi sifatida hukumat amaldorlari ommaviy bayonotlar bilan chiqishlari, shu jumladan, zarur hollarda, ijtimoiy tarmoqlarda internetda zo'rvonlikka duch kelgan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlovchi postlar qo'yishlari zarur. Ular fuqarolar o'rtasida jurnalistikaning o'рни va jurnalist ayollarga qilingan hujumlarning butun jamiyatga salbiy ta'siri to'g'risida xabardorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar tashkil etishlari mumkin. Jahon matbuoti erkinligi kuni (3-may), Xalqaro jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun jazosiz qolishga barham berish kuni (2-noyabr), Xalqaro xotin-qizlar kuni (8-mart) va Xalqaro ayollarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish kuni (25-noyabr) kabi xalqaro xotira kunlari, kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun yaxshi asosdir.

## Misollar

**Yuridik ekspertlar guruhini tashkil etish:** Buyuk Britaniyada jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot olib borish uchun yurist ekspertlardan iborat yuqori darajadagi mustaqil hay'at tashkil etildi.<sup>30</sup> Guruhning 2020-yil fevral oyida chop etilgan birinchi hisoboti jurnalistlarni himoya qilish uchun maqsadli sanksiyalardan foydalanishga qaratilgan.<sup>31</sup>

**Mediasavodxonlik dasturlarini ishlab chiqish:** Yevropa Komissiyasining Yevropa Audiovizual Observatoriyasi uchun milliy ekspertlar tomonidan tayyorlangan hisobotda 2010-yildan buyon Yevropa Ittifoqiga ga a'zo davlatlarda amalga oshirilgan 547 ta mediasavodxonlik loyihasi haqida ma'lumot berilgan. Ushbu loyihalarning 403 tasida ishtirokchilarga tanqidiy fikrlash bilan bog'liq mediasavodxonlik ko'nikmalari shakllantirilgan bo'lsa, 385 ta loyihada media savodxonlik asoslari o'rgatilgan.<sup>32</sup>

Finlyandiya rasmiy va norasmiy ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa sub'ektlarga qaratilgan milliy siyosatni olib boradi hamda bosma va elektron ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar tamoyillarini joriy etishga intilmoqda.<sup>33</sup>

## › **Inson huquqlari bo'yicha asosiy xalqaro mexanizmlarni ayol jurnalistlar xavfsizligi holati to'g'risida xabardor qilish va bu masalani tashqi siyosat kun tartibiga kiritish**

Davlatlar davlatlararo tashkilotlarda (IGO) ishtirok etish orqali jurnalistlar xavfsizligi uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqishda konstruktiv rol o'ynashi mumkin. Ular ushbu tashkilotlarning ko'pgina rezolyutsiyalari, tavsiyalari va qarorlarida ayol jurnalistlarning xavfsizligi, shuningdek, gender masalalariga nisbatan barqaror yondashuvlarni o'z ichiga olishini taklif qilishlari kerak.

Davlatlar, shuningdek, BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish qo'mitasi yoki BMTning Ayollar maqomi bo'yicha komissiyasi (AMK) kabi gender tengligi bilan shug'ullanuvchi tegishli xalqaro shartnoma organlarida faol ishtirok etishlari va ular bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Boshqa narsalar qatorida, Komissiya Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasini amalga oshirishda erishilgan yutuqlarni kuzatib boradi, bu esa ayollarni media sanoatida rag'batlantirish va ommaviy axborot vositalarida genderni asosiy oqimga kiritish muhimligini tan oladi.<sup>34</sup>

Hisobdorlik nuqtai nazaridan davlatlarning muhim majburiyati xalqaro standartlarga muvofiqligi to'g'risida hisobot berish majburiyatidir. Yaxshi tashkil etilgan hisobot maqsadlar yoki majburiyatlar sari olg'a siljishini o'lchaydi va tendentsiyalarni, shu jumladan jazosizlik darajasi va ilg'or tajribalarni hujjatlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlar yig'ish va tadqiqot bilan shug'ullanuvchi nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda davlatlar quyida tavsiflangan mexanizmlarda ishtirok etish orqali jurnalist ayollarga nisbatan zo'ravonlik haqidagi axborot materiallarining miqdori va sifatini yanada yaxshilashlari mumkin.

## Mexanizmga misollar

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Universal davriy sharhi (UPR).<sup>35</sup> UPR jarayonining bir qismi sifatida hukumatlar o'z mamlakatlaridagi inson huquqlari bilan bog'liq vaziyat haqida hisobot berishlari kerak, shundan so'ng BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiya a'zolari uni yaxshilash choralari bo'yicha tavsiyalar beradilar. Bu jarayon barcha hukumatlar uchun ayol jurnalistlarning onlayn va oflayn rejimida xavfsizligini birinchi o'ringa qo'yish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi.
- Davlatlar, shuningdek, BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi va BMT Bosh kotibining jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi va BMT Bosh kotibi rezolyutsiyalarining bajarilishi to'g'risidagi muntazam hisobotlariga o'z fikrlarini taqdim etish orqali ayol jurnalistlar duch kelayotgan muammolarga e'tiborni jalb qilishlari mumkin.<sup>36</sup>
- Xuddi shu narsa BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining Maxsus tartib-qoidalari, xususan, fikr va so'z erkinligi huquqini targ'ib qilish va himoya qilish bo'yicha maxsus ma'ruzachilar, ayol jurnalistlarga nisbatan zo'raonlik masalalarini o'z ichiga olgan boshqa organlar tomonidan chiqarilgan mavzuli hisobotlar, xabarlar va chaqiriqlarga ham tegishli.<sup>37</sup>
- BRMga erishish nuqtai nazaridan natijalarni ixtiyoriy milliy tahlil qilish, xususan BRMning 5 maqsadi (gender tengligiga erishish va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish) va BRMning 16 maqsadi (tinch, adolatli va inklyuziv jamiyatlar qurish), bunda davlatlar jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha jinsga qarab ajratilgan ma'lumotlarni kiritishlari shart.<sup>38</sup>
- YUNESKOning jurnalistlarning o'ldirilishi bo'yicha sud jarayonlarining borishi to'g'risida so'roviga javoban, YUNESKO Bosh direktorining jurnalistlar

xavfsizligi va jazosiz qolish muammosi haqidagi hisoboti BMTning ushbu agentligiga so'z erkinligini himoya qilish, jurnalistlar xavfsizligiga ta'sir etuvchi tendentsiyalarni kuzatish vakolatini beradi.<sup>39</sup> Bundan tashqari, YUNESKO o'zining so'z erkinligi va ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo'yicha global tendentsiyalar hisoboti uchun kengroq ma'lumotlarni to'plamoqda, unda jurnalist ayollarga nisbatan onlayn tazyiqlar haqidagi ma'lumotlar kiradi.<sup>40</sup> Ma'lumotlarni taqdim etishdan tashqari, davlatlar ushbu hisobotlarning natijalarini tarqatishda yordam berishi mumkin.

- Yevropa Kengashiga a'zo davlatlar jurnalistlar bilan bog'liq individual hodisalarni kuzatuvchi va davlatlardan javob so'raydigan Jurnalistikani himoya qilish va jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Yevropa Kengashi platformasi tomonidan e'lon qilingan xabarlariga javob berishi kerak.<sup>41</sup>
- "Ochiq hukumat" Tashkiloti, Internet erkinligi koalitsiyasi, Demokratik davlatlar hamjamiyati va OAV erkinligi koalitsiyasi kabi ko'p manfaatli tomonlar tashabbuslari internetda jurnalist ayollar xavfsizligi bo'yicha siyosat muhokamalarini ilgari surish uchun samarali forumlar bo'lishi mumkin. Ushbu xalqaro mexanizmlarga qo'shimcha ravishda, boshqa mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalar ommaviy tadbirlarni targ'ib qilish, bayonotlar nashr etish va ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan mahalliy yoki mintaqaviy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun safarbar qilinishi mumkin. Tahdidga uchragan jurnalist ayollarga yordam berishning yana bir muhim yo'li viza olish uchun arizalarini topshirish va ularga soddalashtirilgan boshpana berishdir.

## Misollar

### Umumjahon davriy sharhlariga (UPR) jurnalistlar xavfsizligi masalalarini

Ayol jurnalistlarga nisbatan onlayn ta'qib va haqorat qilingan hollarda jazo tayinlash va tegishli jazo choralarini ko'rishda sudlar ushbu jinoyatning so'z va matbuot erkinligi huquqiga ta'sirini hisobga olishlari kerak.<sup>23</sup> Sudyalar, shuningdek, xalqaro inson huquqlari qonunchiligiga muvofiq jurnalistlarga qilingan hujumlar bilan bog'liq boshqa sudlardagi ilg'or tajribalarni ham ko'rib chiqishlari lozim. Bu boradagi sud amaliyoti ko'lamini kengaytirish noqonuniy xatti-harakatlarga yo'l qo'ygan davlat va nodavlat sub'yektlarni ular jazosiz qolmasligiga va sud sanksiyalariga, masalan, jurnalistga yetkazilgan zararni to'lash yo'li bilan qo'llanilishiga ishonitirishi kerak.<sup>24</sup>

Sud tizimi maxsus prokurorlar va turli manfaatdor tomonlar tomonidan tuzilgan mustaqil komissiyalar bilan hamkorlikda jazosizlikka qarshi kurashni kuchaytirishga o'z hissasini qo'shishi kerak – bular mas'ul vazirlik, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlikda tekshiruvlar samaradorligini nazorat qiluvchi maxsus komissiyalar bo'lishi mumkin.

## Misollar

**Hukmlar:** Frantsiyada sakkiz oy davomida frantsuz jurnalistiga onlayn tarzda yuborgan o'lim va zo'rlash tahdidlari uchun ikki kishi olti oylik sinov va 2000 evro jarimaga hukm qilindi.<sup>25</sup> Irlandiyada jinoyatchi "Shaxsga qarshi o'limga olib kelmaydigan jinoyatlar to'g'risida" gi qonun bo'yicha jurnalistni ta'qib qilgani uchun to'rt yarim yilga (oxirgi 18 oy davomida qolish bilan) qamoq jazosiga hukm qilindi.<sup>26</sup>

**Ochiq tergov o'tkazish:** 2019-yil noyabr oyida Maltada jurnalist Dafna Karuana Galizyaning o'ldirilishi bo'yicha ochiq tergov boshlandi. Tergovning boshlanishiga qurbonning oila a'zolari tomonidan tashkil etilgan faol kompaniya, Yevropa Kengashi Huquqiy masalalar bo'yicha qo'mitasi Parlament assambleyasi tomonidan rezolyutsiya qabul qilinishi va boshqa xalqaro tashkilotlarning bosimi sabab bo'ldi.<sup>27</sup>

**Pul kompensatsiyasini to'lash:** Finlyandiyada milliy sud jurnalistga 94 000 evro tovon puli, shuningdek, uch shaxs tomonidan onlayn tazyiqlar, ta'qiblar va tuhmatlar natijasida tibbiy xarajatlari, daromadlari va ijtimoiy ta'minotidan mahrum bo'lganliklari uchun tovon puli to'lashga qaror qildi.<sup>28</sup>

**Fuqarolik-huquqiy himoya vositalarini ta'minlash:** Ko'pgina mamlakatlarda ta'qib qurbonlari, agar onlayn ta'qib qilish yoki suiiste'mol qilish Irlandiya qonunchiligi kabi shaxsning konstitutsiyaviy huquqlarini buzsa, zararni qoplash uchun fuqarolik da'vosi bilan murojaat qilishlari mumkin.<sup>29</sup>

## Manbalar

- Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining (EHM) sud amaliyoti bilan Yevropa Kengashining "Izoh erkinligi, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar: Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining sud amaliyoti" hisobotida tanishish mumkin.<sup>30</sup> Yevropa Kengashi NELP dasturining veb-saytida siz jinoy hukmlarni asoslash va EKIHGa kirish bo'yicha onlayn kursni ham topishingiz mumkin.<sup>31</sup>
- IRIS Merlin Yevropa Audiovizual Observatoriyasining ma'lumotlar bazasida ommaviy axborot vositalari, jumladan, jurnalistlar himoyasi bilan bog'liq foydali huquqiy ma'lumotlar mavjud. Kolumbiya universitetining so'z erkinligi bo'yicha Global sud amaliyoti ma'lumotlar bazasi dunyo bo'ylab so'z erkinligi, jumladan, jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha yuzlab sud qarorlaridan foydalanish imkonini beradi. Oksford universiteti huquq maktabi xalqaro, mintaqaviy va milliy huquqshunoslikka asoslangan jinsiy va genderga asoslangan zo'rvonlik qurbonlarini to'liq qoplab olish va ularni himoya qilish bo'yicha hisobotni chop etdi.<sup>32</sup>

## › **Milliy inson huquqlari tashkilotlarini jurnalistlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni hal qilishda jalb qilish**

Turli mustaqil jamoat tashkilotlari, milliy inson huquqlari institutlari (MIHI), xoh ular komissiyalar, ombudsman idoralari yoki boshqa institutlar bo'lsin jurnalistlar xavfsizligini, shu jumladan, Internetda ayol jurnalistlarni ta'qib qilish va suiiste'mol qilish muammosini hal qilishning tegishli mexanizmlari hisoblanadi. MIHllar monitoring, trening va strategik aloqalar, shuningdek, shikoyatlarni ko'rib chiqish va inson huquqlari va jurnalistlarning huquqlarini buzilishining oldini olish orqali ayol jurnalistlarning xavfsizligi masalasini hal qilishi mumkin.<sup>33</sup> Masalan, MIHllar individual shikoyatlarni ko'rib chiqish va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan shikoyatchilar va davlat organlari o'rtasida vositachilik qilish huquqiga ega. Bundan tashqari, MIHllar ommaviy bayonotlar berishi, axborot kampaniyalarini o'tkazishi va dolzarb tadqiqotlarni nashr etishi mumkin.

MIHllar jurnalistlarga qarshi hujumlarni, jumladan, onlayn ta'qib va haqoratlarini kuzatish uchun yaxshi imkoniyatlarga egadirlar. Mustaqil davlat institutlari sifatida MIHllar jurnalistlar xavfsizligiga tahdidlarning ko'lamini va ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash tizimlarini ishlab chiqishda yaxshi mavqega ega, bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlarini o'z ichiga olgan davlat siyosati va xalqaro mexanizmlarni xabardor qilishi mumkin.

Ba'zi hollarda MIHllar huquqni himoya qilish vositalarini tavsiya qilish va taqdim etish yoki nizolarni muqobil hal qilish bilan shug'ullanish imkonini beruvchi kvaziyurisdiksiya vakolatiga ega. Ochiq sud jarayonlarida ishtirok etishni istamagan ayollarga nisbatan onlayn va ofiayn rejimda ta'qib qilish holatlarida bunday noqonuniy himoya vositalari yaxshiroq muqobil bo'lishi mumkin.

Boshqa institutlar singari, MIHllar ham o'z ishlarida genderga mos yondashuvni qo'llashlari va bunday yondashuvni samarali amalga oshirish uchun tegishli inson va moliyaviy resurslarni ajratishlari kerak.

## Misollar

**Inson huquqlari bo'yicha komissarlarning hisobotlari:** Bosniya va Gertsegovinaning Inson huquqlari bo'yicha komissari jurnalistlarga nisbatan tahdidlarning holati va hodisalari to'g'risida maxsus hisobot tayyorladi, unda jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashning asosiy muammolari, jumladan, onlayn ta'qib va suiiste'mollik aniqlangan hamda davlat tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi baholangan.<sup>34</sup>

**OAV bilan hamkorlikda hisobotlarni chop etish:** Litva Seymidagi Ombudsman idorasi inson huquqlari bo'yicha turli dasturlarni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, Mintaqaviy radiostansiyalar assotsiatsiyasi bilan hamkorlik qiladi. Qo'shma tashabbus doirasida radiojurnalistlar Ombudsman institutidan olingan materiallar asosida turli mavzularda ko'rsatuvlar tayyorlamoqda. Boshqa narsalar qatori, radioeshittirishlar so'z erkinligi va jurnalistlarga nisbatan zo'rvonlik, jumladan, onlayn ta'qib va haqoratlariga ham tegishli.<sup>35</sup>

## Manbalar

- EXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi Ayollar huquqlari va gender tengligi bo'yicha Milliy inson huquqlarini himoya qilish institutlari uchun qo'llanma, Milliy inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari faoliyatiga gender jihatlarini kiritish bo'yicha foydali ko'rsatmalar beradi.<sup>36</sup>


## Havolalar

- 1** UNESCO, "Intensified attacks, new defences: developments in the fight to protect journalists and end impunity", 2019, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000371487>.
- 2** William Horsley, "OSCE Safety of Journalists Guidebook", OSCE RfFoM, 2014. p. 23, <https://www.osce.org/fom/118052?download=true>.
- 3** Yleanor Gordon, "Justice and Gender, in Gender and Security Toolkit", DCAF, OSCE, ODIHR, UN Women, 2019, [https://www.dcaf.ch/sites/default/files/publications/documents/GSToolkit\\_Tool-4%20EN%20FINAL\\_1.pdf](https://www.dcaf.ch/sites/default/files/publications/documents/GSToolkit_Tool-4%20EN%20FINAL_1.pdf).
- 4** Michelle Ferrier, "Attacks and Harassment: The Impact on Female Journalists and Their Reporting", International Women's Media Foundation, TrollBusters, 2018, <https://www.iwmf.org/wp-content/uploads/2018/09/Attacks-and-Harassment.pdf>. Edison Lanza, "Women Journalists and Freedom of Expression: Discrimination and gender-based violence faced by women journalists in the exercise of their profession", IACHR, RFOE, OEA/SER.L/V/II CIDH/RELE/INF.17/17, 31 October 2018, <http://www.oas.org/en/iachr/expression/docs/reports/Women-Journalists.pdf>.
- 5** UN Sustainable Development Goal 16: Promote peaceful and inclusive societies for sustainable development, provide access to justice for all and build effective, accountable and inclusive institutions at all levels, 2015, <https://sustainabledevelopment.un.org/sdg16>.
- 6** 3 ilovada ko'rsatilgan hujjatga qarang. (case study 5: gender and justice reform (Bosnia and Herzegovina)).
- 7** Barbara Trionfi and Javier Luque Martinez, "Newsroom Best Practices for Addressing Online Violence against Journalists: Perspectives from Finland, Germany, Poland, Spain and the United Kingdom", IPI, in co-operation with the OSCE RfFoM, June 2019, <https://newsrooms-on-the-line.ipi.media/wp-content/uploads/2019/06/IPI-report-online-harassment-06032019.pdf>.
- 8** Lorraine Andaya Serrano, "Integrating Gender in Project Design and Monitoring for the Security and Justice Sector", in: Gender and Security Toolkit, DCAF, OSCE ODIHR, UN Women, 2019, [https://dcaf.ch/sites/default/files/publications/documents/GSToolkit\\_Tool-15%20EN%20FINAL\\_0.pdf](https://dcaf.ch/sites/default/files/publications/documents/GSToolkit_Tool-15%20EN%20FINAL_0.pdf)
- 9** Council of Europe, HELP Onli ne Courses, <http://help.elearning.ext.coe.int/>.
- 10** Eduardo Bertoni, "Prevent and Punish: In search of solutions to fight violence against journalists", UNESCO, 2015, [https://en.unesco.org/sites/default/files/prevent-and-punish\\_bertoni.pdf](https://en.unesco.org/sites/default/files/prevent-and-punish_bertoni.pdf).
- 11** Catalina Botero, "Guía político-pedagógica sobre la incorporación de la temática de libertad de expresión y de acceso a la información pública en la formación de operadores judiciales en América Latina", UNESCO, 2016, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000243750>.
- 12** Rosental Calmon Alves, "Training Judges Online to Safeguard Journalists", in the UNESCO Courier, April – June 2017, <https://en.unesco.org/courier/2017-april-june/training-judges-online-safe-guard-journalists>.
- 13** OSCE RfFoM, "OSCE Media Freedom Representative concludes the second Central Asia Judicial Dialogue", March 2020, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/448045>. OSCE RfFoM, "Second Expert Meeting - Central Asia Judicial Dialogue, 2020, [https://www.osce.org/files/f/documents/0/e/461008\\_0.pdf](https://www.osce.org/files/f/documents/0/e/461008_0.pdf)
- 14** "Reinforcing Judicial Expertise on Freedom of Expression and the Media in South-East Europe (JU-FREX)", Council of Europe, South-East Europe Freedom of expression (JUFREX), <https://www.coe.int/en/web/freedom-expression/promoting-freedom-of-expression-in-south-east-europe>.
- 15** Peter Noolander, "On the safety of journalists and other media actors, for the Conference of Ministers responsible for Media and Information Society", Background paper on the implementation of CM/rec(2016)4, May 2020, <https://rm.coe.int/background-paper-safety-of-journalists-and-other-media-actorsfinal/168094b396>.
- 16** UNESCO, "Legal Standards on Freedom of Expression: Toolkit for the Judiciary in Africa", 2018, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000366340>.



- 17** Silvia Chocarro, "International standards on freedom of expression: A basic guide for legal practitioners in Latin America and the Caribbean", Center for International Media Assistance, 2018, <https://www.cima.ned.org/resource/international-standards-on-freedom-of-expression-a-basic-guide-for-legal-practitioners-in-latin-america-and-the-caribbean/>.
- 18** UNESCO, "Caja de herramientas para escuelas judiciales iberoamericanas", 2017, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pt0000251593>.
- 19** Dominika Bychawska-Siniarska, "Protecting the Right to Freedom of Expression Under the European Convention on Human Rights", Council of Europe, 2017, <https://rm.coe.int/hand-book-freedom-of-expression-eng/1680732814>.
- 20** Council of Europe, HELP online platform, <http://help.elearning.ext.coe.int/>
- 21** UN Special Rapporteur on Freedom of Opinion and Expression, OSCE Representative on Freedom of the Media, Organization of American States (OAS) Special Rapporteur on Freedom of Expression and African Commission on Human and Peoples' Rights (ACHPR) Special Rapporteur on Freedom of Expression and Access to Information, "Joint Declaration on Crimes against Freedom of Expression", 25 June 2012, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/91595>.
- 22** O'sha yerda.
- 23** Scott Griffen, "Legal Responses to Online Harassment and Abuse of Journalists: Perspectives from Finland, France and Ireland", OSCE RfOM, March 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/413552?download=true>.
- 24** 5 ilovada ko'rsatilgan hujjatga qarang.
- 25** "RSF publishes report on online harassment of journalists", Reporters Without Borders news item, 1 August 2018, <https://rsf.org/en/news/rsf-publishes-report-online-harassment-journalists>.
- 26** 23 ilovada ko'rsatilgan hujjatga qarang.
- 27** Council of Europe, Parliamentary Assembly Resolution No. 2293, "Daphne Caruana Galizia's assassination and the rule of law in Malta and beyond: ensuring that the whole truth emerges", 26 June 2019, <http://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/Xref-DocDetails-EN.asp?fileid=28053>.
- 28** 2 ilovada ko'rsatilgan hujjatga qarang.
- 29** O'sha yerda.
- 30** European Audiovisual Observatory, "Freedom of Expression, the Media and Journalists: Case-law of the European Court of Human Rights", December 2017, <https://rm.coe.int/freedom-of-expression-the-media-and-journalists-iris-themes-vol-iii-de/16807c1181>.
- 31** Council of Europe, "Human Rights Education for Legal Professionals", August 2017, <https://www.coe.int/en/web/help/-/take-the-help-free-online-course-on-reasoning-of-criminal-judgments->
- 32** University of Oxford, "A Report on Reparations and Remedies for Victims of Sexual and Gender Based Violence", REDRESS, January 2016, <https://rm.coe.int/freedom-of-expression-the-media-and-journalists-iris-themes-vol-iii-de/16807c1181>.
- 33** UN General Assembly, Resolution 74/157, "The safety of journalists and the issue of impunity", 18 December 2019, <https://undocs.org/A/RES/74/157>.
- 34** The Institution of Human Rights Ombudsman of Bosnia and Herzegovina, "Special Report on the Status and Cases of Threats Against Journalists in Bosnia and Herzegovina", June 2017, [https://www.ombudsmen.gov.ba/documents/obudsmen\\_doc2017082415202346eng.pdf](https://www.ombudsmen.gov.ba/documents/obudsmen_doc2017082415202346eng.pdf).
- 35** OECD, "The Role of Ombudsman Institutions in Open Government: OECD Working Paper on Public Governance No. 29", 2018, <https://www.oecd.org/gov/the-role-of-ombudsman-institutions-in-open-government.pdf>.
- 36** OSCE ODIHR, "Handbook for National Human Rights Institutions on Women's Rights and Gender Equality", 2012, <https://www.osce.org/odhr/97756?download=true>.





**Huquq-tartibot  
organlari**

---

## Tavsiya qilinadigan choralar

---

1. Huquq-tartibot organlari xodimlarining, gender muammosini hisobga olgan holda Internetda jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha tayyorgarligi sifatini oshirish;
2. Ta'qib va tahdid xatarini baholashda gender xususiyatlarini hisobga olishni qayta ko'rib chiqish va yaxshilash;
3. Jurnalistlar va so'z erkinligiga qarshi jinoyatlar bo'yicha surishtiruvlar protokollari, uslublari va amaliyotlarini takomillashtirish ;
4. Jurnalistlar xavfsizligi masalalarida huquq-tartibot organlari, OAV va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqotni kengaytirish va harakatlarni muvofiqlashtirish.

## **4. Huquq-tartibot organlari**

### **Himoya uslublarini takomillashtirish va surishtiruvlar samaradorligini oshirish**

Ushbu bo'lim xizmat majburiyatlariga jurnalistlarni himoya qilish va ularga qarshi jinoyatlarni samarali tergov qilish kiradigan huquq-tartibot organlariga bag'ishlangan. O'z kasbiy faoliyatlari davomida ayol jurnalistlar bir qator xatarlar bilan to'qnash kelishlari bois, ularning xavfsizligini ta'minlash choralari gender xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Raqamli muhitda jurnalistlarga qarshi sodir etilgan jinoyatlarni surishtiruv uslublari hali rivojlanish bosqichini boshdan kechirmoqda. Internetdagi suiiste'molchiliklarga qarshi kurash bo'yicha yangi choralarni, tarmoqda insonning huquqlari, jumladan so'z erkinligi huquqi va shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining himoya qilinishi va amalga oshirilishini kafotlatlash uchun, ularni yaxshilab baholash talab etiladi.

Mazkur bo'limda jurnalistlarga qarshi jinoyatlarni samarali tergov qilinishiga nisbatan tavsiyalar va mavjud standartlar sharhi, jumladan Internetda ayol jurnalistlarga qarshi turli ta'qib va suiiste'molchiliklarga nisbatan [EXHT vazirlar Kengashining № 3/18-sonli Qarori](#)da bayon etilgan tavsiyalar taqdim etilgan. Bundan tashqari, unda ushbu tavsiyalarni bajarish uchun huquq-tartibot organlari amalga oshirishlari zarur bo'ladigan eng minimal choralar bo'yicha takliflar ham keltirib yozilgan.

### **EXHT Vazirlar Kengashining № 3/18-sonli Qarori**

«davlat tashkilotlari va huquq-tartibot organlarini jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq bo'lgan axborot-ma'rifiy faoliyati va kasbiy tayyorgarlik bilan shug'ullanishga, hamda bu maqsadga muvofiq bo'lgan o'rinlarda, mazkur faoliyatga fuqarolik jamiyatlarini jalb etishga undaydi».

#### **› Huquq-tartibot organlari xodimlarining, gender muammosini hisobga olgan holda Internetda jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha tayyorgarligi sifatini oshirish**

O'zlarining kundalik faoliyatlarida huquq-tartibot organlari xodimlari har doim ham inson huquqlari va jurnalistlar xavfsizligi borasidagi xalqaro standartlarni yodga olaverishmaydi.<sup>1</sup> Bu masalada jurnalistlar huquqlari bilan yaxshiroq tanishish, ular duch keladigan xatarlarni yaxshiroq baholash, hamda ushbu xatarlarga munosabat bildirish choralari ishlab chiqishda yordam beradigan tayyorgarlik dasturlari qo'l kelishi mumkin. Bunday dasturlar bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi hamda ayol jurnalistlar o'zlariga nisbatan Internetda va undan tashqarida bo'lgan tajovuzlar haqida xabar berishlari mumkin bo'lgan amaliyotlarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak. Shuningdek, bu dasturlar insonni tajovuzning jarohatli tajribasini qayta boshdan o'tkazishga majbur qiladigan institusional xatti-harakat (qayta viktimizasiya deb ham ataladi)ga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralarni ham nazarda tutishi kerak.<sup>2</sup> Texnologiyalarni qo'llash, ularni suiiste'mol qilish va ular taqdim etadigan afzalliklarning umumiy konsepsiyasi, shuningdek huquqiy va texnik jihatlar bo'yicha uslublar va bilimlarni o'z ichiga olgan amaliy modullar Internetdagi gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning turli ko'rinishlarini, hamda

Internetdagi tahdid va ta'qiblar jinoyatga tenglashtirilib, tarmoqdan tashqarida sodir etilgan jinoyatlarga bo'lgani kabi chora ko'riladigan aniq vaziyatlarni aks ettirishi kerak.<sup>3</sup>

Bunday tayyorgarlik huquq-tartibot organlarining bu kabi qonun buzilish holatlari bilan ishlaydigan xodimlari, jumladan, bunday jinoyatlar haqidagi xabar kelib tushadigan polisiya xodimlari va tergovchilar uchun majburiy bo'lishi zarur. Tayyorgarlik dasturi vaqt nuqtai nazaridan aniq jadvalga solingan bo'lishi kerak. Tenglik va diskriminasiya qilinmaslik masalalari bo'yicha modullar xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanishiga to'sqinlik qiluvchi, jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov tizimidagi tuzilmaviy va aniq maqsadga yo'naltirilgan diskriminasiya kabi omillarni bartaraf etish choralari ham o'z ichiga olishi kerak.

Oldini olishga qaratilgan choralari, shuningdek Internetda aynan ayol jurnalistlar ko'proq to'qnash keladigan, hamda ularning erkak hamkasblari duch keladigan xatar va tahdidlardan farq qiladigan, aniq xatar va tahdidlarni aniqlash amaliyotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Huquq-tartibot organlari hayot yoki jismoniy daxlsizlikka tahdidlarga, jumladan Internetda ham, undan tashqarida ham namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan nomusga tegish<sup>4</sup> va boshqa turdagi jinoiy xatti-harakatlarga ustuvor e'tibor qaratishlari zarur.

Huquq-tartibot organlari xodimlari Internetdagi gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchilik holatlarining salbiy oqibatlarini yumshatish va ularning oldini olishga qaratilgan mavjud amaliy uslublarni yaxshi bilishlari lozim. Masalan, ular raqamli xavfsizlik vositalari taqdim etadigan jurnalistlarning elektron qayd yozuvlariga ruxsatsiz kirishning oldini olishga yordam beradigan imkoniyatlarni bilishlari shart. Shuningdek, ular jurnalist faoliyatining o'ziga xosligini, jumladan axborot manbalarini himoya qilishning tanqidiy

imkoniyatlarini hamda ta'qib va suiiste'molchilik holatlarining turli shakllarining jurnalistlarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatiga ta'sirini bilishlari zarur.

Tayyorgarlik jarayonida huquq-tartibot idoralari xodimlari gender zo'rvonligi va ta'qiblardan jabr ko'rgan ayollarning o'zlarini aybdor qilishdek tarixiy va hali ham ko'p uchraydigan holatni hisobga olishlari kerak. Ular bunday holatlar haqida xabar berish va bu kabi xabarlarni ko'rib chiqish psixologik nuqtai nazardan qanchalik og'irligini anglab etishlari kerak. Ayol jurnalistlar tomonidan xabar berilgan Internetdagi suiiste'molchiliklar va boshqa holatlarni e'tiborchiz qoldirish amaliyotining asosida yotgan sabablarni aniqlash xotin-qishlarni tajovuzlardan himoya qilish hamda bunday tajovuzlarning oldini olish choralari ishlab chiqishga xizmat qilishi kerak.

Bundan tashqari, huquq-tartibot organlari xodimlarini jurnalistlarga nisbatan sodir etilgan xati-harakatlar jinoyat deb baholanmaydigan holatlarda ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralardan ham xabardor qilish zarur.

## Misollar

**Polisiya xodimlari uchun onlayn-o'qitish:** Shvesiya polisiya boshqarmasi Uppsal universiteti bilan hamkorlikda nafrat asosidagi jinoyatlarga qarshi kurash, so'z erkinligini, matbuot erkinligini, hamda jurnalistlar, fikrlar etakchilari va siyosatchilarning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash maslalariga bag'ishlangan polisiya xodimlari uchun onlayn-kurs tashkil qilgan.<sup>5</sup>

**Polisiya xodimlari uchun ma'lumotnomalar to'plamlarini chop etish:** Kanada Adliya vazirligi tomonidan chop etilgan hamda polisiya xodimlari va qirollik prokurorlari uchun mo'ljallangan Jinoiy tegajog'liklar bo'yicha



Ma'lumotnomada Internetdagi ta'qiblarning turli ko'rinishlari, shuningdek bunday huquqbuzarliklarni tergov qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonunlar va amaliyotlar bayon etilgan.<sup>6</sup>

## Manbalar

- YUNESKO tomonidan chop etilgan va xavfsizlik kuchlari xodimlari uchun mo'ljallangan [So'z erkinligi va jamoat tartibi](#) nomli yo'riqnomadan inson huquqlari va so'z erkinligiga rioya etilishini ta'minlovchi, jamoat tartibini saqlash va jurnalistlar xavfsizligini himoya qilishga qaratilgan vositalar joy olgan.<sup>7</sup> Qo'llanmadan ko'plab mamlakatlarda, jumladan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonda BMTning jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash va jazochilik muammosi bo'yicha harakatlar Rejasini amalga oshirish doirasida o'tkazilgan seminar va kurslarda foydalanilgan.<sup>8</sup>
- «Artikl 19» huquqni himoya qilish tashkiloti [«Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlari bo'yicha tekshiruv»](#)<sup>9</sup> nomli tahliliy qaydlarni tayyorladi, uning maqsadi – Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini tergov qilishda huquq-tartibot organlariga ko'maklashishdan iborat.

## › **Ta'qib va tahdid xatarini baholashda gender xususiyatlarini hisobga olishni qayta ko'rib chiqish va yaxshilash**

Xotin-qizlar real hayotda to'qnash keladigan kamsitish va tengsizlik holatlari ko'pincha Internetda ham namoyon bo'ladi. Huquq-tartibot organlari xodimlari buni, ayniqsa, ayol jurnalistlar jamiyatda qaror topgan qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlarni ochiqchasiga oshkor etishgan, gender stereotiplarini parchalash orqali o'zlarini qo'shimcha xatarga qo'yadigan holatlarda, yodda tutishlari zarur.

Huquq-tartibot organlari Internetda va real hayotda ayol jurnalistlarga nisbatan tahdidlar natijasida yuzaga kelayotgan xatarning darajasini baholash uchun o'zlari amalga oshiradigan amaliyot va choralarni har tomonlama tahlil qilib chiqishlari kerak. Mazkur tahlil Internetdagi va undan tashqaridagi, har doim ham jinoiy harakat sifatida baholanmaydigan, turli shakldagi tahdidlar xavfi darajasini baholashni ham o'z ichiga olishi hamda real voqelik va raqamli muhit o'rtasidagi aloqani hisobga olishi kerak. Bunday har tomonlama tahlil protokol, ya'ni – jurnalistlar to'qnash keladigan tahdid va xatarlarni tekshirish va ularga munosabat bildirish bo'yicha – hokimiyat tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi uslublar, amaliyotlar va standartlarni ishlab chiqishga yordam berishi kerak.<sup>10</sup>

Huquq-tartibot organlari xodimlari tomonidan taqdim etiladigan barcha hisobotlar xatarni baholash va tavsiya etilayotgan choralarning batafsil bayonini, shuningdek jurnalistlar va gender masalalari bo'yicha ekspertlar tomonidan taqdim etilgan, agar ular baholash yoki surishtiruvga jalb etilgan bo'lishsa, barcha amaliy, kontekstdagi va gender mulohazalarni o'z ichiga olishi zarur.

Xatarni baholashda sodir bo'lgan voqeaning stereotiplar, diskriminasiya, murosasizlik, jinsiy tahdidlar va qo'rqitish kabi xatti-harakat modellari va gender

xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lim ham bo'lishi kerak. Mazkur ma'lumotni kelgusi harakatlarni belgilab olish hamda Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilikning turli ko'rinishlariga oid ma'lumotlarni to'plashni yaxshilash uchun ishlatish zarur.

Huquqni qo'llash funksiyasi Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini yaxshiroq tushunishga va ularga munosabat bildirishning strategik choralarini ishlab chiqishga yordam berishi mumkin. Hokimiyat tuzilmalari ushbu muammo bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni tashkil etishi yoki qo'llab-quvvatlashi kerak,<sup>11</sup> bu esa ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha majburiyatlar hamda maxfiylikni himoya qilish standartlariga qat'iy amal qilgan holda oldini oluvchi yoki tergov choralarini ishlab chiqish yohud kuchaytirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Hodisa haqida xabar bergan jurnalistlar o'zlari taqdim etayotgan ma'lumotdan foydalanilishi va uning qayta ishlanishi haqida, shuningdek huquqbuzarlik yoki suiiste'molchilik holatlari sodir bo'lganda o'zlari qo'llashlari mumkin bo'lgan huquqiy himoya vositalari to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

## Misollar

### **Tahdid va xatarlarni baholash uchun protokollarni ishlab chiqish:**

Xatarlarni baholash uchun namunaviy protokolni ishlab chiqish<sup>12</sup> va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'z kasbiy faoliyati tufayli xatar ostida qolgan jurnalistlarni himoya qilish maqsadida qo'llaniladigan munosabat choralarini takomillashtirish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlarni amalga oshirish maqsadida, sudsiz qatl qilish, etaricha sud qilmasdan qatl etish yoki o'zboshimchalik bilan qatl qilish masalasi bo'yicha Maxsus ma'ruzachi davlatlarni jurnalistlar to'qnash kelayotgan tahdid va xatarlarni tergov qilish, baholash va/yoki ularga munosabat

bildirishning ilg'or tajribalari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish jarayonini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi. Bunday protokollar jurnalistlar to'qnash kelayotgan tahdid va xatarlarning raqamli va texnologik konsepsiyalarini o'z ichiga olishi kerak.

### › **Jurnalistlar va so'z erkinligiga qarshi jinoyatlar bo'yicha surishtiruvlar protokollari, uslublari va amaliyotlarini takomillashtirish**

Jurnalistlarga tajovuzlar bo'yicha surishtiruvlarning samaradorligini oshirish jazosizlikka qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi, ammo bunda ta'qiblarning turli ko'rinishlarini, mos ravishda, ayollar va erkaklar to'qnash kelayotgan ta'sir va xatarlarni hisobga oluvchi gender yondoshuvidan foydalanish juda muhimdir.<sup>13</sup>

Jurnalistlarga nisbatan jinoyatlar uchun jazosizlikka qarshi kurash haqiqat qaror topishi uchun batafsil, xolis, samarali surishtiruvni amalga oshirishni, shuningdek jurnalistlarga qarshi jinoyatlarda aybdor bo'lgan barcha shaxslarni javobsharlikka tortish va yakunda jazolashni nazarda tutadi.<sup>14</sup>

Huquq-tartibot organlari amalga oshirishlari kerak bo'lgan choralardan biri polisiya va prokuraturada jurnalistlarga qarshi jinoyatlarni tergov qiladigan maxsus bo'linmalarni tashkil etish, shuningdek jurnalistlarga qarshi jinoyatlarning ustuvorligi va o'ziga xosligini belgilab beruvchi har qanday shunga o'xshash va adekvat mexanizmlarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bunday bo'linmalarning yoki maxsus mexanizmlarning faoliyati umumiy ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan uslublar, amaliyotlar yoki protokollarga asoslanishi kerak.

Qolaversa, huquq-tartibot organlariga ayol jurnalistlarga nisbatan jinoyatlar xatarini baholash va ularni tergov qilishga birlamchi e'tibor qaratishlari uchun etarli miqdorda manbalar ajratilishi zarur. Bundan tashqari, ularga jurnalistlarga qarshi jinoyatlar yuzasidan surishtiruvlar jarayonida jinoyatlar jabrlangan shaxsning jurnalistlik faoliyati bilan bog'liqligi to'g'risidagi taxminni batafsil ko'rib chiqishlari uchun bir qator maxsus standartlar, amaliyotlar va protokollarni ishlab chiqishlariga imkon yaratib berish kerak. Agar huquq-tartibot organlari xodimlari ushbu taxmin bo'yicha surishtiruv olib borishni rad etishsa, ular o'z qarorlarini yozma shaklda asoslab berishlari va yuqori turuvchi mansabdor shaxsning roziligini olishlari kerak bo'ladi. Ayol jurnalistlar bilan bog'liq holatlarda esa hisobotda gender xususiyatlarini ham aks ettirish zarur.

Internetdagi ta'qib va tahdidlar jinoyatga tenglashtirilgan hamda ularga nisbatan real hayotda sodir etilgan jinoyatlarga qo'llaniladigan uslub va amaliyotlar qo'llanilishi kerak bo'lgan holatlarda, huquq-tartibot organlari xodimlari bunday jinoyatlarning oldini olish va ularni tergov qilishda eng samarali bo'lgan uslub va amaliyotlarni aniqlab olish maqsadida tergov-surishtiruvning amaldagi protokollari va oldini oluvchi choralarini tahlil qilib chiqishlari kerak. Bunday tahlilga zo'ravonlik jabridiydalari bilan ishlovchi tashkilotlar va ekspertlarni hamda odil sudlov tizimidan foydalanishda to'siqlarga duch kelgan ayol jurnalistlarni jalb etish foydadan holi bo'lmaydi.

## Misollar

**Yuqori sud instansiyalariga tavsiyalar taqdim etish:** Buyuk Britaniyaning qirollik prokuror xizmati o'zining 2018 yil e'ln qilgan materialida ijtimoiy tarmoqlar orqali jo'natilgan xabarlar yuzasidan ishlar bo'yicha qarorlar

qabul qilish borasida tavsiyalarni keltirib o'tgan bo'lib, [«Ijtimoiy tarmoqlar – ijtimoiy tarmoqlar orqali jo'natilgan xabarlar bilan bog'liq ishlarning sudda ko'rilishi bo'yicha tavsiyalar»](#) deb nomlangan ushbu materialda ijtimoiy tarmoqlardagi qanady xabarlarni jinoyiy ish sifatida ko'rib chiqish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.<sup>15</sup>

**Javobgar shaxslarni tayinlash:** Kosovo polisiyasi rahbariyati jurnalistlarga tajovuz va tahdid holatlari bo'yicha surishtiruv-tergov harakatlarini olib borishni o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha Departamentga topshirdi. Shu munosabat bilan Prishina birlamchi instansiya sudi jurnalistlarga nisbatan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha muvofiqlashtiruvchini tayinladi.<sup>16</sup>

## Manbalar

- Bir qator fuqarolik jamiyati tashkilotlari prokuratura bilan hamkorlikda Meksikada so'z erkinligiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish uchun maxsus protokolni qabul qilishdi. U tergov-surishtiruv va dalillar to'plashning tezkor me'yorlarini, turli hokimiyat organlari o'rtasidagi hamkorlikni, shuningdek tegishli shaxslarni tegishli xizmatlarga yuborish hamda ular o'rtasida aloqa o'rnatish choralari o'z ichiga oladi.<sup>17</sup>
- «Artikl 19» huquqni himoya qilish tashkilotining [«Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlari bo'yicha surishtiruv olib borish»](#) nomli tahliliy qaydnomasida Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlariga qarshi kurash va bunday jinoyatlar yuzasidan samarali surishtiruv olib borish bo'yicha davlatning majburiyatlari hajmi ko'rib chiqilgan.<sup>18</sup>

## › **Jurnalistlar xavfsizligi masalalarida huquq-tartibot organlari, OAV va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi muloqotni kengaytirish va harakatlarni muvofiqlashtirish**

Jamiyatning qonun ustuvorligiga ishonchini mustahkamlash va gender asosidagi kamsitishga qarshi samarali kurashish maqsadida, huquq-tartibot organlari polisiya, prokuratura, OAV tashkilotlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlashlari kerak. Internet va undan tashqaridagi hujum va jinoyatlar ob'ekti bo'lgan jurnalistlar bu haqda polisiyaga xabar berishlari juda muhimdir.

Tomonlar o'rtasidagi muloqot jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun jazosizlikning tub ildizlarini bartaraf etishga hamda texnologiyalarning inson huquqlarini ta'minlashdagi va jurnalistlar huquqlarining buzilishi xavfini yuzaga keltirishdagi rolga qaratilishi kerak. Agar huquq-tartibot organlari diskriminasiya mavjud amaliyot va tuzilmaviy to'siqlarga qarshi kurashish uchun amaliyotlarni ishlab chiqish va qo'llashga intilishsa, barcha tomonlar tajovuzlar jabrdiydalaridan va Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarcha to'qnash kelgan insonlarga yordam ko'rsatadigan guruhlardan ma'lumot olishning o'ta muhimligini tushinishlari zarur. Muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik hisobdorlik va zararni qoplashni ta'minlashning yangi uslub va amaliyotlarini ishlab chiqish hamda mavjudlarini takomillashtirishga qaratilishi kerak.

Huquq-tartibot organlari, shuningdek xalqaro hamkorlik bo'yicha tashabbuslarda, masalan, jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatlarning odil sudlovi bo'yicha Komissiya tomonidan rahbarlik qilinadigan BMTning giyohvandlik va jinoyatchilik bo'yicha Boshqarmasi(YuNODK) ning tashabbuslarida ishtirok etishlari mumkin. Bunday tashabbuslar jinoyatlarning odil sudlovi hamda jurnalistlarga qarshi jinoyatlarning oldini

olish uslublari haqidagi tajribalar, bilimlar va ma'lumotlarni almashish imkoniyatini beradi hamda fuqarolik jamiyati va OAV ishtirokida amalga oshirilishi kerak.

## Misollar

### **Tergov-surishtiruv ishlari samaradorligini oshirish maqsadida**

**hamkorlik:** Niderlandiya polisiyasi va prokuraturasi Niderlandiya bosh muharrirlar jamiyati bilan hamkorlikda jurnalistlarga tajovuzlar bo'yicha, jumladan, tajovuz holatlarini tizimli ro'yxatga olib borish, jurnalistlarga tajovuzlarga ustuvor ahamiyat qaratish, tajovuzlar jabrdiydalari uchun ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligini oshirish choralarini ko'rish orqali surishtiruvlar samaradorligini oshirish borasida kelishuvga erishildi.<sup>19</sup>

**O'zaro hamkorlik uchun umumiy platforma yaratish:** Matbuot va OAV erkinligi Evropa markazi (ECPMF) polisiya va axborot tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash uchun [policecodex.eu](http://policecodex.eu) veb-resursini ishga tushirdi.<sup>20</sup> Bu polisiya xodimlari uchun mo'ljallangan, jurnalistlik faoliyatiga qanday munosabatda bo'lish, jurnalistlar bilan qanday muloqot va hamkorlik qilish bo'yicha sakkizta uslubiy tavsiyalardan tashkil topgan kodeksdir. ECPMF tadqiqotlari natijalariga ko'ra, qayd etilgan tavsiyalar Evropa mamlakatlarida mazkur ikkita kasbiy guruhlar o'rtasida yuzaga keladigan eng dolzarb nizoli masalalarni o'z ichiga olgan.

### **Muloqotni kengaytirish uchun birgalikda o'qitishlarga ko'maklashish:**

YuNESKO Ukraina, Nepal, Senegal, Tanzaniya, Somali, Burkina-Faso va Tunis kabi davlatlardagi huquq-tartibot organlari xodimlari va jurnalistlar uchun tuzilmaviy muloqot va seminarlar tashkil qildi.<sup>21</sup>



**Yangi ishtirokchilarni muloqotga chorlash:** Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatlarning odil sudlovi bo'yicha YuNODK komissiyasi hukumatlar va fuqarolik jamiyati vakillari ishtirokida jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha muloqotlar tashkil qiladi.<sup>22</sup>

**Ehtimoliy ta'qib ob'ekti bilan hamkorlikka o'rgatish:** EXHTning transmilliy tahdidlar bo'yicha Departamenti Armaniston polisiyasi xodimlari uchun, ularning namoyishlar paytida fuqarolik jamiyati bilan o'zaro hamkorligini yaxshilash maqsadida, jumladan namoyishlarda qatnashayotgan xotin-qizlarga alohida munosabatda bo'lish masalalarini ham qamrab olgan o'quvlar tashkil qildi.<sup>23</sup>

## Manbalar

- YUNESKO Ukrainada huquq-tartibot organlari vakillari va jurnalistlar ishtirokida o'tkazilgan seminarlar to'g'risida hisobot va videoni, ularning o'zaro hamkorlik borasidagi tajribasi bilan o'rtoqlashish maqsadida e'lon qildi.<sup>24</sup>

## Havolalar

- 1 1 UN Special Rapporteur on Freedom of Opinion and Expression, OSCE Representative on Freedom of the Media, Organization of American States (OAS) Special Rapporteur on Freedom of Expression and African Commission on Human and Peoples' Rights (ACHPR) Special Rapporteur on Freedom of Expression and Access to Information, "Joint Declaration on Crimes against Freedom of Expression", 25 June 2012, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/91595>.
- 2 UN General Assembly Resolution 74/157, "The safety of journalists and the issue of impunity", 18 December 2019, <https://undocs.org/A/RES/74/157>.
- 3 OSCE RfOM, "Communiqué on the growing safety threat to female journalists online", 6 February 2015, <https://www.osce.org/fom/139186?download=true>.
- 4 "New Challenges to Freedom of Expression: Countering Online Abuse of Female Journalists", OSCE RfOM, 2016, <https://www.osce.org/fom/220411>.
- 5 Council of Europe, "How to protect journalists and other media actors? Implementation Guide to selected topics under the Protection and Prosecution pillars of the Guidelines of Recommendation CM/Rec(2016)4 on the protection of journalism and safety of journalists and other media actors", DGI(2020)11, 2020, p. 21, <https://rm.coe.int/safety-implementation-guide-en-16-june-2020/16809ebc7c>.
- 6 "A Handbook for Police and Crown Prosecutors on Criminal Harassment", Government of Canada, Department of Justice, <https://www.justice.gc.ca/eng/rp-pr/cj-jp/fv-vf/har/part1.html#cybstalk>.
- 7 UNESCO, Freedom of Expression and Public Order: Training manual, Tunis, 2015, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000231305>.
- 8 "Almaty Training on Freedom of Expression and Public Order", UNESCO news item, 9 December 2019, <https://en.unesco.org/news/almaty-training-freedom-expression-and-public-order>.
- 9 ARTICLE 19, "Investigating online harassment and abuse of women", 2020, <https://www.article19.org/https://www.article19.org/wp-content/uploads/2020/10/Gender-Paper-Brief-3.pdf>.
- 10 UN Human Rights Council, Report of the Special Rapporteur on extrajudicial, summary or arbitrary executions, "Investigation of, accountability for and prevention of intentional State killings of human rights defenders, journalists and prominent dissidents", A/HRC/41/CRP.1, 19 June 2019, [https://ap.ohchr.org/documents/dpage\\_e.aspx?si=A/HRC/41/36](https://ap.ohchr.org/documents/dpage_e.aspx?si=A/HRC/41/36).
- 11 OSCE RfOM, "Recommendations following the Expert Meeting New Challenges to Freedom of Expression: Countering Online Abuse of Female Journalists", 17 September 2015, <https://www.osce.org/fom/193556?download=true>.
- 12 10 ilovada keltirilgan hujjatlariga qarang.
- 13 1 ilovada keltirilgan hujjatlariga qarang.
- 14 UN General Assembly, Resolution 39/6, "The safety of journalists", 27 September 2018, <https://undocs.org/A/HRC/RES/39/6>.
- 15 "Social Media - Guidelines on prosecuting cases involving communications sent via social media", The Crown Prosecution Service, <https://www.cps.gov.uk/about-cps>.
- 16 Petrit Çollaku, "Kosovo Indicators on level of media freedom and journalists' safety", Association of Journalists of Kosovo, 2018.
- 17 Procuraduría General de la República, Estados Unidos Mexicanos, "Protocolo homologado de Investigación de delitos cometidos contra la libertad de expresión", October 2018, [https://www.gob.mx/cms/uploads/attachment/file/444272/Protocolo\\_homologado\\_de\\_investigacion\\_de\\_delitos\\_cometidos\\_contra\\_la\\_libertad\\_de\\_expresion.pdf](https://www.gob.mx/cms/uploads/attachment/file/444272/Protocolo_homologado_de_investigacion_de_delitos_cometidos_contra_la_libertad_de_expresion.pdf).
- 18 9 ilovada keltirilgan hujjatlarni qarang.
- 19 "Agreement of the Steering Group on Aggression and violence against journalists" (Unofficial translation by Tarlach McGonagle), The Hague, 2018, <https://www.ivir.nl/publicaties/download/Agreement-of-the-Steering-Group-on-Aggression-and-violence-against-journalists-EN-translation.pdf>. All

information related to the safety "mechanism" in The Netherlands is now available in this website, in Dutch:

<https://www.persveilig.nl/>.

**20** The European Centre for Press and Media, The Press Freedom Police Codex, <https://policecodex.eu/>.

**21** "UNESCO partners with Tunisian Ministry of the Interior to improve safety of journalists", UNESCO news item, 2019, <https://fr.unesco.org/news/%E2%80%99unesco-et-le-minist%C3%A8re-de-%E2%80%99int%C3%A9rieur-de-la-tunisie-coop%C3%A8rent-pour-am%C3%A9liorer-la-s%C3%A9curit%C3%A9-des>.

**22** "The Safety of Journalists: Report on UNODC CCCPCJ Side-Event", Academic Council of the United Nations System, 7 July 2014, <https://acuns.org/the-safety-of-journalists-report-on-unodc-cccpcj-side-event/>.

**23** "OSCE Transnational Threats Department / Strategic Police Matters Unit introduces concept of dialogue policing to senior police officers and parliamentarians in Armenia", OSCE polis, November 2019, <https://polis.osce.org/osce-introduces-concept-dialogue-policing-senior-police-officers-and-parliamentarians-armenia>.

**24** "Film on the training of Ukrainian law enforcement officers on freedom of expression & safety of journalists", UNESCO news item, 11 April 2018, <https://en.unesco.org/news/film-training-ukrainian-law-enforcement-officers-freedom-expression-safety-journalists>.





**Davlatlararo  
tashkilotlar**

---

## Tavsiya etiladigan choralar

---

1. Gender xususiyatlarini inobatga olgan yondoshuvlarni jurnalistlar xavfsizligiga oid huquq himoyasi standartlari va mexanizmlariga kiritish;
2. Jurnalistlar xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlarni amalga oshirishda bo'shliqlarni to'ldirishda davlatlarga ko'maklashish ;
3. Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashabbuslar uchun axborot manbasi sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar va tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga ko'maklashish ;
4. Manfaatdor tomonlar o'rtasida, ular faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida, hamkorlik va muvofiqlashtirishga birlamchi e'tibor qaratish.

## **5. MDavlatlararo tashkilotlar**

### **Standartlarni belgilashdan tortib, davlatlarga yordam ko'rsatishgacha**

Davlatlararo tashkilotlar (DAT) o'z xarakteriga ko'ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) kabi global, yoki Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) singari mintaqaviy bo'lishidan qat'iy nazar, ular inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar, shu jumladan, ayol jurnalistlar xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi standartlarning mustahkamlanishida muhim rol o'ynashi mumkin. DAT o'z a'zolari yoki ishtirokchi davlatlarga ushbu standartlarni mamlakat darajasida joriy etishda yordam berishi mumkin. Ushbu bo'limda DAT o'zining Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash borasidagi faoliyatini kuchaytirishi uchun qo'l kelishi mumkin bo'lgan bir qancha tavsiyaviy choralar keltirib o'tilgan.

**EXHT vazirlar Kengashining 3/18-sonli qarorida** davlatlarga «EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili bilan, jumladan jurnalistlar xavfsizligi masalasida har tomonlama hamkorlik qilishga» va «EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilini kelgusida ham o'z vakolatidan kelib chiqib, EXHTga a'zo barcha davlatlarda jurnalistlarning xavfsizligini himoya qilish va uni yanada samaraliroq ta'minlash uchun harakat qilishga undashga» chaqiriq mavjud.

## › **Gender xususiyatlarini inobatga olgan yondoshuvlarni jurnalistlar xavfsizligiga oid huquq himoyasi standartlari va mexanizmlariga kiritish**

So'nggi yillarda jurnalistlar xavfsizligiga oid xalqaro standartlar va majburiyatlar soni ortdi, ularning ko'pchiligida ayol jurnalistlarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, BMTning rezolyusiyalari va YUNESKOning majburiyatlarida ayol jurnalistlar tarmoqda va real hayotda duch kelayotgan aniq tahdidlarga qarshi kurashish zarurligi bot-bot takrorlanmoqda. EXHT singari mintaqaviy tashkilotlar ham jurnalistlar xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan o'z hujjatlariga ayol jurnalistlar himoyasi masalasini kiritishgan.

Bunday jiddiy e'tibor jurnalistlar xavfsizligi va so'z erkinligining ajralimas qismi bo'lgan ayol jurnalistlar xavfsizligiga yondoshuvda ijobiy o'zgarish bo'layotganini aks ettiradi. Shunga qaramay, nafaqat ayol jurnalistlar himoyasiga yordam beradigan, balki ularning imkoniyatlarini kengaytiradigan, gender xususiyatlarini inobatga oluvchi, kompleks yondoshuvning barcha standartlarida aks ettirish bo'yicha ishlarni davom ettirish zarur. Albatta, bu jarayonda xotin-qizlarning fikrlarini ham inobatga olish kerak.

Jurnalistlarning xavfsizligi masalasi bilan shug'ullanadigan BMTning ko'plab mexanizmlari va mintaqaviy huquq himoyasi mexanizmlari hamda boshqa tashabbuslar mavjud. Afsuski, ularning barchasi ham gender xususiyatlarini inobatga oluvchi kompleks yondoshuvni qo'llashmaydi, ayrimlari esa internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning ayol jurnalistlarning kasbiy faoliyati va shaxsiy hayotiga ta'siri masalasini hamda ushbu muammo echimining extimoliy variantlarini ko'rib chiqishmaydi. Gender yondoshuvini kuchaytirish maqsadida mavjud muvofiqlashtiruvchi tashabbuslardan, jumladan BMTning jurnalistlar xavfsizligi va jazosizlik



muammosi bo'yicha harakatlar rejasi hamda BMTning jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha muvofiqlashtiruvchi markazlaridan foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, DATda ayni paytda mavjud bo'lgan, inson huquqlari buzilishiga tezkor munosabatni ta'minlovchi huquqni himoya qilish mexanizmlaridan Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligi muammosiga e'tiborni kuchaytirish maqsadida foydalanish uchun imkoniyatlar mavjud. Ayol jurnalistlar to'qnash kelayotgan xatarlar jiddiy tarzda ortib borayotgani tan olgan holda, DAT organlari tezkor munosabat bildirishning yangi mexanizmlarini tashkil qilish masalasini ko'rib chiqishlari mumkin.

## Misollar

### **BMT Bosh Assambleyasi (BMT BA) bilan kelishilgan qoidalarning**

**bajarilishi:** Masalan, 2019 yilgi [BMT BAning 74/157 rezolyusiyasi](#) «gender xususiyatlarini hisobga oluvchi» yondoshuvlarni jurnalistlarga nisbatan zo'rvonlik holatlari bo'yicha barcha preventiv va himoya choralariga, surishtiruv va sud jarayonlariga joriy etish standartini belgilab berdi.<sup>1</sup> Davlatlararo tashkilotlarga ham mazkur standartlarni qo'llash tavsiya etiladi.

### **Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash uchun mustaqil davlatlararo**

**tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash:** EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilning 1997 yilgi Mandatida shunday so'zlar bor: «U erta ogohlantirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. U, jumladan, OAV faoliyati uchun to'siqlar va jurnalistlar faoliyat olib borishi uchun noqulay sharoitlar keltirib chiqargan jiddiy muammolarni hal qiladi».<sup>2</sup> Vakilning kundalik faoliyati o'z ichiga baholash va dalillarga e'tiborni qaratishni oladi. EXHT 2004 yildan buyon gender muammosi hisobini olib boradi.<sup>3</sup> 2015 yilda

EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili ayol jurnalistlarning xavfsizligi bo'yicha o'z loyihasi(#SOFJO)ni ishga tushirdi,<sup>4</sup> [EXHT vazirlar Kengashining jurnalistlar xavfsizligi to'g'risida 2018 yildagi 3/18-sonli qarori](#) esa ayol jurnalistlar duch keladigan aniq xatarlarni tan oladi hamda ishtirokchi davlatlarni ayollarning real hayotda va Internetda ta'qib qilinishini oshkora qoralashga chaqiradi.<sup>5</sup>

## Manbalar

- EXHT o'z faoliyatida EXHTga gender yondoshuvini ta'minlashga yordam beradigan turli tashabbus va tadbirlarga gender yondoshuvlarini qanday integrasiya qilish mumkinligi borasida bir necha [yo'riqnomani](#) e'lon qilgan. [EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilining EXHT Drimiy kengashiga ikki yillik hisoboti](#)da Vakil tomonidan har bir hisobot davrida qayd etilgan OAV erkinligining buzilishi holatlari va xavfiari keltirib o'tilgan.<sup>6</sup>
- BMT tizimidagi barcha strategiyalar va dasturlarda gender muammosining har tomonlama hisobga olinishini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashining [2019/2-sonli rezolyusiyasida](#) keltirib o'tilgan.<sup>7</sup>
- «Artikl 19» tashkiloti tomonidan tuzilgan [«Jazosizlikka barham berish: jurnalistlar xavfsizligi sohasida BMTning standartlariga muvofiq harakatlar»](#) nomli yo'riqnoma mavjud majburiyatlarni umumlashtiradi hamda jurnalistlar xavfsizligining xalqaro standartlariga gender xususiyatlarini hisobga oluvchi yondoshuvlarni qo'llashga bag'ishlangan bo'limni o'z ichiga oladi.<sup>8</sup>

- [IFEX tarmog'ining «Besh daqiqaligi»](#) - bu jurnalistlar xavfsizligining xalqaro standartlarini tushuntirish vositasi.<sup>9</sup>

## › **Jurnalistlar xavfsizligi sohasidagi xalqaro standartlarni amalga oshirishda bo'shliklarni to'ldirishda davlatlarga ko'maklashish**

Xalqaro standartlar qog'ozda qolib ketmasligi uchun ularni hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Davlatlarga ko'rsatilayotgan bevosita yordam, qo'llab-quvvatlash va ekspert maslahatlari hajmini kengaytira borib, DATlar Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va gender zo'ravonligiga nisbatan xalqaro standartlarni amalga oshirish va aniqlashtirishda yordam berishlari mumkin. Bunday yordamning usullaridan biri jurnalistlarga nisbatan xaar va ta'vib holatlarida qo'llaniladigan mavjud qonunchilikni huquviy jihatdan tahlil qilish va tegishli maslahatlarni taqdim etishdan iborat bo'lishi mumkin.

Shuningdek, davlatlararo tashkilotlar o'z ichiga ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini tekshirishning rahbariy tamoyillari, himoya mexanizmlari va Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklarni kamaytirish bo'yicha choralarni olgan, Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashning ilg'or uslublari to'plamining chop etilishini qo'llab-quvvatlashlari mumkin. Davlatlarga yordam ko'rsatishning boshqa bir samarali usuli tekshiruvlarni amalga oshirishda davlat hokimiyatining milliy va submilliy organlariga qo'maklashish va ular bilan hamkorlik qilish hisoblanadi.

DAT tomonidan extimoliy qo'llab-quvvatlashning boshqa bir jihati jurnalistlar xavfsizligini himoya qilish, Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar, shuningdek gender yondoshuvlari masalalari bilan shug'ullanuvchi davlat muassasalarining

imkoniyatlarini kuchaytirishdan iboratdir. DATning davlat organlari xodimlari o'rtasida ekspert bilimlarini to'plash, masalan, inson huquqlari bo'yicha yo'riqnoma yoki o'quv qo'llanmalarini tayyorlash bo'yicha intilishlari o'z ichiga so'z erkinligi huquqi, internetda va undan tashqarida jurnalistlar xavfsizligi, shuningdek qat'iy gender yondoshuvlariga bag'ishlangan bo'limlarni olishi kerak.

Saylovlar davrida jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlik va qo'rqitish, jumladan internetdagi tajovuzkorlik kuchayadi.<sup>10</sup> Bunday tajovuzlar fuqarolarning saylovlardan oldin va saylov paytida axborot olish imkoniyatini cheklab qo'yadi. DATlar o'zlarining saylovlardagi kuzatuvchilik maqomi doirasida jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari, xususan Internetdagi gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchiliklarni tahlil qilishga ko'maklashishlari mumkin. Kuzatuv va profilaktikaning boshqa choralarini jurnalistlarga tajovuzlar ko'payib borishiga qarab saylovlardan ancha oldin ko'rish maqsadga muvofiqdir.

## Misollar

**Ilg'or tajribalar haqidagi hisobotlarni e'lon qilish:** EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili Internetda ayol jurnaliyatlar xavfsizligiga bag'ishlangan, jumladan mazkur sohadagi ilg'or tajribalar tahlili va tavsiyalarni ham o'z ichiga olgan, o'z hisobotini e'lon qildi va boshqa organlarning hisobotlari tayyorlanishida ishtirok etdi. Mazkur ma'lumot bilan [SOFJO](#)ning maxsus veb-sahifasida tanishish mumkin.<sup>11</sup>

BMTning xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik masalalari bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi uning sabablari va oqibatlari to'g'risida [Ayol jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash to'g'risida hisobotni](#) e'lon qildi, unda

BMT va unga a'zo davlatlarga ayol jurnalistlarga nisbatan zo'rvonlikka qarshi qanday kurashish borasida aniq tavsiyalar mavjud.<sup>12</sup>

**Hisobot va tahlillarda gender yondoshuvlarini hisobga olish:**

Noroziliklarni yorituvchi jurnalistlar xavfsizligi to'g'risidagi hisobotda YUNESKO gender omillari va rang-baranglik omillarini hisobga olgan holda sektorlararo tahlilni amalga oshirdi. Hisobotda polisiya xodimlarini tayyorlash va jurnalistlarning o'zlari amalga oshirishlari mumkin bo'lgan xavfsizlik choralari bo'yicha ilg'or tajribalardan namunalar, shuningdek norozilik namoyishlarini yoritishda jurnalistlar xavfsizligini oshirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.<sup>13</sup>

**Batafsil hisobotlarni e'lon qilish:** Inson huquqlari bo'yicha Amerikalalararo komissiya(IHAK)ning so'z erkinligi masalalari Maxsus ma'ruzachisi ayol jurnalistlar va so'z erkinligi haqida keng qamrovli hisobotini e'lon qildi, unda internetda va undan tashqarida ayol jurnalistlar xavfsizligini oshirish bo'yicha ko'plab tavsiyalar keltirib o'tilgan.<sup>14</sup>

**Standartlarni belgilovchi rahbariy yo'riqnomasi:** EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilining [Jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomasi](#)da davlatlarga jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha umumiy tavsiyalar berilgan.<sup>15</sup> Kelgusida mazkur Yo'riqnomaga mazkur masalaga oid batafsil tavsiyalarni kiritish zarur.

**Huquqiy tahlilni amalga oshirish:** EXHTning demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (DIHIB) doimiy ravishda EXHT mintaqasida turli masalalar, jumladan ayollarga nisbatan zo'rvonlik holatlarining huquqiy tahlilini amalga oshiradi; so'z erkinligi masalalari bo'yicha xalqaro va hududiy ma'ruzachilar ham xuddi shunday faoliyat bilan shug'ullanadi.

**Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash masalasining boshqaruv bo'yicha**

**tashabbuslarga kiritish:** 2012 yilda DIHIB saylovlarni kuzatish bo'yicha missiya uchun OAV monitoringi bo'yicha yor'riqnomani e'lon qildi. Bu kabi nashrlar yoki ularning yangi tahrirlariga ma'lumotlarni qanday qilib j'insga qarab dezagregasiya qilish, shuningdek Internetda jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklar haqidagi axborotni hamda ularning erkin saylovlarga ta'sirini tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar kiritilishi mumkin.<sup>16</sup>

**BRMda gender yondoshuvlarini hisobga olish:**

2016 yilda «BMT-xotin-qizlar» tuzilmasi tomonidan e'lon qilingan [«2030 yilgacha bo'lgan davrda gender xususiyatlarini hisobga olgan holda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibini amalga oshirish»](#) nomli hujjat gender xususiyatlarini hisobga olgan holda xalqaro standartlarni amalga oshirishni kuchaytirish bo'yicha yanada keng ko'lamli tashabbusga yaxshi misol bo'la oladi.<sup>17</sup>

**Himoyaning mavjud mexanizmlarining tahlili:**

BMTning inson huquqlari bo'yicha Komissari boshqarmasi Meksikada mavjud bo'lgan himoya mexanizmlarining chuqurlashtirilgan tahlilini amalga oshirdi hamda ushbu mexanizmlarni gender xususiyatlarini e'tiborga olib samarali amalga oshirish bo'yicha 100 dan ortiq tavsiyalarni taqdim etgan.<sup>18</sup>

**Jurnalistlarga qarshi jinoyatlarning tekshirilishini kuzatib borish:**

Ekvador va Kolumbiya hukumatlari hamda Inson huquqlari bo'yicha Amerikalalararo komissiya(IHAK)ning so'z erkinligi masalalari Maxsus ma'ruzachisi tomonidan ushbu davlatlar chegarasida uch nafar jurnalistning o'ldirilishi holatini tekshirish uchun maxsus komissiya tuzilishi DATlarning jurnalistlarga qarshi jinoyatlarni tekshirishda ishtirok etishlari mumkinligiga yor'qin misol bo'la oladi.<sup>19</sup>

› **Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tashabbuslar uchun axborot manbasi sifatida xizmat qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar va tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga ko'maklashish**

Ko'pgina davlatlarda turli tashkilotlar jurnalistlar xavfsizligi haqidagi ma'lumotlarni to'plash uchun turlicha uslublardan foydalanishadi, ammo ushbu ma'lumotlar har doim ham gender farqlarini aks ettirmaydi. DATlar ma'lumotlarni to'plash va tadqiq qilishda nisbatan qat'iyroq gender tahlilini o'z ichiga olgan yondoshuvdan foydalanilishiga turtki bergan holda, ham ma'lumotlarni to'plash jarayoninin standartlashtirishda, ham ularning rang-barangligini ta'minlashda muhim rol o'ynashlari mumkin. Bu esa barqaror rivojlanish (BRM) sohasida maqsadlarga, jumladan 5-BRM «Gender tengligini ta'minlash» va 16-BRM «Tinchlik, adolat va samarali instiutlar»ning bajarilishiga erishilishiga ko'maklashadi.

Global va hududiy tadqiqotlar, ayniqsa ilg'or tajribalar haqidagi ma'lumotlarni to'plashni o'z ichiga olganlari, Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashda hamda davlatlar va boshqa tegishli tomonlarga batafsilroq tavsiyalar berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlarni akademik muassasalar hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlikda o'tkazgan maqsadga muvofiq hamda ularning hisobotlarini keng tarqatish va Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklar muammosini hal qilish variantlarini muhokama qilish talab etiladigan vaziyatlarda qo'llash maqsadga muvoiqdir. Bu xabardorlikni oshirish bo'yicha ishlarni olib borishga yordam beradi, u esa o'z navbatida, milliy darajada ayol jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlashda muhim tomonlarni safarbar qilishning yaxshi usuli bo'lishi

mumkin. Muddatlar tig'izligi va budget cheklanganligi holatida DATlar faoliyati asosiy maqsadli auditoriya sifatida qarorlar qabul qiluvchi shaxslarga qaratilishi kerak.

## Misollar

### Ishonchli va doimiy tadqiqotlarning zarurligi haqidagi xabardorlikni

**oshirish:** EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili [ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligi \(SOFJO\)](#)ga bag'ishlangan tashabbus bilan chiqdi, u «Zulmat» nomli to'liq hajmli hujjatli film yaratishni ham nazarda tutgan edi.<sup>20</sup> Film butun dunyo bo'ylab ko'plab tadbirlarda va universitetlarda namoyish etildi. 2019 yilda #SOFJO tashabbusi doirasida EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili [OAVda so'z erkinligi va plyuralizmi himoya qilish uchun imkoniyatlarni kengaytirish to'g'risidagi masala yuzasidan konferensiya o'tkazdi.](#)<sup>21</sup>

### Ma'lumotlar va tadqiqotlar asosida bilimlar monitoringni va

**tarqatilishi:** [YUNESKO Bosh direktorining jurnalistlar xavfsizligi va jazosizlik xavfi to'g'risida hisoboti](#)<sup>22</sup> va [So'z erkinligi va OAVning rivojlanishi sohasida jahonda kechayotgan jarayonlar haqida ma'ruza](#) jurnalistlarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini qayd etgan hamda qotillik va jazosizlik holatlarini tekshirish natijalariga asoslangan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.<sup>23</sup>

### Natijalar va ilg'or tajriba almashinuvi, shuningdek munosabat

**bildirishning extimoliy choralari bo'yicha tavsiyalari:** 2017 yilda YUNESKONing kommunikasiyani rivojlantirish bo'yicha Xalqaro dasturi (KRXD) turli sub'ektlar tomonidan jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashning ilg'or uslublari jamlangan to'plamni chop etdi, ushbu hujjat mazkur sohadagi kelgusi tashabbuslar uchun axborot manbai bo'lib xizmat qilishi



mumkin. [«Bir kishiga hujum –bu hammaga hujum»](#) nomli nashr o'z ichiga NNT vakillari hamda OAV mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqilgan Internetda va undan tashqarida ayol jurnalistlarga nisbatan tahdidlarga munosabat bildirish choralariga misollarni olgan.<sup>24</sup> KRXD, shuningdek gender xususiyatlarini hisobga oluvchi yondoshuvni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan [Jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashda o'zining roli to'g'risida tahliliy hisobot: «Olg'a yo'l»](#)ni e'lon qildi.<sup>25</sup>

**Manfaatdor tomonlarni so'nggi yangiliklardan xabardor qilish:** YUNESKO har ikki oyda BMTning jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash va jazosizlik muammosi bo'yicha harakatlar Rejasining bajarilishi to'g'risidagi axborot byulletenini chop etadi, unda jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlar, milliy siyosat, tadqiqotlar, fuqarolik jamiyatining tashabbuslari va boshqa tegishli ma'lumotlar haqidagi yangilangan axborot o'z aksini topadi.<sup>26</sup>

### › **Manfaatdor tomonlar o'rtasida, ular faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida, hamkorlik va muvofiqlashtirishga birlamchi e'tibor qaratish**

DATlarning dala missiyalari aksariyat hollarda media sektorining ichki faoliyati haqida etarlicha ma'lumotga hamda ayol jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan yondoshuvlarga ega bo'lmaydi. Jurnalistlar xavfsizligini haqiqatda va samarali oshirish uchun gender muammosi bo'yicha, OAV va jurnalistika bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlar yo'nalishida qo'shimcha ekspert bilimlariga ehtiyoj seziladi.

Davlatlararo tashkilotlarning foydali missiyalari va mamlakatga oid guruhlarini xalqaro standartlarni milliy darajada samarali joriy etish uchun yaxshi jihozlangan hamda maxsus bilimlarga ega bo'lishi zarur. Masalan, DAT xodimlari jurnalistlar xavfsizligi va gender tengligi masalalari bo'yicha tayyorgarlikdan o'tishlari mumkin.

Jurnalistlar xavfsizligi masalasi BMTning turli organlari va hududiy tashkilotlar diqqat markazida turadi. Xalqaro miqyosda, hamda mamlakat darajasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish va axborot almashinuvini kuchaytirish mazkur tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshiradi.

Davlatlararo tashkilotlar, shuningdek davlat tomonidan boshqariladigan jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vazifani o'z ichiga olgan xalqaro va mintaqaviy tashabbuslar bilan hamkorlik uchun imkoniyat yaratishlari kerak.

### Misollar

**Hamsablar bilan hamkorlikdagi faoliyat:** 1999 yildan EXHT, BMT, Amerika davlatlari tashkiloti, inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika komissiyasi kabi tashkilotlarning so'z erkinligi va OAV erkinligi masalalari bo'yicha maxsus vakillari har yili so'z erkinligi huquqi bilan bog'liq bo'lgan aniq umammolar echimi yuzasidan tavsiyalar joy olgan qo'shma deklarasiyani e'lon qilishadi.<sup>27</sup>

**Zaruratga qarab, DATlar o'rtasida ittifoqlar tuzish:** EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili va Evropa Kengashining inson huquqlari bo'yicha Komissari qo'shma bayonot bilan chiqishgan bo'lib, unda, jumladan, Internetdagi gender zo'rvonligiga qarshi kurash masalasi ham o'z aksini topgan.<sup>28</sup>

**Boshqa DATlar bilan hamkorlikni muntazam ravishda muvofiqlashtirib borish:** YUNESKO BMTning jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash va jazosizlik muammosi bo'yicha harakatlar Rejasining BMT tarkibidagi 14 ta idora va organlar tomonidan bajarilishini muvofiqlashtirib turuvchi jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha BMT koordinatorlari tarmog'iga rahbarlik qiladi. Ishtirokchi idoralar orasida «BMT- xotin-qizlar» tuzilmasi ham bo'lib, u mazkur muammoga yondoshuvni gender xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlashi mumkin.<sup>29</sup>

## Havolalar

- 1 UN General Assembly, Resolution 74/157, "The safety of journalists and the issue of impunity", 18 December 2019, <https://undocs.org/A/RES/74/157>.
- 2 OSCE, Permanent Council Decision No. 193, "Mandate of the OSCE Representative on Freedom of the Media", PC.DEC/193, 5 November 1997, <https://www.osce.org/pc/40131>.
- 3 OSCE, Ministerial Council Decision No. 14/04, "2004 OSCE Action Plan for the Promotion of Gender Equality", 7 December 2004, <https://www.osce.org/files/f/documents/7/d/23295.pdf>.
- 4 OSCE RfOM project on the Safety of Female Journalists Online (#SOFJO), launched in 2015, <https://www.osce.org/fom/sofjo>.
- 5 OSCE, Ministerial Council Decision No. 3/18, "Safety of Journalists", 7 December 2018, <https://www.osce.org/files/f/documents/a/c/462187.pdf>.
- 6 OSCE RfOM, Publications, collected: [https://www.osce.org/resources/publications?filters=+im\\_taxonomy\\_vid\\_1:\(19\)+im\\_taxonomy\\_vid\\_3:\(122\)](https://www.osce.org/resources/publications?filters=+im_taxonomy_vid_1:(19)+im_taxonomy_vid_3:(122)). OSCE RfOM's statements and regular reports to the Permanent Council, collected: <https://www.osce.org/fom/66084>.
- 7 UN Economic and Social Council, Resolution 2019/2, "Mainstreaming a gender perspective into all policies and programmes in the United Nations system", 6 June 2019, <https://undocs.org/en/E/RES/2019/2>.
- 8 ARTICLE 19, "Ending Impunity: Acting on UN Standards on the Safety of Journalists", 2019, <https://www.article19.org/wp-content/uploads/2019/11/SOJ-Web.pdf>.
- 9 IFEX, "Collection of 5-minute explainers to help civil society engage in global spaces for free expression advocacy", <https://ifex.org/resources/5-minute-explainers/>.
- 10 UN Special Rapporteur on Freedom of Opinion and Expression, OSCE Representative on Freedom of the Media, Organization of American States (OAS) Special Rapporteur on Freedom of Expression and African Commission on Human and Peoples' Rights (ACHPR) Special Rapporteur on Freedom of Expression and Access to Information, "Joint Declaration on Freedom of Expression and Elections in the Digital Age", 30 April 2020, [https://www.osce.org/files/f/documents/9/8/451150\\_0.pdf](https://www.osce.org/files/f/documents/9/8/451150_0.pdf).
- 11 4 havolada berilgan hujjatga qarang.
- 12 UN Human Rights Council, Report by the Special Rapporteur on violence against women, its causes and consequences, "Combating violence against women journalists", A/HRC/44/52, 2020, <https://undocs.org/en/A/HRC/44/52>.
- 13 UNESCO, "Safety of Journalists Covering Protests: Preserving Freedom of the Press During Times of Turmoil", CI-2020/WTR/3, September 2020, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pt0000374206>.
- 14 Edison Lanza, "Violence against journalists and media workers: Inter-American standards and national practices on prevention, protection and prosecution of perpetrators", Inter-American Commission on Human Rights, OEA/Ser.L/V/II. CIDH/RELE/INF. 12/13, 31 December, 2013, [http://www.oas.org/en/iachr/expression/docs/reports/2014\\_04\\_22\\_violence\\_web.pdf](http://www.oas.org/en/iachr/expression/docs/reports/2014_04_22_violence_web.pdf).
- 15 William Horsley, "OSCE Safety of Journalists Guidebook", OSCE RfOM, 2014, <https://www.osce.org/fom/118052?download=true>.
- 16 OSCE ODIHR, "Handbook On Media Monitoring for Election Observation Missions", 2012, <https://www.osce.org/odhr/elections/92057>.
- 17 UN Women, "Driving the Gender Responsive Implementation of the 2030 Agenda for Sustainable Development", 2016, <https://www.unwomen.org/-/media/headquarters/attachments/sections/library/publications/2016/driving-gender-responsive-implementation-2030agenda.pdf?la=en&vs=5353>.
- 18 "Diagnóstico sobre el funcionamiento del Mecanismo de Protección para Personas Defensoras de Derechos Humanos y Periodistas", UN Office of the High Commissioner for Human Rights - Mexico, [https://www.hchr.org.mx/index.php?option=com\\_k2&view=item&id=1318:diagnostico-sobre-el-fun](https://www.hchr.org.mx/index.php?option=com_k2&view=item&id=1318:diagnostico-sobre-el-fun)

[cionamiento-del-mecanismo-de-proteccion-para-personas-defenso-ras-de-derechos-humanos-y-periodistas&Itemid=280.](#)

**19** Organization of American States, Inter-American Commission on Human Rights, Special Follow-up on the Investigations Regarding the Team of Journalists from El Comercio News- paper, November 2018, [https://www.oas.org/en/iachr/media\\_center/PReleases/2018/235.asp](https://www.oas.org/en/iachr/media_center/PReleases/2018/235.asp). IACHR, "Informe Final Del Equipo De Seguimiento Especial (Ese) Designado Por La Comisión Interamericana De Derechos Humanos Seguimiento Del Componente Investigar Los Hechos Que Resultaron En El Secuestro Y Asesinato De: Javier Ortega, Paúl Rivas Y Efraín Segarra (Integrantes Del Equipo Periodístico Del Diario "El Comercio")", IACHR, 2019, [http://www.oas.org/es/cidh/expresion/informes/Informe\\_Final\\_ESE\\_MC\\_Dicc2019.pdf](http://www.oas.org/es/cidh/expresion/informes/Informe_Final_ESE_MC_Dicc2019.pdf).

**20** OSCE RfOM, 'A Dark Place: A SOFJO Documentary' Trailer, 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/410423>.

**21** OSCE RfOM, #SOFJO Conference 2019: Increasing Opportunities for Freedom of Expression and Media Pluralism, 12 February 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/sofjo-conference2019>

**22** UNESCO, "Director-General's Report on the Safety of Journalists and the Danger of Impunity", UNESCO, 2018, <https://en.unesco.org/themes/safety-journalists/dgreport>.

**23** UNESCO, "World Trends in Freedom of Expression and Media Development", <https://en.unesco.org/world-media-trends>.

**24** Larry Kilman, "An Attack on one is an attack on all: successful initiatives to protect journalists and combat impunity", UNESCO, 2017, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000250430>.

**25** Silvia Chocarro, "IPDC's Role in the Promotion of the Safety of Journalists: A Way Forward", UNESCO, 2016, [http://www.unesco.org/new/fileadmin/MULTIMEDIA/HQ/CI/CI/pdf/Analytical\\_Paper\\_IPDC\\_Safety\\_of\\_Journalists\\_SChocarro\\_DE.pdf](http://www.unesco.org/new/fileadmin/MULTIMEDIA/HQ/CI/CI/pdf/Analytical_Paper_IPDC_Safety_of_Journalists_SChocarro_DE.pdf).

**26** "Newsletter - UN Plan of Action on the Safety of Journalists and the Issue of Impunity", UNESCO, <https://en.unesco.org/un-plan-action-safety-journalists/newsletter>.


**27** Joint Declarations by the United Nations Special Rapporteur on Freedom of Opinion and Expression, the Organization for Security and Co-operation in Europe Representative on Freedom of the Media, and the Organization of American States (OAS) Special Rapporteur on Freedom of Expression, <https://www.osce.org/fom/66176>.

**28** "OSCE Media Freedom Representative and Council of Europe Commissioner for Human Rights urge systematic approach to counter gender-based violence online", OSCE news item, 12 February 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/411206>.

**29** "Newsletter - UN Plan of Action on the Safety of Journalists and the Issue of Impunity", <https://en.unesco.org/un-plan-action-safety-journalists/newsletter>.

"OSCE Media Freedom Representative and Council of Europe Commissioner for Human Rights urge systematic approach to counter gender-based violence online", OSCE news item, 12 February 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/411206>. "Secretary General Calls to End Impunity for Crimes against Journalists, in Message for International Day", UN news item, 2 November 2017, <https://www.un.org/press/en/2017/sgsm18776.doc.htm>.





**Internet- vositachilar**

---

## Tavsiya qilinadigan choralar

---

1. Soʻz erkinligi, shaxsiy hayot dahlsizligi, siyosat va amaliyotda diskriminasiyadan himoya va ishtirok sohasidagi xalqaro standartlarga amal qilinishini taʼminlash;
2. Foydalanuvchilarga moʻljallangan kontentni modernizasiya qilish siyosatining aniqligi, shaffofligi va ochiqligini, shuningdek foydalanuvchilarning kontentni modernizasiyasi nima ekanligi, Internetdagi tegajogʻlik, taʼqib va suiisteʼmolchiliklarni jiddiy taʼqib qilish hamda ular haqida xabar berish mexanizmlari haqidagi xabardorligini taʼminlash;
3. Har qanday faoliyatni amalga oshirishda foydalanuvchilarga moʻljallangan va diskriminasiyadan holi yondoshuvlardan foydalanish;
4. Kontentni oʻchirib tashlash va foydalanuvchilarning maʼlumotlarni olish toʻgʻrisidagi soʻrovlariga ishlov berishda shaffoflik va izchillikni taʼminlash;
5. Jurnalistikada ayollar rolini oshirishga koʻmaklashish.



## **6. Internet-vositachilar**

### **Ayol jurnalistlar huquqlarini hurmat qilish va Internetda xavfsizlikni ta'minlash**

Barcha tashkilotlar inson huquqlariga rioya etilishi uchun mas'ul hisoblanishadi.<sup>1</sup> Internet-vositachilar – texnik va tarmoq xizmatlaridan tortib, onlayon muloqotni osonlashtiradigan ijtimoiy tarmoqlar platformalarigacha bo'lgan internet xizmatlarini ko'rsatuvchi turli toifadagi tashkilotlarni o'z ichiga olgan toifa uchun – bu, boshqalaridan tashqari, ayol jurnalistlarning Internetda to'laqonli bo'lish va o'zlarining so'z rkinligi huquqlarini kamsitilmagan holda namoyon etish, shaxsiy hayotlari hurmat qilinishi bo'yicha imkoniyatlari cheklanishiga yo'l qo'ymaslikni ham anglatadi.

Mazkur qo'llanma maqsadlari uchun ushbu bo'limda platformalarida jurnalistlar ta'qib va suiiste'molchiliklarga duch kelishlari extimoli yuqoriroq bo'lgan vositachilarning ayrim toifalari, jumladan Twitter, Facebook, Instagram, Google, YouTube ko'rib chiqiladi. Mazkur bo'limda internet vositachilar mos kelishlari kerak bo'lgan standartlar va umuminsonli huquqlarini himoya qilish, hamda ayol jurnalistlarning Internetdagi ishtirokini kengaytirishga yordam maqsadida ular ko'rishlari zarur bo'lgan choralarga to'xtalib o'tiladi.

**EXHT vazirlar Kengashining № 3/18-sonli Qarori** da EXHT ishtirokchisi bo'lgan 57 davlat «jurnalistika va texnologiyalar taraqqiy etib bormoqda, bu esa jamoatchilik munozaralariga o'z hissasini qo'shmoqda, shu bilan birga, jurnalistlar xavfsizligiga tahdid soladigan xatarlar diapazonini kengaytirishi ham mumkin», deb tan olishdi. Bundan tashqari, ishtirokchi davlatlar «raqamli texnologiyalar davrida jurnalistlar xavfsizligiga alohida xatarlari, shu jumladan jurnalistlarning xakerlik hujumlari, noqonuniy yoki erkin kuzatuv yohud xabarlarini ushlab qolish ob'ekti bo'lish extimoli mavjud, bu esa ularning so'z erkinligi huquqlarini va shaxsiy hayotlariga erkin yoki noqonuniy aralashuvdan himoyalanganlik huquqini poymol qilishi»ni qayd etishdi.

- › **So'z erkinligi, shaxsiy hayot dahlsizligi, siyosat va amaliyotda diskriminasiyadan himoya va ishtirok sohasidagi xalqaro standartlarga amal qilinishini ta'minlash**

Internet-vositachilar, jumladan ijtimoiy tarmoq platformalari va ular bilan bog'liq xizmatlarni taqdim etuvchilar xalqaro huquqda inson huquqlari borasida bayon eitilgan tamoyillarga amal qilishlari kerak, unga ko'ra, real hayotda kafolatlanadigan inson huquqlari, shuningdek Internetda ham himoya qilinishi zarur. Internet-vositachilar, shuningdek xotin-qizlarning internet xizmatlardan yoki internet platformalardan foydalanish borasidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga hamda bu jarayonda ularga nisbatan kamsitishlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ham amalga oshirishlari kerak.<sup>2</sup>

Internet vositachilarda mavjud bo'lgan xizmat ko'rsatish siyosati va shartlari kamida etarlicha aniq, tushunarli, sodda bo'lishi, shuningdek BMT inson

huquqlari nuqtai nazaridan tadbirkorlik faoliyatining rahbariy tamoyillarida.<sup>3</sup> Политика и условия обслуживания, а также принципы сообщества и bayon etilgan inson huquqi sohasidagi xalqaro standartlarga mos kelishi zarur. Har qanday internet-vositachilarning so'z erkinligi huquqi va shaxsiy hayotning himoyalanganlik huquqiga ta'sir ko'rsatadigan xizmat ko'rsatish siyosati va shartlari, shuningdek hamjamiyat tamoyillari va standartlari, jumladan zarurat va mutanosiblik tamoyillariga mos kelishi kerak. Internet-vositachilar ayol jurnalistlar ko'pincha Internetda o'z shaxsini oshkor qilmay bayonot berishni ma'qul ko'riglarini tushunib etishlari zarur; shu bois, kompaniyalar haqiqiy ismi sharifini ko'rsatishni yoki identifikasiyani talab qilmasliklari va foydalanuvchilarga maxfiylikni to'liq kafolatlashlari kerak.

Amaliyotda internet-vositachilar o'z xizmatlari, mahsulotlari, siyosati va amaliyotlarining xalqaro huquq bilan himoyalangan turli huquqlarga – so'z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, kamsitishdan himoyalanih huquqlariga ta'sirini baholab yoki audit qilib borishlari, shuningdek ayol jurnalistlarning Internetdagi ishtirokini ta'minlashlari zarur. Bunday baholashlar kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan va kontentni bloklash, bostirish, o'chirib tashlash yoki maqomini pasaytirishga yo'naltirilgan vositalarning foydalilik va samaradorlik darajasini, u yoki bu shakldagi ta'qib va suiiste'molchiliklar holatlarini aks ettiruvchi tahlilni, shuningdek qoidabuzarliklar va apellyasiya haqida xabar berishning shaxsiy mexanizmlarining bahosini o'z ichiga olishi kerak.

Ta'sirni baholashda, shuningdek kontentning, ayniqsa gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchiliklarni nazarda tutishi mumkin bo'lgan kontentning maqomini aks ettirish, ilgari surish yoki pasaytirish uchun ishlatiladigan algoritmlar ishining oqibatlarini ham inobatga olish zarur.

Kontentni monitoring qilib borish va foydalanuvchilarning o'zaro hamkorligi borasidagi umumiy majburiyatlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqqa zid keladi.<sup>4</sup> Ular foydalanuvchilarning maxfiyligiga tahdid solishi va cheklov choralari qo'llanilishiga sabab bo'lishi mumkin, chunki vositachilar majburiyat va javobgarlikdan qochish uchun ehtiyotkorlik qilishadi. Internet-vositachilar kuzatuv kontetining o'chirilishi yoki kuzatib borilishi amaliyotiga olib kelishi mumkin bo'lgan choralarni qabul qilmasliklari zarur. Vositachilar tomonidan o'z tashabbusi bilan yoki ma'lum bir kontentni o'chirib tashlash bo'yicha majburiyatlarini bajarish maqsadida joriy qilgan avtomatik moderasiya vositalari birlamchi senzura shakli bo'lib xizmat qilishi mumkin. "Haqoratli" kontentlar yuklanishi imkoniyatini cheklash uchun filtrlarni o'rnatishni talab qilish tavsiya etilmaydi.<sup>5</sup>

Internet-vositachilar har qanday moderasiya amaliyoti, shuningdek kontentni o'chirish bo'yicha ko'rsatmali harakatlar, keraksiz va mutanosib bo'lmagan cheklovlarning oldini olish maqsadida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan inson huquqlariga nisbatan oqibatlarini keltirib chiqaradi. Vositachilar uchta tamoyil: qonuniylik, legitimlik, shuningdek zarurat va mutanosiblik tamoyillari yig'indisining mosligi bo'yicha test – "uch qismli test"ni qo'llashlari ("Inson huquqlari sohasidagi, ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligini belgilab beruvchi xalqaro standartlar" bo'limiga qarang) hamda kontentni moderasiya qilishning har qanday uslublarini qo'llashning zarur amaliyotiga rioya etilishini ta'minlashlari kerak.

## Manbalar

- BMT inson huquqlari nuqtai nazaridan tadbirkorlik faoliyatining rahbariy tamoyillari - bu dvlatlar va korxonalar uchun mo'ljallangan tamoyillar jamlanmasi bo'lib, ular inson huquqlari nuqtai nazaridan tadbirkorlik stanlartlarini oshirish va uslublarini takomillashtirishga mo'ljallangan.<sup>6</sup>
- EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilining «Diqqat markazida: Sun'iy intellekt va so'z erkinligi» nomli strategik hujjati sun'iy intellenkt (SI) so'z erkinligiga qanday ta'sir ko'rsatishini va uning qo'llanilishi so'z erkinligining qanday kafolatlarini talab qilishini to'laroq anglab etishga yordam beradi.<sup>7</sup> Mazkur hujjat va unda keltirilgan birlamchi tavsiyalarda asosiy e'tibor, jumladan Sldan kontentni moderasiya va nazorat qilishga, jumladan "adovat tili"ga qarshi kurash usullariga qaratilgan.
- «Artikl 19» tashkiloti «Ayol jurnalistlarga va asosiy ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklar» nomli tahliliy qaydlarni e'lon qildi, unda ijtimoiy tarmoqlar platformalariga ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligini ta'minlash va himoya qilish yuzasidan tavsiyalar berilgan.<sup>8</sup>

- › **Foydalanuvchilarga mo'ljallangan kontentni modernizatsiya qilish siyosatining aniqligi, shaffofligi va ochiqligini, shuningdek foydalanuvchilarning kontentni modernizatsiyasi nima ekanligi, Internetdagi tegajog'lik, ta'qib va suiiste'molchiliklarni jiddiy ta'qib qilish hamda ular haqida xabar berish mexanizmlari haqidagi xabardorligini ta'minlash**

Agar barcha foydalanuvchilar qaysi kontent u yoki bu turdagi ta'qib va suiichte'molchiliklarga mansubligi haqida foydali ma'lumotlarga ega, kontentning moderatsiyasi (jumladan, kontentni biror qoidaga bo'ysundirish, maqomini pasaytirish yoki o'chirib tashlash) uslublari haqida to'liq xabardor hamda himoya vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishsa, ayol jurnalistlarga nisbatan Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi kurashish oson kechadi.

Internet-vositachilar xizmatlarni taqdim etish mazmuni va shartlarining, hamjamiyat tamoyillari va boshqa maxsus strategiyalarning (masalan, reklama yoki savdo sohasidagi siyosatning) qo'llanilishi so'z erkinligi va maxfiylik borasidagi xalqaro standartlarga mos kelishini kafolatlashlari zarur. Bu esa xizmatlarni taqdim etish shartlari barcha foydalanuvchilar uchun birdek mutanosib, maqsadga muvofiq, aniq, tushunarli va sodda bo'lishi kerak.<sup>9</sup> Foydalanuvchilar o'zlarining u yoki bu kontentlari o'chirib tashlanishi, tahrirlanishi, maqomi pasaytirilishi yoki boshqa biror shaklda o'zgartirilishi mumkinligini taxmin qila olish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.<sup>10</sup> Shuningdek, ularga foydalanuvchilar ma'lumotlari to'planishi, ularning saqlanishi yoki uchinchi shaxslarga, shu jumladan huquq-tartibot organlariga berilishi qachon va qanday amalga oshirilishi tushunarli bo'lishi kerak.

Ijtimoiy tarmoqlar platformalari foydalanuvchilar qo'llaydigan xizmatlarni taqdim etish shartlari va boshqa materiallar bilan birga, o'z standartlari va hamjamiyat siyosatining qo'llanilishiga bag'ishlangan mavzuli tadqiqotlarga misollar yoki ularning natijalarini batafsil keltirib o'tishlari kerak. Internetdagi ta'qib va suiiste'molchilik holatlari aks etgan turli misollar, shu jumladan gender asosidagi ta'qiblar keltirilgan batafsil misollar mavjud qo'shimcha bo'limlar ham foydalanuvchilarga ushbu platformalarning siyosatini yaxshiroq tushunib olishlarida qo'l keladi. Siyosatni amalga oshirish yoki qo'llash tendensiyalarini aks ettiruvchi barcha ma'lumotlarni, shuningdek ma'lum bir qoidalarni talqin qilish va qo'llashdagi nozik jihatlarni aks ettiruvchi aniq holatlarga misollarni yohud keng qamrovli, batafsil taxminlarni bir joyga jamlash kerak.<sup>11</sup>

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar platformalarida mavjud qarorlar qabul qilish tartibining shaffofiğini ta'minlash zarur. Masalan, ular kontentni moderasiya qilish yoki o'chirib tashlash uchun qanday vositalardan foydalanishlari, hamda ularning vazifalari va ta'siri, shu jumladan, sun'iy intellekt algoritmlari va vositalaridan, "ishonchli xabar etkazuvchilar" (ingl. "trusted flagger") sxemalaridan yoki uslublar kombinasiyalaridan foydalanishlari aniq va tushunarli bo'lishi zarur.

Internet-vositachilar siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun qo'llashi mumkin bo'lgan yana bir qadam, ta'qib va suiiste'molchiliklar va ularning oqibatlarini haqidagi ma'lumotlarni muntazam va ochiq ravishda to'plash, tahlil qilish va ochiqlashdan iborat bo'lishi mumkin.<sup>12</sup> Mazkur ma'lumotlar va hisobotlar ma'lumotlar muhofazasi qoidalariga muvofiq qayta ishlanishi hamda o'zlari taqdim etgan ma'lumotlardan aynan shu maqsadda foydalanilishiga rozilik bergan foydalanuvchilarning ma'lumotlari asosiga qurilishi kerak.

## Misollar

**Siyosatni qo'llash to'g'risida ma'lumot:** Twitter e'lon qiladigan Shaffoflik to'g'risida hisobot kompaniya tomonidan xizmatlar taqdim etish bo'yicha ayrim shartlarga muvofiq foydalanuvchilarning qayd ma'lumotlariga nisbatan qo'llaniladigan harakatlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni aks ettiradi.<sup>13</sup> Shuningdek, Twitter har bir siyosatning bayonini, hamda u yoki bu siyosat qo'llanilgan har bir holatda amalga oshirilgan xabarnomalar va harakatlar sonini e'lon qiladi. Twitterning axborot markazi to'g'ridan to'g'ri tvitdan yoki profildan [kompaniya qoidalarining buzilishi haqida qanday xabar berish](#) to'g'risida yo'riqnomani taqdim etadi.<sup>14</sup>

**Xabar berishning qulay mexanizmi:** YouTube o'zining har bir Hamjamiyat tamoyillari buzilishi va suiiste'molchilik holatlari haqida xabar berish uchun qulay va oson vositani taqdim etadi.<sup>15</sup> Ammo ayrim holarda jabr ko'rgan foydalanuvchi qoida buzilishi holati haqida kompaniyani xabardor qilishdan oldin haqoratli qayd yozuvi egasini xabardor qilishning barcha boshqa usullaridan foydalanishi zarur bo'ladi.

**Kontentning o'chirilish haqidagi axborotning ochiqligi:** Facebook [Hamjamiyat standartlariga rioya etilishi to'g'risida hisobot](#)ni e'lon qiladi, unda kompaniya hamjamiyatning har bir tamoyili buzilishi, shu jumladan yalang'oya suratlar, qalbaki qayd yozuvlari va ta'qiblar haqida olingan xabarnomalar haqida raqamlarda aks etgan ma'lumotlarni taqdim etadi.<sup>16</sup> Ular, shuningdek kontentga nisbatan qo'llanilgan sanksiyalarning, shu jumladan, apellyasiyalar, hamda avtomatlashgan vositalar yordamida kontentni aniqlash va o'chirib tashlash holatlarining umumiy miqdorini ham ko'rsatadi. Ammo hisobotdan hisobdorlikni va shaffoflikni ta'minlashda foydalanish uchun uni takomillashtirish zarur bo'ladi, chunki u, masalan, ma'lumotlarni solishtirish imkonini bermaydi.



Shaffoflik haqidagi bunday hisobotlarni Twitter va Google ham e'lon qilishadi. Ijtimoiy tarmoqlarning barcha platformalari o'zlarining shaffoflikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishlari juda muhim.

**Xabarnoma berishning har bir mexanizmidan foydalanish natijalariga ko'ra kontentni o'chirib tashlash soni:**

YouTube Hamjamiyat tamoyillari qo'llanilishining shaffofiigi to'g'risida hisobotni e'lon qiladi va unda xabarnoma berishning turli sxemalaridan foydalangan holda: avtomatik belgi qo'yish, foydalanuvchilarning xabarlarini, "ishonchli xabar beruvchilar"dan, NNT va davlat organlaridan olingan xabarnomalar natijasida o'chirib tashlangan videolar sonini ko'rsatib o'tadi.<sup>17</sup> shuningdek, hisobotda hamjamiyatning har bir tamoyilini buzganlik uchun o'chirib tashlangan videoroliklar soni ham ko'rsatiladi.

## Manbalar

- BMTning so'z erkinligi va uni erkin bayon etish huquqini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha Maxsus ma'ruzachisining inson huquqlari bo'yicha Kengashga taqdim etgan ma'ruzasida xususiy sektorning kontent moderatsiyasi borasidagi majburiyatlari to'g'risida tavsiyalar mavjud.<sup>18</sup>
- [Evropa Kengashining ijtimoiy tarmoqlar xizmatlari borasidagi inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi tavsiyalari](#) kontentni moderatsiya qilish tamoyillarini joriy etadi.<sup>19</sup>
- Evropa Kengashi va EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakilining [Internet erkinligi masalasiga bag'ishlangan «Internet-vositachilarning roli va majburiyatlarni» nomli konferentsiya](#) yakunlari

bo'yicha tavsiyalari, jumladan, qonun ustuvorligiga asoslangan shaffof amaliyotlar asosida kontentni moderasiya qilishga taalluqlidir.<sup>20</sup>

- So'z erkinligi va uni ifoda etish bo'yicha BMT Maxsus ma'ruzachisi, EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili, Amerika davlatlari tashkilotining so'z erkinligi bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi va inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika komissiyasining Maxsus ma'ruzachisining so'z va axborotdan foydalanish erkinligi masalalari bo'yicha birgalikdagi deklarasiyalarida xususiy sektor va internet-vositachilar uchun inson huquqlariga yo'naltirilgan kontentni moderasiya qilish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Jumladan, [Keyingi o'n yillikda so'z erkinligi muammolari to'g'risida 2019 yilgi yigirmanchi birgalikdagi yubiley deklarasiyasi](#) shaxsiy kontentni moderasiya qilishning alohida shaxslarning so'z erkinligi huquqini buzuvchi qoidalarini joriy etishning oldini olish tamoyillarini kiritadi.<sup>21</sup>
- [Kontentni moderasiya qilishda shaffoflik va hisobdorlik to'g'risida Santa-Klara tamoyillari](#) - bu internet platformalar tomonidan kontent moderasiya qilinganda ta'minlanishi zarur bo'lgan shaffoflik va hisobdorlikning eng kam darajasi aks etgan bazaviy tamoyillar to'plamidir.<sup>22</sup>
- [Vositachilar javobgarligining Manila tamoyillari](#) vositachilarning javobgarligi borasida tavsiya etiladigan bazaviy kafolatlar va ilg'or tajribalarni o'z ichiga olgan.<sup>23</sup>

## › **Har qanday faoliyatni amalga oshirishda foydalanuvchilarga mo'ljallangan va diskriminasiyadan holi yondoshuvlardan foydalanish**

Internet-vositachilar Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar aloqador bo'lgan foydalanuvchilar guruhlarining xabardorlik jarayonini, ular bilan maslahatlashuvlar jarayonini, hamda ushbu holat va muammolar haqidagi ma'lumotlarning kontent moderatsiyasi vositalarida va himoya funksiyalarida aks etishi usullarini yanada yaxshilashlari zarur.

Foydalanuvchilar, ayniqsa, onlayn hujumlar nishoni bo'lishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilar, o'zlarining internet platformalarda bo'lishlari bilan bog'liq xatarlarni qanday qilib kamaytirish mumkinligi haqida bilishlari kerak. Shu bois, internet vositachilar foydalanuvchilarga Internetda xavfsizlikni ta'minlashning ilg'or uslublari, qoidabuzar kontent haqida xabar berishning texnik imkoniyatlari haqida ma'lumotlarni taqdim etishlari zarur. Shuningdek, ular xizmat ko'rsatish va qoidabuzarliklar haqida mahalliy tilda xabar berish uchun odiy, qulay va foydalanish oson bo'lgan shartlar va vositalar bo'lishini ta'minlashlari kerak.<sup>24</sup>

Internet-vositachilar suiiste'molchilik va ta'qiblarning daraja va shakllarini farqlashlari hamda kontentni o'chirib tashlash qanday amalga oshirilishini va bu hol inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqqa muvofiq himoyalangan tavsifarga ega foydalanuvchilarga qanday ta'sir ko'rsatishini bilishlari kerak. Vositachilar gender jihatlarini, xususan senzura va kamsitishning yaqqol xatarlari bilan to'qnash keluvchi hamjamiyatlarning yaxshi himoyalanganligi va marginalizatsiyasini hamda muammolarini faol aniqlab, samarali e'tiborga olishlari zarur.<sup>25</sup> Internet-vositachilari foydalanuvchilar uchun qulay va oson bo'lgan himoya echimlari va vositalarini yaratishlari kerak. Bunday

yondoshuv, shuningdek foydalanuvchilarning ma'lum bir maqsadli toifalari uchun internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning nisbatan sezilarli darajada nomutanosib oqibatlarining oldini olish va yumshatishda, shuningdek inson huquqlari himoyasining II tamoyillari asosida algoritmik va boshqa echimlarning mosligini baholashni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Internet-vositachilar ishtirokchilar tomonidan muhim va ahamiyatli deb hisoblanadigan jamoatchilik va fuqarolik jamiyati bilan maslahatlashgan holda, o'z vositalari va siyosatini ishlab chiqishlari va joriy etishlari hamda ana shu maslahatlashuvlar natijalaridan amaliyotda foydalanishlari zarur.<sup>26</sup> Ayol jurnalistlarni himoya qilish maqsadida vositachilar o'z vositalari va xizmatlaridan foydalanayotgan ayol jurnalistlar oldida paydo bo'ladigan kontekst, tajriba va to'siqlarni hisobga oluvchi uslub va amaliyotlarni qo'llashlari kerak. Maslahatlashuvlar shunday tashkil qilinishi kerakki, jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyati va akademik doiralar vakillari ularda faol ishtirok eta olishsin; ularda manfaatdor shaxslarning, ayniqsa vositachi o'z internet xizmatlarini kengroq taqdim etadigan mamlakat va hamjamiyatlardan manfaatdor shaxslar ishtirok etishlari kerak. Bunda maslahatlashuvlar ishtirokchilari ishor etmaslik to'g'risida bitim yoki tashabbuslar va dasturlarda ro'yxatdan o'tish uchun juda batafsil axborot taqdim etish kabi keraksiz talablarni ilgari surishlari maqsadga muvofiq emas.

## Manbalar

- Foydalanuvchi kontentini tartibga solish BMTning so'z erkinligi va uni erkin bayon etish huquqini rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha Maxsus ma'ruzachisining 2018 yil uchun taqdim etgan ma'ruzasining diqqat markazida bo'lib, unda davlatlar va kompaniyalar uchun foydali tavsiyalar mavjud.<sup>27</sup>

- Omidyar Network tarmog'i tomonidan ishlab chiqilgan [Ethical Explorer Pack](#) paketi ijtimoiy tarmoqlarda ish olib boradigan kompaniyalar hamda xizmatlar ishlab chiqaruvchilariga xatarlar, jumladan, rang-baranglik, inklyuzivlik, adolat va tenglikka tahdid soluvchi xatarlar yuzasidan munozaralarni boshlash va tahlilni amalga oshirishga yordam berishga mo'ljallangan. O'zini o'zi boshqarish va me'yori va axloq qoidalarini ishlab chiqishni istagan kompaniyalar o'zlarining faoliyatlarida xavfsizlik va gender tengligi nimani anglatishini aniqlashtirib olishlari zarur.<sup>28</sup> garchi asoslar va taklifarning ushbu paketi inson huquqlari bo'yicha aniq moddalarni batafsil bayon etib bermasada, unda texnologik kompaniyalarga inson huquqlariga asoslangan yondoshuvni qanday amalga oshirishlari borasida bir qancha tavsiyalar berib o'tilgan.

### › **Kontentni o'chirib tashlash va foydalanuvchilarning ma'lumotlarni olish to'g'risidagi so'rovlariga ishlov berishda shaffoflik va izchillikni ta'minlash**

Internet vositachilar va boshqa manfaatdor tomonlar xizmatlaridan foydalanuvchilarning so'z erkinligi va maxfiylik huquqini buzadigan har qanday jarayon yoki harakat imkon qadar ochiq va shaffof bo'lishi kerak.<sup>29</sup> Ijtimoiy tarmoqlarning etakchi platformalari kontentni tartibga solish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligi va zaruratini, xatto ular Internetda jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlarining oldini olish yoki ularga munosabat bildirish maqsadida amalga oshirilsa ham, tekshirib ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqishlari zarur.<sup>30</sup>

Internet vositachilar kontentni o'chirib tashlash va foydalanuvchilar ma'lumotlari haqidagi so'rovlar bilan bog'liq qarorlar qabul qilishda zarur jarayonlarga amal qilinishini ta'minlashlari hamda so'z erkinligi,

maxfiylik va kamsitilmaslik huquqi buzilishidan himoyalaniş vositalarini taqdim etishlari shart.<sup>31</sup> Amalda bu internet vositachilar o'zlarining u yoki bu qarorlari taalluqli bo'lgan barcha tomonlarni xabardor qiladigan tizimni yaratishlari, bunda qaror qabul qilinishiga asos bo'lgan siyosatni, baholash yuzasidan tushuntirish hamda qaror yuzasidan shikoyat kiritish uchun zarur mexanizmlarni qanday qilib faollashtirish to'g'risida batafsil ma'lumot berishlari zarur.<sup>32</sup>

Internet-vositachilar kontentning o'chirilishi va foydalanuvchilar ma'lumotlari haqidagi so'rovlar bo'yicha axborotni e'lon qilib borishlari kerak. U kontentga nisbatan amalga oshirilgan harakatlar haqidagi axborotni, apellyasiyalar va ularning natijalari borasidagi hamda jamoatchilikni qarorlarning ham son, ham sifat jihatidan ketma ketligi haqida xabardor qiluvchi boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumot internet vositachilar tomonidan va avtomatlashgan tizimlardan foydalanib kontentni moderasiya qilish hamda ularning so'z erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va kamsitilishdan himoyalaniş huquqiga ta'siri ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashga imkon berishi kerak.

Internet vositachilarning o'zaro va davlat organlari bilan hamkorligi imkon qadar shaffof, bu haqdagi ma'lumotlar ochiq bo'lishi hamda organlar va vositachilar o'rtasidagi hamkorlikni baholash imkonini berishi kerak. Kontentni o'chirib tashlash yoki foydalanuvchilar ma'lumotlarini olish yuzasidan davlat organlarining so'rovlari soni va identifikatsiyasi haqidagi mavjud hisobotlarda ushbu sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlikni aniq baholash va har tomonlama o'rganib chiqish imkonini beradigan batafsil ma'lumotlar mavjud emas.

Shaffoflik to'g'risidagi hisobotda so'rov bergan organ haqida batafsil ma'lumot keltirish, so'rov uchun qonuniy asos borligi yoki yo'qligini

ko'rsatish, shuningdek kompaniya tomonidan har bir mamlakatdagi so'roq bo'yicha amalga oshirilgan harakatlar, jumladan inson huquqlarining buzilishi yoki so'rov berish mexanizmlarini suiiste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan ichki muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan harakatlar aks etishi kerak.

Internet-vositachilar, jumladan ijtimoiy tarmoq platformalari, mustaqil nazoratni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmalariga olishlari hamda internet vositachilarning faoliyati va hisobdorligi ustidan, xususan gender asosdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning oldini olishga qaratilgan harakatlar uchun jamoatchilik nazoratini yaxshilashga imkon beradigan ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha kengashlar singari ko'p tomonlama tartibga soluvchi organlarga qo'shilish imkoniyatini ko'rib chiqishlari kerak.<sup>33</sup>

## Misollar

**Axborot so'rovlari bo'yicha hisobdorlik:** Twitter hukumatlar va boshqa "vakolatli ma'ruzachilar"ning milliy qonunchilik asosidagi so'rovlari bo'yicha o'z qarorlari to'g'risida axborotni e'lon qiladi va bunda har bir mamlakat bo'yicha misollarni keltirib o'tadi. Ularning [axborot taqdim etish so'rovlari](#) to'g'risidagi hisoboti o'z ichiga ular davlat va nodavlat tashkilotlaridan oladigan yuridik so'rovlarning toifalar va mamlakatlar bo'yicha hajmini, jumladan mamlakatlar bo'yicha aniq profilni oladi.<sup>34</sup> Ammo hisobotlarda so'rovlar uchun qonuniy asoslar keltirilmaydi va hukumatlar qonun talablarini bajarishlari yoki bajarmasliklari holatlari ko'rsatib o'tilmaydi.

YouTube foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan tez-tez beriladigan savollarga javoblarni taqdim etadi.<sup>35</sup> Google hukumatlarning kontentni o'chirib tashlash haqidagi so'rovlari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni taqdim etadi.<sup>36</sup>

Har olti oyda Facebook davlatlarning foydalanuvchilar ma'lumotlarini taqdim etish to'g'risidagi so'rovlari to'g'risida hisobotni e'lon qiladi va unda har bir mamlakatdan tushgan so'rovlar soni ko'rsatiladi hamda bir nechta holat qisqacha bayon etib beriladi.<sup>37</sup>

Foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish so'ralgan so'rovlarga keladigan bo'lsak, Twitter, Google va Facebook o'z hisobotlariga mamlakatlar bo'yicha umumiy son ma'lumotlari hamda huquq-tartibot organlarining so'rovlariga ishlov berishda ular tomonidan qo'llaniladigan rahbariy tamoyillar aks etgan bo'limni kiritishadi.<sup>38</sup>

## › **Jurnalistikada ayollarning rolini oshirishga ko'maklashish**

Ayol jurnalistlar Internet vositachilar tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlardan foydalanib hamda platformalarda bo'lib turib, ta'qib va suiiste'molchiliklardan nomutanosib darajada ko'proq jabr ko'rishadi. Internet vositachilar Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning turli ko'rinishlariga qarshi kurashish uchun, jumladan, xabardorlikni oshirish dasturlarini amalga oshirib, ayol jurnalistlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlab hamda kontrrarrativlarni yaratish va tarqatishga ko'maklashib, oshkora va faol tashabbuslarni ilgari surishlari kerak.



Internet-vositachilar, ayol jurnalistlar hamda OAV va fuqarolik jamiyatining boshqa vakillarini kompaniyalar siyosatini ijtimoiy tarmoqlar platformalariga nisbatan qanday qo'llash va qoidabuzarliklar haqida xabar berish va apelyasiya uchun tarmoqlarning mexanizmlarini yaxshilashga o'qitishni qo'llab quvvatlash yoki tashkil qilish orqali o'zlari taqdim etayotgan xizmatlardan ayol jurnalistlar nisbatan xavfsizroq foydalanishlariga ko'maklashishlari mumkin.

Internet vositachilarning jurnalistlar uchun internet xizmatlarni ilgari surish yoki jurnalistik faoliyatini kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarini ushbu xizmatlar gender xususiyatlarini hisobga olishi va inson huquqlariga mos kelishi euqtai nazardan qayta ko'rib chiqilishi kerak. Bu, masalan, jurnalistik faoliyat uchun foydali bo'lgan xizmatlarning mas'ul rahbarlari ayol jurnalistlar bilan faol maslahatlashuvlar olib borishlari hamda ularga ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida murojaat qilishlari, shuningdek ayollarning xavfsizligini oshirish uchun imkoniyatlarni nazarda tutishlari kerakligini bildiradi.

## Misollar

**Повышение наглядности опыта женщин-журналистов:** Twitterda yo'lga qo'yilgan [#HerStory](#) kampaniyasi internet vositachi jamoatchilikni ayol jurnalistlar duch kelayotgan ayrim muammolardan xabardor qilish uchun qanday materiallar tayyorlashi mumkinligiga yaxshi misol bo'la oladi.<sup>39</sup> 2019 yil uchinchi may kuni Twitter Butunjahon matbuot erkinligi kuni munosabati bilan butun jahondagi ayol jurnalistlarning faoliyati va shaxsiy kechinmalarini yoritish vositasi sifatida video lavhalarning har oylik seriyasini yo'lga qo'ydi.<sup>40</sup>

**Siyosatni amalga oshirish ko'nikmalariga va jurnalistika**

**ko'nikmalariga o'rgatish:** Twitter ayol jurnalistlarni o'z vositalaridan foydalanishga, kompaniya siyosatini qo'llashga va jurnalistika ko'nikmalariga o'rgatish maqsadida hududiy tashabbuslar bilan hamkorlik qilib keladi. U, shuningdek Twitterdagi muhokamalar jarayonida xotin-qizlarning manfaat va muammolarini aks ettiradigan kampaniyalar o'tkazilishini ma'qullaydi va qo'llab-quvvatlaydi.<sup>41</sup>

**Shaxsning roziligisiz uning intim holatdagi suratlarining tarqatilishi**

**haqila xabar berish uchun manbalarni taqdim etish:** Facebookning [«Mening roziligim bilan»](#) tashabbusi intim suratlarining ruxsatsiz tarqatilishi va ularga munosabat bildirilishining oldini olish uchun turli manbalarni taqdim etadi.<sup>42</sup> Garcha ushbu tashabbus aynan ayol jurnalistlar uchun mo'ljallangan bo'lmasada, u o'z ichiga fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan tajriba loyihasini ham olgan bo'lib, uning maqsadi – shaxsning roziligisiz uning intim suratlarining tarqatilishiga barham berish yoki uni bunday holatlardan xabardor qilishdan iborat.

**Muvofiqlashtirilgan hujumlardan texnik himoya:**

Googlening [«Qolqon» loyihasi](#) yangiliklar tashkilotlari, jurnalistlar va huquq himoyachilarini o'zlarining veb-saytlariga, OAV saytlariga kirishni bloklovchi muvofiqlashtiruvchi hujumlar – «xizmat ko'rsatishni rad etish» nomli taqsimlangan hujumlar (DdoS-hujumlar)dan himoya qilishni ta'minlaydi. Himoya Google infratuzilmasi va vositalari yordamida «zararli» deb topilgan trafikni filtrllovchi choralarni o'z ichiga oladi. Veb-saytlarga hujum uyushtirilganida, «Qalqon»ning vositalari veb-sayt faoliyatini davom ettirishi uchun «zararli» trafikni bloklaydi.<sup>43</sup>

## Havolalar

- 1** UN Human Rights Council, Resolution 17/4, "Human rights and transnational corporations and other business enterprises", 15 June 2011, <https://daccess-ods.un.org/TMP/4498748.77929688.html>. The Special Representative of the UN Secretary-General on the issue of human rights and transnational corporations and other business enterprises developed the "Guiding Principles on Business and Human Rights: Implementing the United Nations 'Protect, Respect and Remedy' Framework", annexed to the final report to the Human Rights Council (A/HRC/17/31, <https://undocs.org/en/A/HRC/17/31>), which also includes an introduction to the Guiding Principles and an overview of the process that led to their development.
- 2** UN General Assembly, Report of the Special Rapporteur on violence against women, its causes and consequences, "Online violence against women and girls from a human rights perspective", A/HRC/38/47, 18 June 2018, paragraph 89, <https://undocs.org/A/HRC/38/47>.
- 3** UN High Commissioner for Human Rights, Guiding Principles on Business and Human Rights: Implementing the United Nations "Protect, Respect and Remedy" Framework, 2011, [https://www.ohchr.org/Documents/Publications/GuidingPrinciplesBusinessHR\\_EN.pdf](https://www.ohchr.org/Documents/Publications/GuidingPrinciplesBusinessHR_EN.pdf).
- 4** UN General Assembly, Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression, A/HRC/38/35, 6 April 2018, paragraph 67, <https://undocs.org/A/HRC/38/35>. European Union, Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council of 8 June 2000 on certain legal aspects of information society services, in particular electronic commerce, in the Internal Market (Directive on electronic commerce), Article 15, <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/ALL/?uri=CELEX%3A32000L0031>.
- 5** UN General Assembly, Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression, A/74/486, paragraphs 34 and 35, 9 October 2019, <https://undocs.org/A/74/486>.
- 6** 3 ilovada keltirilgan hujjatga qarang.
- 7** OSCE RfOM, "Strategy Paper to Put a Spotlight on AI and Freedom of Expression" #SAIFE, July 2020, [https://www.osce.org/files/f/documents/9/f/456319\\_0.pdf](https://www.osce.org/files/f/documents/9/f/456319_0.pdf).
- 8** ARTICLE 19, Online harassment and abuse against women journalists and major social media platforms London: 2020, <https://www.article19.org/wp-content/uploads/2020/10/Gender-Paper-Brief-2.pdf>.
- 9** OSCE RfOM, "Recommendations following the Expert Meeting New Challenges to Freedom of Expression: Countering Online Abuse of Female Journalists", 17 September 2015, <https://www.osce.org/fom/193556?download=true>.
- 10** "Future Thinking: Harlem Désir on Freedom of Expression Online", Internet Society news item, January 2018, <https://www.internetsociety.org/blog/2018/01/future-thinking-harlem-desir/>.
- 11** UN General Assembly, "Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression", A/HRC/38/35, 6 April 2018, paragraph 46, <https://undocs.org/A/HRC/38/35>.
- 12** OSCE, RfOM, "Communiqué 1/2019, Freedom of the Media on Media Pluralism, Safety of Female Journalists and Safeguarding Marginalized Voices Online", 29 February 2019, <https://www.osce.org/representative-on-freedom-of-media/411917?download=true>.
- 13** "Twitter Rules enforcement", Twitter, <https://transparency.twitter.com/en/twitter-rules-enforcement.html>.
- 14** "Report violations", Twitter, <https://help.twitter.com/en/rules-and-policies/twitter-report-violation>.
- 15** "Report inappropriate content", YouTube, <https://support.google.com/youtube/answer/2802027?hl=en>.
- 16** "Community Standards Enforcement Report". Facebook, <https://transparency.facebook.com/community-standards-enforcement>.
- 17** "YouTube Community Guidelines enforcement", Google, <https://transparencyreport.google.com/>

[youtube-policy/removals?hl=en](#).

**18** UN General Assembly, "Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression", A/HRC/32/38, 11 May 2016, <https://undocs.org/A/HRC/32/38>.

**19** Council of Europe, Committee of Ministers, "Recommendations on the protection of human rights with regard to social networking services", CM/Rec(2012)4", 4 April 2020, <https://go.coe.int/1L7Uv>.

**20** Council of Europe and OSCE RfOM, "Key Conclusions and Recommendations of the Conference on Internet Freedom 'The Role and Responsibilities of Internet Intermediaries', 13 October 2017, <https://www.osce.org/files/f/documents/6/7/371846.pdf>.

**21** UN Special Rapporteur on Freedom of Opinion and Expression, the OSCE Representative on Freedom of the Media, the Organization of American States (OAS) Special Rapporteur on Freedom of Expression, and the African Commission on Human and Peoples' Rights (ACHPR) Special Rapporteur on Freedom of Expression and Access to Information, "Twentieth Anniversary Joint Declaration: Challenges to Freedom of Expression in the Next Decade", 10 July 2019, <https://www.osce.org/files/f/documents/9/c/425282.pdf>.

**22** Santa Clara Principles on Transparency and Accountability in Content Moderation, <https://santaclaraprinciples.org>.

**23** Manila principles on intermediary liability, <https://www.manilaprinciples.org/principles>.

**24** 2 ilova 117 paragrafda keltirilgan hujjatga qarang.

**25** 4 ilova 48 paragrafda keltirilgan hujjatga qarang.

**26** 2 ilova 70 paragrafda keltirilgan hujjatga qarang.

**27** O'sha yerda.

**28** Omidyar Network, 2020, "Ethical Explorer Pack", <https://ethicalexplorer.org/>. This is recommended by UNESCO in the publication "Steering AI and Advanced ICTs for Knowledge Societies: A Rights, Openness, Access, and Multi-stakeholder Perspective", 2019, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000368711/PDF/368711eng.pdf.multi>.

**29** 2 ilova keltirilgan hujjatga qarang.

**30** 6 ilova 50 paragrafda keltirilgan hujjatga qarang.

**31** 3 ilovada keltirilgan hujjatga qarang.

**32** 6 ilovada keltirilgan hujjatga qarang.

**33** ARTICLE 19, "Social Media Councils", <https://www.article19.org/social-media-councils/>.

**34** "Information Requests", Twitter, <https://transparency.twitter.com/en/information-requests.html>.

**35** "Requests for user Information FAQs", Google, <https://support.google.com/transparencyreport/answer/9713961>.

**36** "Government requests to remove content", Google, <https://transparencyreport.google.com/government-removals/overview>.

**37** "Government Requests for User Data", Facebook, <https://transparency.facebook.com/government-data-requests>.

**38** See Twitter's Guidelines for Law Enforcement; YouTube's FAQs on requests for users' information; Facebook's Law Enforcement Request system and a guide.


**39** Twitter News, "White House reporter for @NewsHour and co-moderator for this week's #DemDebate, @Yamiche discusses what it's like to be a female journalist of color.", Twitter, 18 December 2019, <https://twitter.com/TwitterNews/status/1207330560881942528>.

**40** Anabel Pasarow, "With #HerStory, Twitter Is Celebrating Women In Journalism", Refinery29, 2 May 2019, <https://www.refinery29.com/en-gb/2019/05/231662/twitter-her-story-women-journalists-original-series>.

**41** "Inclusion & Diversity Report March 2020", Twitter, [https://blog.twitter.com/en\\_us/topics/company/2020/Inclusion-and-Diversity-Report-March-2020.html](https://blog.twitter.com/en_us/topics/company/2020/Inclusion-and-Diversity-Report-March-2020.html).

**42** "Not Without My Consent", Facebook, <https://www.facebook.com/safety/notwithoutmyconsent/>.

**43** "Project Shield", Google Jigsaw, <https://projectshield.withgoogle.com/landing>.



OAV

---

## Tavsiya etiladigan chora -tadbirlar

---

1. Xavfsizlik va gender masalalari bo'yicha kompleks siyosatni amalga oshirish orqali yurish-turish madaniyatini oshirish;
2. Internetda ta'qib va suiiste'molchiliklarga uchrayotgan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va o'qitishni amalga oshirish;
3. Interaktiv onlayn platformalar uchun gender xususiyatlarini hisobga olgan holda hamjamiyat qoidalarini ishlab chiqish;
4. Ayol jurnalistlar, jumladan shtatsiz jurnalistlarga nisbatan Internetdagi ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini kuzatib borish va hujjatlashtirish.

## **7. OAV**

### **Jurnalistlarning himoyasi ish joyidan boshlanadi**

Ommaviy axborot vositalari - aniqrog'i, turli media kompaniyalar va tashkilotlar egalari, rahbarlari va muharrirlari - jurnalistlarning xavfsizligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin va shart. Ularning zimmasida o'z qo'l ostilarida ishlaydigan barcha xodimlar, shu jumladan shtatsiz xodimlarning ham yangiliklar bo'limida, ham boshqa joylarda xavfsizligi uchun qayg'urish vazifasi yotadi.

Ish beruvchi sifatida OAV egalari, bosh muharrirlari va rahbarlari ayol jurnalistlar jurnalistik faoliyatlari bilan bog'liq xatarlardan tashqari, ayol jinsiga mansubliklari bois, qo'shimcha xatarlarga ham duch kelishadi.<sup>1</sup> OAV ish joyidagi - odatda patriarxal an'anaga asoslangan - madaniyat hamkasblar tomonidan ehtimoliy xatarlarning oldini olishga mas'ullar.

OAV egalari, rahbarlari va muharrirlari diqqatni qoidabuzarliklarning oldini olish va barcha xodimlarni himoya qilish, bunda xotin-qizlarning extiyojlariga alohida e'tibor qaratish uchun mas'ul hisoblanishadi. Ular xavfsizlik himoyasiga kompleks yondoshuvni ta'minlash uchun rasmiy va norasmiy qo'llab-quvvatlovning bir-birini to'ldiruvchi har xil turlarini taklif etishlari zarur.

**EXHT vazirlar Kengashining № 3/18-sonli Qarorida** EXHTning 57 ishtirokchi davlatlari «jurnalistlar faoliyatini obro'sizlantiruvchi, jamiyat ishonchiga va uning jurnalistikaning haqqoniyliliga ishonchiga putur etkazuvchi aniq maqsadli kampaniyalar ko'payib borayotganidan» tashvish bildirishdi, hamda «bu jurnalistlarga nisbatan tahdid va zo'rvonliklar xatarini oshirishi mumkin»ligini qayd etishdi.

### › **Xavfsizlik va gender masalalarida kompleks siyosatni amalga oshirish orqali ish joyida yurish-turish madaniyatini oshirish**

Xavfsizlik madaniyati juda muhim. Agar jurnalistlar o'zlari faoliyat olib borayotgan OAV barcha ko'rinishdagi ham tashqi, ham ichki suiiste'molchiliklarning oldini olish, ularni yumshatish va ularga munosabat bildirishga harakat qilayotganini his etishmasa, ular o'z vazifalarini bajarishga qiynalishadi.

Ayol jurnalistlarda himoyalanmaganlik hissi aksariyat hollarda ish joyidan boshlanadi. Kamsituvchi madaniy qoidalar va qarashlar suiiste'molchilik holatlarida rahbariyat zarur choralarni ko'rishiga ishonchning yo'qligi ularda gender zo'rvonliklar haqida xabar berish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Bunday holatlarda ular jim turishni ma'qul ko'rishadi.<sup>2</sup>

Ichki madaniyatni oshirish yo'lidagi media kampaniyada birinchi qadam gender zo'rvonligi muammo ekanini, ma'lum bir jurnalistga tajovuz - butun kompaniyaga tajovuz ekanini tan olish hisoblanadi. Ayol erkak hamkasblaridan farqli ravishda tarmoq kommunikasiyalarida ko'proq tajovuzlarga duch kelishlarini, bu ularga ko'proq zarar etkazishini,<sup>3</sup> shuningdek ayol jurnalistlar



erkak hamkasblar tomonidan ta'qibga uchrashlari mumkinligi va ular bu haqda xabar bermasliklari mumkinligini anglab etishni o'z ichiga oladi.

Ayol jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash uchun ommaviy axborot vositalari muharririyatning o'zida va boshqa joylarda, masalan yoritilayotgan jug'rofiy hudud va joylarda mehnat sharoitlari xavfsizligining auditini muntazam ravishda olib borishlari kerak. Shuningdek, ular xodimlari duch kelishi mumkin bo'lgan xatarlarning har xil turlarini yaxshiroq tushunish uchun raqamli xavfsizlikning auditini va baholovini amalga oshirishlari zarur. Buning natijasida ular o'z faoliyatlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashtirib olishlari mumkin. Audit natijalariga asoslanib va jurnalistlar bilan hamkorlikda OAV o'z ichiga jismoniy va raqamli xavfsizlikni himoya qilishni o'z ichiga olgan kompleks xavfsizlik siyosatini joriy etishlari kerak.

Mediakompaniyalar tahririyatlarda ijobiy madaniyatni shakllantirish bilan birga tarmoqdagi turli ta'qib va suiiste'molchiliklarni o'z ichiga olgan tajovuzlarning oldini olish va ularga qarshi turish uchun rahbariy tamoyillar va protokollarni ishlab chiqishlari kerak. Ana shu tamoyil va protokollarni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslarni belgilab olish hamda texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan zamonda ularning dolzarbligini saqlab turish uchun ushbu hujjatlarni muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish va yangilab borishlari zarur.

Rahbariy tamoyillarda Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar haqida jurnalistlar xabar berishlari mumkin bo'lgan usullar hamda zarur yordam, xususan istalgan yuridik maslahat yoki psixologik qo'llab-quvvatlashni qanday olish mumkinligi haqidagi ma'lumotlar bayon etilishi muhimdir. Shu bilan birga, bunday hujjatlarni ishlab chiqishda qat'iy ichki amaliyotlar ayol jurnalistlar gender asosidagi tajovuzlar haqida, ushbu tajovuzlarning shaxsiy va intim xususiyatidan kelib chiqib, xabar berishlariga yo'l qo'ymasligi mumkinligini inobatga olish hamda bunday amaliyotlarda xatti-harakatlarning turlicha ssenariylarini nazarda tutish

zarur. Masalan, ayol jurnalist o'ziga nisbatan bo'lgan/bo'layotgan ta'qib holati haqida rahbariyatga shaxsan xabar bermasdan, buni hamkasbidan iltimos qilishi mumkin. Yoki ayol jurnalist hodisa haqida rahbariyatga, hamkasblariga yohud o'zi ishlaydigan agentlikdan tashqarida kimgadir xabar bermasdan, ruhiy-ijtimoiy yordam so'rab murojaat qilishi ham mumkin.

Ma'lumki, gender asosidagi ta'qiblar ish joyida ham sodir bo'lib turishi bizga yaxshi ma'lum bo'lgani bois, ayol jurnalistlar Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar haqida xabar berishi mumkin bo'lgan korporativ tuzilmalar ularga ham o'zlari ishlaydigan tashkilot ichida, ham undan tashqarida tajovuzlarga qarshi turishlarida yordam ko'rsatishlari zarur. Bunday yordam mexanizmlari foydalanish uchun oson, maxfiylikni va rahbariyat tomonidan tezkor munosabatni kafolatlaydigan bo'lishi kerak.

Ayol jurnalistlarga gender asosidagi tajovuzlarning asosida jamiyatdagi tengsizlik yotadi, ya'ni unda erkaklar ayollarga nisbatan kattaroq imkoniyatlarga va balandroq ish haqiga ega bo'lishi oddiy hol hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday jamiyatlarda ayollarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklarning butun ko'lami va oqibati to'liq anglab etilmaydi. Bunday tajovuzlarning asl sabablariga qarshi kurashish uchun ommaviy axborot vositalari oylik ish haqi, lavozimga ko'tarilish, ish vaqti va shaxsiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlash, rahbariy lavozimlarga ko'tarilish imkoniyati borasida gender tengligi siyosatini tasdiqlashlari va malga oshirishlari zarur.<sup>4</sup> OAV siyosati, shuningdek ish joyidagi jinsiy zo'ravonlik masalasini ham qamrab olishi va tashkilot ichida qoidabuzarliklar sodir etilganida tegishli choralar yo'nalishini belgilab olishi kerak. Gender siyosati ayol jurnalistlarning, assosiasiya va ubshmalar vakillarining fikrlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi kerak va barcha xodimlarga etkazilishi zarur.

Tahririyat siyosati, shuningdek media kontentdagi gender tengligiga ham xizmat qilishi kerak. Ushbu maqsadga erishish usullari haqidagi tavsiyalar o'z ichiga

ayollarga, xususan jamoat arbobi bo'lgan ayollarga, o'z fikrini bildirish uchun imkoniyat yaratish orqali voqea-hodisalarni yoritishda gender yuzakiligining oldini olish, jinsiy zo'rvonlik holatlarini yoritishda jabrdiydalarning olgan jarohatlari chuquralshib ketishiga va ularning keyinchalik stigmatizatsiyasiga yo'l qo'ymaslik kabilarni oladi.

## Misollar

**Ilg'or tajribalarni muhokama qilish:** Evropa OAVsi Xalqaro matbuot instituti (XMI) tomonidan EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakili byurosi bilan hamkorlikda o'tkazilgan, ayol jurnalistlarga Internetdagi ta'qid va tajovuzlar muammosini hal qilish bo'yicha ilg'or tajribalar o'rganib chiqilgan, gender masalalari bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotda ishtirok etishdi. 2019 yilda XMI o'z ichiga bir qator tavsiyalarni olgan «Jurnalistlarga nisbatan Internetdagi zo'rvonlikka qarshi kurashda optimal muharrirlik amaliyoti» nomli hisobotini e'lon qildi.<sup>5</sup>

**Shaffof rahbariy qo'llanma va protokollarni joriy etish: «Internetdagi ta'qiblarga qarshi kurash choralari:** yangiliklar agentliklari va jurnalistlar uchun rahbariy qo'llanma» nomli rahbariy protokol XMLning onlayn resursidagi sahifaga bir necha tilda joylashtirilgan. Mazkur protokol Evropa mamlakatlarining ilg'or tajribalariga asoslangan va XMI bir qancha yangiliklar agentliklari bilan hamkorlikda hayotga tadbıq etish borasida ish olib borayotgan aniq tavsiyalarni o'z ichiga olgan.<sup>6</sup>

Gazetalar va yangiliklar noshirlarining butunjahon assosiasiyasi (WAN-IFRA) ish joyida jinsiy tegajog'liklarning oldini olish va ularga qarshi konstruktiv kurashga ko'maklashish maqsadida ommaviy axborot

vositalari va ularning xodimlari uchun qadamba qadam amaliy tadbirlarni o'z ichiga olgan rahbariy qo'llanmani ishlab chiqqan. «Ommaviy axborot vositalarida jinsiy tegajog'lik – ish beruvchilar va xodimlar uchun axborot-amaliy rahbariy qo'llanma»,<sup>7</sup> deb nomlangan qo'llanmada mediakompaniyalarning kadrlar masalalari bo'yicha mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan tegajog'liklar haqidagi xabarning modellari keltirib o'tilgan bo'lib, ularda tegadog'lik haqidagi xabarlariga qanday ma'lumotlarni kiritish kerakligi hamda xabar berish va undan keyin nimalar qilish zarurligi batafsil bayon etib berilgan.

Avstriya jamoat telekompaniyasi - Österreichischer Rundfunk (ORF) gender tengligini ta'minlash maqsadida ommaviy axborot vositalari qanday qilib harakatlar protokollarini o'rnatishlariga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu telekompaniya gender tengligini va xotin-qizlarning mansab pillapoyalaridan yuqorilashlarini rag'batlantirish, ish va shaxsiy hayot o'rtasida nisbatan maqbul muvozanatni ta'minlash hamda tashkilotning barcha, shu jumladan texnik, bo'limlarida xotin-qizlar soni 45 foizni tashkil etishiga erishish maqsadida o'zini o'zi tartibga solish vositasini yaratgan.<sup>8</sup>

Rossiyaning «Novaya gazeta» tahririyati psixologik va jinsiy zo'ravonlikka qarshi kurash bo'yicha harakatlar protokolini tasdiqlagan bo'lib,<sup>9</sup> unda jinsiy tegajog'lik va psixologik bosim tushunchalariga ta'rif berilgan, shuningdek extimoliy shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun kengash tuzish nazarda tutilgan. Ushbu kengash tarkibiga gazeta redaktori, nashr direktori yoki ilgari qoidabuzarliklar sodir etgan shaxslar kiritilmaydi. ACOS alyansi «Dart» Markazi bilan hamkorlikda muxharrirlar va yangiliklar menejerlari uchun «Barqarorlikka yo'l» nomli qo'llanma ishlab chiqqan bo'lib, unda ta'qibga uchragan frilanserlar bilan qanday ishlash bo'yicha tavsiyalar berilgan.<sup>10</sup>

**O'quv mashg'ulotlariga chet kuzatuvchilarni kiritish:** Bir qancha tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jinsiy tegajog'liklar haqidagi ko'plab an'anaviy dars mashg'ulotlari samarali emas. O'zining [«Jinsiy tegajog'liklarga qarshi kurash bo'yicha o'qitish samarasiz, lekin ish beradigan uslublar ham mavjud»](#) nomli maqolasida The New York Times tashkiliy madaniyatda sezilarli o'zgarishlarga erishish uchun tashkilotlar, shu jumladan OAV amal qilishi mumkin bo'lgan tavsiyalarni keltirib o'tgan.<sup>11</sup> Maqolada boshqacha yondoshuvlardan biri sifatida chet kuzatuvchilarni o'qitish keltirib o'tilgan.

## Manbalar

- [Yangiliklar tashkilotlarining o'zi tomonidan xavfsizlikni ichki baholash sxemasi](#) ACOS alyansi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u alyans a'zolarining jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash uslublari va protokollarini o'rganish va takomillashtirish bo'yicha yangiliklar agentliklariga ko'maklashishga mo'ljallangan tavsiyalari jamlangan vosita ko'rinishiga ega.<sup>12</sup>
- WAN-IFRAning [«Kutilgan va kutilmaganni rejalashtiring: xatarni baholashda nimani o'ylab ko'rish kerak»](#) blogida tahririyatlarga mo'ljallangan muhim tavsiyalar mavjud bo'lib, jurnalistlar tahririyta topshirig'ini bajarishga kirishishdan oldin to'ldirishlari kerak bo'ladigan oddiy va tushunarli shakllarni ishlab chiqish kabilar shular jumlasidandir.<sup>13</sup>
- [YUNESKOning OAV uchun gender-sezgirlik indekatorlari](#) OAV faoliyati va kontentida ommaviy axborot vositalariga gender jihatlarini hisobga olgan holdagi yondoshuvlarni yaxshilash uchun baholashni

amalgga oshirishda yordam beradigan, gender sezgirlikni o'lchash uchun asosni ta'minlab beradi.<sup>14</sup>

- EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha vakili byurosi o'z ichiga media tashkilotlari uchun manbalar va tavsiyalarni ham olgan ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligi haqida [axborot byulletenini](#) chop etdi.<sup>15</sup>

### › **Internetda ta'qib va suiiste'molchiliklarga duch kelayotgan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va o'qitishni ta'minlash**

OAV egalari, rahbarlari va muharrirlari Internetda ta'qib va suiiste'molchiliklarga duch kelgan jurnalistlarga har tomonlama tezkor yordam ko'rsatishga tayyor bo'lishlari kerak. Aziyat chekkan jurnalistlarga jismoniy himoya, muqobil taopshiriqlar, ruhiy-ijtimoiy va huquqiy yordam yohud yuqoridagilarnig barchasi zarur bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, OAV egalari, rahbarlari va muharrirlari kompaniyada sodir bo'lgan holat haqida ijtimoiy tarmoqlar orqali va/yoki huquq-tartibot idoralariga xabar berishga qaror qilgan ayol jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatishga ham tayyor bo'lishlari lozim. Bunda tajovuzlar haqida xabar berish keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xatarni baholash hamda jabr ko'rgan ayol jurnalistning to'la roziligini olish kerak. Ommaviy axborot vositalari, ayol jurnalistlarga o'z tajribalari bilan o'rtoqlashishlari yoki muammolarini bayon etishlari uchun xavfsiz makon taqdim etadigan kollegial qo'llab-quvvatlash guruhlari yoki yodam ko'rsatishning shu kabi boshqa kanallarining tashkil qilinishining tashabbuskori bo'lishlari yohud ana shunday tashabbuslarni qo'llashlari zarur.

Institusional qo'llab-quvvatlovga qaramay, ayol jurnalistlar, ayniqsa shtatsiz ayol jurnalistlar, ko'p hollarda Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar yukini yolg'iz o'zlari ko'tarishga majbur bo'lishadi. Shu bois ommaviy axborot vositalari birinchi galda barcha jurnalistlarga tajovuzlarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda qo'l keladigan vositalarni taqdim etishga e'tibor qaratishlari zarur bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari, shuningdek, o'z xodimlarini himoyaning kompleks strategiyalari, shu jumladan, ichki siyosat va protokollar bilan tanishtirgan va o'qitgan holda, ularda himoya ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun ham mas'uldirlar. Bunday o'qitish jarohatlar olish xatarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni, Internetdagi gender zo'ravonligi holatlari haqida xabardorlik va raqamli xavfsizlik vositalarini o'z ichiga olishi kerak.

Ustoz – shogird an'analarning joriy etilishi yoki rivojlantirilishi ayol jurnalistlar o'rtasida aloqa va muloqotning yo'lga qo'yilishiga hamda ular foydali manbalarni izlab topishlarida qo'l kelishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchiliklar chuqur ildiz otgan ijtimoiy qoidalarning ijobiy tomonga o'zgarishida muhim rol o'ynashi mumkin. Shunday qilib, OAV jurnalistlari va xodimlarini o'z reportajlarida gender stereotiplari va bid'atlariga qarshi kurash uslublari hamda gender zo'ravonligi haqidagi reportajlarni noziklik bilan tayyorlash usullariga o'rgatish ushbu muammoni OAVda turli ko'rinishlarda yoritishga turtki berishi mumkin.<sup>16</sup>

OAVdagi rang-baranglikka ko'maklashishning usullaridan biri har qanday ijtimoiy guruhlardagi xotin-qizlarning yangiliklar va intervyularda faolroq ishtirok etishlari, hamda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotdagi faol rolini tan olish hisoblanadi. Xatto gender tengligi ko'rsatkichlari yuqoriroq bo'lgan mamlakatlarda ham xotin-qizlarning OAVdagi vakilligi past bo'ladi yoki stigma bilan bog'liq bo'lishi mumkin.<sup>17</sup>

Gender zo'rvonligi, internetdagi ta'qiblar va suiiste'molchiliklar masalalari bo'yicha o'quv kurslari, o'quv jarayonining uzoq muddatligi va ahamiyatini ta'minlash, tashkilotda ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muntazam ravishda o'tkazib borilishi hamda qayta tayyorlashni nazarda tutishi kerak, xo'jako'rsinga o'tkaziladigan bir martalik tadbirlar samara bermaydi.

## Misollar

**Qo'llab-quvvatlash jarg'armasini tashkil etish:** Finlyandiyaning etakchi media kompaniyalari tahdid va ta'qiblardan, shu jumladan, internetdagi tajovuz va ig'volardan jabr ko'rgan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash jarg'armasini tashkil qilish uchun o'z harakatlarini kasaba uyushmalari bilan birlashtirishdi.<sup>18</sup>

**Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga tezkor munosabat bildirish:** Ispanida El País va La Vanguardia gazetalari hamda Catalunya radio radiosi tajovuzga uchragan jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash uchun [ijtimoiy tarmoqlarda guruhlar](#) tashkil qilishgan. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ijtimoiy tarmoqlardagi hujumlarga to'g'ridan to'g'ri munosabat bildirish, kontentni o'z platformalaridan o'chirib tashlash, hujumlarni hujjatlashtirish va jabr ko'rgan jurnalistlarni sudda ko'rib chiqishga tayyorgarlik jarayonida qo'llab-quvvatlash kabilarni o'z ichiga oladi.<sup>19</sup>

**Xotin-qizlar bilan intervyular sonini ko'paytirish:** 2011 yilda Belgiyaning RTBF telekompaniyasi rahbariyati jurnalistlarni intervyularni imkon qadar erkaklardan emas, ayollardan olishga chaqirib, Cherchez la femme nomli tashabbusni ilgari surdi. Bu chora yangiliklar dasturlarida intervyu bergan xotin-qizlar ulushini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.<sup>20</sup>



**OAVdagi ishtirokning har kunlik monitoringi:** Prognosis Shamebot sayti Shvesiya va Finlyandiyadagi deyarli 30 ta kundalik elektron OAVda tilga olingan erkaklar va ayollar ismlarini solishtirgan.<sup>21</sup> garchi ushbu aniq bir manba OAVdagi ishtirok sifati haqida ma'lumotning yo'qligi singari o'z kamchiliklariga ega bo'lsada, undan ma'lum vaqt mobaynida foydalangan ommaviy axborot vositalari, uni media sektorning o'zidagi erkaklar va xotin-qizlar haqida ichki suhbat va munozaralarni tashkil etishda foydali, deb hisoblashgan.

## Manbalar

- Evropa Ittifoqi vazirlarining ommaviy axborot vositalaridagi gender tengligi bo'yicha qo'mitasi o'zining Rec(2013)1 tavsiyasida OAVga «o'zini o'zi boshqarish chora-tadbirlarini, ichki yurish-turish/etika qoidalari kodeksini va ichki nazorat tizimini tasdiqlashni hamda OAVda gender tengligini ilgari suruvchi materiallarni yoritish standartlarini ishlab chiqish»ni tavsiya qildi. U, shuningdek, uchinchi tomonlarni «o'z muammolari haqida o'zini o'zi boshqarish organlariga xabar bergan holda, gender tengligini sobitqadamlik bilan himoya qilish»ga chaqirdi.<sup>22</sup>
- OAV rang-barangligi institutining [«Siyosiy portret yaratish: gender masalalari va televidenie bo'yicha qo'llanma»](#) si o'z ichiga jurnalistlarni xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokini yoritishga o'qitishning sakkizta modulini olgan.<sup>23</sup>
- [SSaferJourno: Digital Security Resources for Media Trainers](#) – bu Internews tomonidan talabalarni, kasb egalarini va hamkorlarni raqamli

va tarmoq xavfsizligi masalalariga o'qituvchi media yo'riqchilar uchun yaratilgan, ochiq chiqish kodli bepul o'quv qo'llanma.<sup>24</sup> Yuklangan materialda oltita turli modullar: xatarlarni baholash; bazaviy himoya; uyali telefon xavfsizligi; ma'lumotlarni xavfsiz saqlash; tadqiqotlarni xavfsiz o'tkazish; hamda elektron pochtni himoya qilish bo'yicha mashg'ulotlar rejalari taqdim etilgan.

### › **Interaktiv onlayn platformalar uchun gender xususiyatlarini hisobga olgan holda hamjamiyat qoidalarini ishlab chiqish**

Bugungi kunda ommaviy axborot asboblari ko'pincha o'z veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi hisob qaydlari orqali interaktiv onlayn makonlar tashkil qilishmoqda. Foydalanuvchilarning OAV onlayn platformalari bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha hamjamiyatning qat'iy qoidalari Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning oldini olishda yordam berishi yoki hujumlar xavfini kamaytirishi mumkin. Garchi LAV onlayn platformasidagi munozaralarning moderatsiyasi Internetdagi gender asosidagi ta'qiblarning oldini olish yoki oqibatlarini kamaytirishda muhim vosita bo'la olsada, u so'z erkinligini bo'g'masligi kerak. Bundan tashqari, jurnalistlar ijtimoiy tarmoqlarning platformalarida qanday o'zaro hamkorlik qilishlari borasidagi aniq tavsiyalar ham jurnalistlar va OAVga xatarni tezroq baholab, hujumlarga kerakli tarzda munosabat bildirishda yordam beradi.

OAV, shuningdek, jarayonga hamjamiyatlarni faol jalb etib va o'zining onlayn platformalarida konstruktiv muloqotni ilgari surgan holda, ta'qib va suiiste'molchiliklarning oldini olish borasida ish olib borishlari mumkin.

Bunga erishining usullaridan biri hamjamiyatning maxsus moderatorlarini tayinlashdan iborat bo'ladi.

## Misollar

**Internet hamjamiyat bilan o'zaro hamkorlik:** Britaniya radioeshittirish korporasiyasi (Bi-Bi-Si) axborotlarni sharhlash va o'z platformalariga yuklash bo'yicha [ichki qoidalar](#)ni o'rnatdi hamda o'z o'quvchilarini haqoratli xatti-harakatlardan tiyilishga chaqirdi.<sup>25</sup>

**Hamjamiyat bilan muloqot moderatorlarini tayinlash:** 2018 yilda Finlyandiyaning YLE jamoatchilik telekompaniyasi o'z platformalarida [hamjamiyat bilan muloqotni boshqarish](#) amaliyotini joriy etdi. Yle onlayn muloqotlarning nisbatan ijobiy madaniyatni shakllantirish uchun auditoriya bilan muloqot uchun moderator yolladi.<sup>26</sup>

Deutsche Welle (DW)da DWning ishtiroki bor har bir nemis tilidagi servis platformaning moderasiyasi bilan shug'ullanuvchi hamjamiyat moderatori mavjud, ingliz tilidagi xizmatda esa kunu tun ishlovchi moderatorlar mavjud.<sup>27</sup>

## Manbalar

- Plyuralizm va OAV erkinligi Markazi Evropa Ittifoqiga a'zo davlatlar ommaviy axborot vositalari uchun ijtimoiy tarmoqlarda ishlashning [rahbariy tamoyillar bazasini](#) yaratdi.<sup>28</sup>

## › **Ayol jurnalistlarni, jumladan shtatsiz jurnalistlarga nisbatan Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar holatlarini kuzatib borish va hujjatlashtirish**

Jurnalistika uchun nisbatan yangi zavf hisoblangan internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning butun miqyosi va ta'sirini tushunish uchun ma'lumotlar hajmini oshirish kerak. OAV, Internetda o'z xodimlariga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini hujjatlashtirgan holda, o'z xodimlari va jurnalistlarning xavfsizligidan manfaatdor bo'lgan keng jamoatchilikka yordam berishi mumkin. Ta'qib va suiiste'molchiliklarning turli xil ko'rinish va jihatlari haqidagi ma'lumotlarning to'planishi suiiste'molchiliklarning xususiyatlarini inobatga olgan holda xatarlarni baholashni amalga oshirish va vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar tendensiyalarini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ommaviy axborot vositalariga har bir hodisaning maqomini yaxshiroq kuzatib borish, shuningdek javob choralarini qayd etish va takomillashtirish, jumladan tajovuzlar jinoiy harakatlarga o'xshash bo'lganda, dalillarni saqlash imkonini beradi.

Bunday axborotga ega bo'lar ekan, OAV himoyaning mavjud milliy mexanizmlari, milliy huquqni himoya qiluvchi tashkilotlar, siyosatni ishlab chiquvchilar va huquq-tartibot organlari bilan aloqalarning nisbatan samaraliroq kanallarini o'rnatishlari, hamda ular bilan ayrim ma'lumotlarni bo'lishishlari mumkin. Bunday harakatlardan maqsad aniq bir jurnalistga qarshi yoki aniq bir qoidabuzar tomonidan sodir etilgan suiiste'molchiliklarning taranglashuvi aniq maqsadli monitoring va javob choralarini talab qiladigan vaziyatlarga munosabat bildirishni nazarda tutuvchi kompleks javob strategik choralarini qabul qilishdan iboratdir.

Buning uchun, shuningdek, shtatdagi va shtatsiz barcha xodimlar bilan o'zaro hamkorlik va to'la shaffoflik, hamda tajovuzga uchragan jurnalistlarning to'liq

roziligi ham zarf bo'lad. Xatto ana shunday rozilik bo'lgan taqdirda ham, ommaviy axborot vositalari shaxsni aniqlashtiruvchi axborotni e'lon qilishdan oldin yoki ma'lumotlarni xoh davlat idoralari, huquq-tartibot organlari, fuqarolik jamiyati guruhlari yoki istalgan ochiq platforma bo'lsin, uchinchi shaxslarga berishdan oldin xatarlarni baholashni amalga oshirishlari zarur.

## Misollar

**Qoidabuzarliklarni monitoring qilish uchun portal yaratish:** Jurnalistik surishtiruvlarning Bolqon tarmog'i [BIRD](#) – Markaziy va Janubiy-Sharqiy Evropaning oltita mamlakatida raqamli huquq va erkinliklarning buzilishini kuzatib boruvchi resurs portalini yaratdi, hamda ayol jurnalistlarga onlayn hujumlarning surishtiruv haqidagi hisobotni e'lon qildi.<sup>29</sup>

**Internetdagi suiiste'molchiliklar mavzusida tadqiqotlarni amalga oshirish:** «Gardian» gazetasi o'z jurnalistlariga nisbatan Internetdagi suiiste'molchiliklarning tabiatini tushunish uchun 2006 yildan buyon o'z saytida joylashtirilgan 70 million sharhlarni tahlil qilib chiqdi. Nashrning aniqlashicha, eng ko'p ta'qibga uchragan o'n nafar muallifdan sakkiz nafari ayollar ekan. Natijalar [«Gardian» nashri saytidagi «Sharhlarning qora tomoni»](#) nomli hisobotda keltirilgan.<sup>30</sup>

## Havolalar

- 1 Elisa Lees Munoz, "Why we should prioritize women journalists' safety", International Women's Media Foundation, <https://www.iwmf.org/2017/11/why-we-should-prioritize-women-journalists-safety/>.
- 2 Silvia Chocarro, "The safety of women journalists: Breaking the cycle of silence and violence", IMS Defending Journalism book series, International Media Support, 2019, <https://www.mediasupport.org/publication/the-safety-of-women-journalists>.
- 3 Mozilla Foundation, "Women journalists feel the brunt of online harassment", Internet Health Report, 2019, <https://internethealthreport.org/2019/women-journalists-feel-the-brunt-of-online-harassment/>.
- 4 Gender Equality Commission, "Handbook on the implementation of Recommendation CM/Rec(2013)1 of the Committee of Ministers of the Council of Europe on gender equality and media", Council of Europe, 2015, <https://rm.coe.int/CoERMPublicCommonSearchServices/DisplayDCTMContent?documentId=0900001680590558>.
- 5 Barbara Trionfi and Javier Luque Martinez, "Newsroom Best Practices for Addressing Online Violence against Journalists Perspectives from Finland, Germany, Poland, Spain and the United Kingdom", IPI, in cooperation with the OSCE RfOM, <https://ipi.media/wp-content/uploads/2019/06/IPI-report-on-line-harassment-06032019.pdf>.
- 6 IPI, "Measures for Newsrooms and Journalists to Address Online Harassment", Ontheline Newsrooms, <https://newsrooms-ontheline.ipi.media/>.
- 7 R. Zausmer, J. Godia, "Sexual Harassment in the Media", Women in the News, 2018, <http://www.womeninnews.org/resource/41>.
- 8 См. документ, цитируемый в примечании 3, стр. 17.
- 9 "Рабочее место должно быть безопасным" (Workplace must be safe), Novaya Gazeta, 14 July 2020, <https://novayagazeta.ru/articles/2020/07/14/86271-rabochee-mesto-dolzno-byt-bezopasnym>.
- 10 Dart Centre and ACOS Alliance, "Leading Resilience: A Guide For Editors & Managers", 2020, <https://www.acosalliance.org/trauma-management-for-editors>
- 11 Claire Cain Miller, "Sexual Harassment Training Doesn't Work. But Some Things Do.", The New York Times, 11 December 2017, <https://www.nytimes.com/2017/12/11/upshot/sexual-harassment-work-place-prevention-effective.html?smid=fb-nytimes&smtyp=cur&r=0>
- 12 ACOS Alliance, "News Organizations Safety Self-Assessment", <https://www.acosalliance.org/self-assessment>.
- 13 Caroline Scott, "Plan for the expected and unexpected: What you need to think about when completing a risk assessment", World Association of Newspapers and News Publishers, 6 April 2019, <https://blog.wan-ifra.org/2019/06/04/plan-for-the-expected-and-unexpected-what-you-need-to-think-about-when-completing-a-risk->
- 14 UNESCO, "Gender-Sensitive Indicators for Media: Framework of indicators to gauge gender sensitivity in media operations and content", 2012, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000217831>.
- 15 OSCE RfOM, #SOFJO Factsheet: Safety of Female Journalists Online, 2018, [https://www.osce.org/files/f/documents/2/5/370331\\_0.pdf](https://www.osce.org/files/f/documents/2/5/370331_0.pdf).
- 16 The New York Declaration, "Gender & media: challenges and opportunities in the Post 2015 era", 11 March 2017, <https://whomakesthenews.org/wp-content/uploads/who-makes-the-news/Reports/The%20New%20York%20Declaration%202017%20on%20gender%20and%20media.pdf>.
- 17 Sarah Macharia et al., "Who Makes the News? Global Media Monitoring Project", WACC, 2015, <https://whomakesthenews.org/gmmp-2015-reports>.
- 18 "Media houses and unions set up fund to support journalists facing harassment", The Union of Journalists in Finland news item, 28 May 2019, <https://journalistilitto.fi/en/media-houses-and-unions-set-up-fund-to-support-journalists-facing-harassment/>.
- 19 5 ilovada iqtibos keltirilgan hujjatga qarang.

**20** 4 lovada iqtibos keltirilgan hujjatga qarang.

**21** Prognosis Shamebot, "Gender Equality Tracker 2020", <http://www.prognosis.se/GE/>.

**22** Council of Europe "Draft analytical report on the follow-up on the implementation of Recommendation CM/Rec(2013)1 of the Committee of Ministers of the Council of Europe on gender equality and media", GEC(2019)10, CDMSI (2019)04, 8 November 2019, p. 46, <https://rm.coe.int/gec-2019-10-cdmsi-gec-analytical-report-cm-gender-equality-and-media/168098bce5>.

**23** Portraying Politics Project Partners, "Portraying Politics – A toolkit on gender and television", 2006, [http://www.media-diversity.org/en/additional-files/documents/PP\\_EN.pdf](http://www.media-diversity.org/en/additional-files/documents/PP_EN.pdf).

**24** "SaferJourno", Internews, <http://saferjourno.internews.org/>.

**25** "What are the rules for commenting and uploading?", BBC, 2018, <https://www.bbc.co.uk/usingthebbc/terms/what-are-the-rules-for-commenting/>.

**26** "Finnish public broadcaster fights online hate speech with dialogue and respect", European Federation of Journalists news item, 20 August 2018, <https://europeanjournalists.org/blog/2018/08/20/finnish-public-broadcaster-fights-online-hate-speech-with-dialogue-and-respect/>.

**27** 5 ilova 35 betda iqtibos keltirilgan hujjatga qarang.

**28** "Social Media Guidelines for Journalists EU28", European University Institute, <https://cmpf.eui.eu/social-media-guidelines-for-journalists-eu28/>.

**29** "B.I.R.D.", The Balkan Investigative Reporting Network and Share Foundation, <https://monitoring.birdtools>.

**30** Becky Gardiner et al., "The dark side of Guardian comments", The Guardian, 12 April 2016, <https://www.theguardian.com/technology/2016/apr/12/the-dark-side-of-guardian-comments>.







**JURNALISTIKA TASHKILOTLARI  
VA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH  
ORGANLARI HAMKORLIKDAGI  
HARAKATLARNI TASHKIL ETISH  
VA AXLOQ KODEKSLARINI  
ISHLAB CHIQISH**

---

## Tavsiya etilgan chora-tadbirlar

---

1. Ayol jurnalistlar xavfsizligini kuchaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida hamkorlikdagi chora-tadbirlar va harakatlarni faol amalga oshirish;
2. Hamkablilar bilan faol o'zaro hamkorlik, o'qitish va boshqa turdagi amaliy qo'llab-quvvatlov vositasida imkoniyatlarni amalga oshirish;
3. Tajjovuzlarni hujjatlashtirish va ma'lumotlardan muhim ishtirokchilarning xabardorligini oshirish uchun foydalanish;
4. Xavfsizlik va gender tengligi masalalrining o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga kiritishga ko'maklashish.

## **8. Jurnalistika tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlari hamkorligidagi harakatlarni tashkil etish va axloq kodekslarini ishlab chiqish**

Организация совместных действий  
и разработка кодексов этики

Kasbiy assotsiatsiya va uyushmalar kabi jurnalistlarning tashkilotlari jurnalistlarning mehnat huquqlari va umumiy manfaatlarini himoya qilishadi, bu esa tashkilot a'zolarining xavfsizligini oshirish, aniq bir xatarlarga duch kelishganda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Media sektoridagi nodavlat sub'ektlari, xususan OAV bo'yicha kengashlar, tahririyat kasabab uyushmalari, OAV bo'yicha o'quv yurtlari va bitta yoki bir nechta OAV tomonidan ombudsmenlar ham jurnalistlar xavfsizligi masalasida o'z o'rniga ega bo'lishi mumkin.

**EXHT vazirlar Kengashining № 3/18-sonli Qarori EXHT 57 ishtirokchi davlati «jurnalistlarga nisbatan asoslanmagan cheklov choralarning qo'llanilishi ularning xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi, ularga jamoatchilikni xabardor qilish imkonini bermasligi, shu orqali so'z erkinligi huquqini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi»ni tashkish bilan qayd etishdi.**

Ushbu bo'limda bu kabi tashkilotlar, keyinroq ko'rib chiqiladigan ta'lim muassasalari bundan mustasno, qanday qilib ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligini ta'minlash borasida o'z rolini oshirishlari mumkinligi bayon etilgan.

## › **Ayol jurnalistlarning xavfsizligini kuchaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida hamkorlikdagi chora-tadbirlar va harakatlarni faol amalga oshirish**

Jurnalist assotsiatsiya va uyushmalari OAV ish beruvchi sifatida asosiy shtatdagi va shtatsiz ayol jurnalistlarning kasbiy faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida ularning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'z majburiyat va javobgarliklarini bajarishga ko'maklashish muhim o'rin tutadi.

Jurnalistlar assosiasiyalari va uyushmalari OAV xodimlari mehnat sharoitlarini yaxshilash borasidagi o'z intilishlarida ayol jurnalistlar duch kelayotgan aniq muammolarga e'tibor qaratishlari mumkin. Erkaklar va ayollar mehnatiga haq to'lashdagi gender tengsizligini bartaraf etish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan muzokaralar olib borish muhim ahamiyatga ega, chunki bunday amaliyot mehnatkashlarning huquqlarini poymol etadi va ayollarga nisbatan kamsitishga turtki beradi

Bundan tashqari, OAVda gender tengligini ta'minlash va jinsiy tegajog'liklarga qarshi kurash siasatini ilgari surishga qaratilgan intilishlar bilan bir qatorda, o'z ichiga ayol jurnalistlarga nisbatan o'ziga xos amaliyotlarni o'z ichiga olgan xavfsizlik protokollarining hamda zarur uskunalar va qo'llab-quvvatlovning mavjud bo'lishi muhim o'rin tutadi.

Jurnalistlar tashkilotlari o'z tashkiliy tuzilmalarida gender tengligi va gender siyosati prinsiplariga amal qilishlari kerak, hamda o'z bo'linmalarida Internetdagi ta'qib va suiiste'molchilik masalalariga alohida e'tibor qaratishlari zarur.

Muzokaralardan tashqari, kasbiy assosiasiya va uyushmalar qonunchilikni kuzatib va tahlil qilib borishlari hamda zarurat bo'lganda, ularni milliy, hududiy va xalqaro darajada takomillashtirish yuzasidan takliflarni ilgari surishlari kerak.

Jurnalistika tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlari Hamkorlikdagi harakatlarni tashkil etish va axloq kodekslarini ishlab chiqish Agar Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar jinoiy xatti-harakatlarga o'xshash bo'lsa, tashkilotlar jurnalistlar va o'z vakolatxonalariga huquqiy yordam ko'rsatishlari mumkin.

## Misollar

**Tavsiyalar taqdim etish:** Finlyandiya jurnalistlar uyushmasi "Nafrat kampaniyasi - biz qanday yo'l tutishimiz kerak" broshyurasini chop etgan.<sup>1</sup> [Unda suiiste'molchilik holatlarini hujjatlashtirish, zarurat tug'ilganda xodimlar uchun maslahatlar tashkil etish yoki Internetda hamkasblar haqida ijobiy fikrlar qoldirish bo'yicha maslahatlar keltirib o'tilgan.](#) Broshyuraning maqsadi – OAV muharrirlari, rahbarlari va jurnalistlarning ularning o'zlari, xodimlari yoki hamkasblari Internetdagi ta'qib va suiiste'molchilik holatlariga duch kelishsa, qanday yo'l tutish kerakligi haqida xabardorligini ta'minlashdan iborat.

**C Media sanoatida gender tengligiga ko'maklashish:** 2019 yil iyun oyida Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) xalqaro mehnat standartlarining yangi to'plami – Zo'ravonlik va tegajoqliklar haqida 190-sonli Konvensiyani e'lon qildi.<sup>2</sup> Jurnalistlar xalqaro tashkiloti (IFJ) XMTning [«XMTning 190-Konvensiyasi hayotni o'zgartirishga qodir»](#) nomli, davlatlarni ushbu kovensiyani ratifikasiya qilishga chorlovchi targ'ibot kampaniyasini olib bormoqda.<sup>3</sup>

**Zarurat tug'ilganida kasaba uyushmalarining siyosatini yangilash:** Birlashgan Qirollik va Irlandiya jurnalistlari Milliy uyushmasi o'z siyosatini yangiladi va unga seksizm va kamsitish degan bo'limni kiritdi.<sup>4</sup>

## Manbalar

- Jurnaliyatlar xalqaro federasiyasi OAV rahbarlari, kasaba uyushmalari va hamkorlarga zarur choralarni ko'rishda ko'maklashish maqsadida "OAV va uyushmalar uchun ayol jurnalistlarni Internetda ta'qib qilishga qarsh kurashish bo'yicha Rahbariy tamoyillar" to'plamini chop etdi.<sup>5</sup>

### › **Hamkasblar bilan faol o'zaro hamkorlik, o'qitish va boshqa turdagi amaliy qo'llab-quvvatlov vositasida imkoniyatlarni mustahkamlashni ta'minlash**

Jurnalistlar assosiasiyalari va uyushmalari jurnalistlarning Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi kurash hamda ruhiy oqibatlarini engib o'tish qobiliyatlarini mustahkamlashga ko'maklashishlari mumkin bo'lgan usullar juda ko'p.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, hamkasblarning qo'llab-quvvatlashi ayol jurnalistlarning Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi tura olishlarida yordam beradigan muhim omillardan biri hisoblanar ekan. Ana shunday muammoni boshdan kechirgan hamkasblar bir-birlarini, masalan, o'zaro yordam tarmoqlari orqali qo'llab-quvvatlashadi. Ammo ayol jurnalistlar duch keladigan muammolar qanchalik nozik va murakkab ekanini inobatga olib, ularning bilim va yordam olishlariga imkoniyat yaratish ham juda muhim. Jurnalistlar assosiasiya va uyushmalari ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda (shuningdek, 7-bo'limga ham qarang) hamkasblar tomonidan qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil qilishlari, bilimlarini oshirishni taklif etishlari o'zaro hamkorlik qoidalarini ishlab chiqishlari, shuningdek boshqa shakllardagi ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishlari mumkin.

Assosiasiya va uyushmalarning tajriba va bilimlari ularga jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashga qimmatli hissa qo'shish imkonini beradi. Ular, shuningdek, mansabdor shaxslar va parlament a'zolariga Internetdagi ta'qib va suiste'molchiliklarga qarshi kurash yo'nalishidagi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqishda muhim bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishlari mumkin.

Jurnalistlar assotsiatsiya va uyushmalari, shuningdek, ayol jurnalistlarni internetda ta'qib va suiste'mol qilishning oldini olish va ularga barham berishning ilg'or uslublariga amal qilishni tashkil etish mumkin. Jurnalist va OAV egalarini tayyorlash va o'qitish bilan shug'ullanuvchi muassasalar bilan hamkorlikda o'tkazilishi ayol jurnalistlar duch kelayotgan muammolarni yaxshiroq tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular, shuningdek, ayollar rahbarligi ostida axborot almashish bo'yicha forumlarni tashkil qilishga ko'maklashishlari mumkin, ularda xatarlarni mustaqil baholash vositalariga, ijtimoiy tarmoqlardagi o'z profilini himoya qilish usullariga, hamda ayol jurnalistlar Internetdagi ta'qib va suiste'molchiliklar ob'ekti bo'lib qolishganda qanday yo'l tutish kerakligi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

Jurnalistlar assosiasiyalari va uyushmalarida aksariyat hollarda ayollar guruhlari yoki ayol jurnaliyatlarining muvofiqlashtiruvchi markazlari faoliyat olib boradi va ular ayollarga xavfsizlik borasidagi o'z tajribalari va ehtiyojlari haqida so'zlab berish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, assosiasiya va uyushmalar o'z veb-saytlarida ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligi msalalariga bag'ishlangan hamda foydalanish uchun qulay va dolzarb ma'lumotlar, aloqa manzillari va manbalar jamlangan maxsus bo'lim tashkil qilishlari mumkin.<sup>6</sup>

## Misollar

**Ta'lim vositalarini ishlab chiqish:** Radio va televideniyaedagi ayollarXalqaro assotsiatsiyasi "Agar....., bo'lsachi...?" ayol jurnalistlar uchun xavfsizlik bo'yicha qo'llanmani nashr etdi, undan bir qancha mamlakatlarda himoya masalalari bo'yicha tayyorlov kurslarida foydalanishmoqda.<sup>7</sup>

**Ilg'or tajribalarni o'rganish:** 2019 yilda Turkiya jurnalistlar uyushmasi va Evropa jurnalistlar federasiyasi OAV faoliyatida gender tengligi va rang-baranglikka ko'maklashish hamda Internetdagi ta'qiblarning keng qamroq olishiga qarshi kurash bo'yicha ilg'or tajriba va aniq vositalar masalalariga bag'ishlangan seminar tashkil qildi.<sup>8</sup>

## Manbalar

- Xalqaro jurnalistlar federasiyasining "Yevropa kasaba uyumalarining gender tengligini ta'minlash bo'yicha ilg'or tajribasi" ma'lumotnoma to'plami kasaba uyushmalari va OAVda gender gender tengligini ta'minlash bo'yichabir qator ilg'or uslublar jamlangan.<sup>9</sup>

## › Tajovuzlarni hujjatlashtirish va muhim ishtirokchilarning xabardorligini oshirish uchun axborotdan foydalanish

Jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlikni hujjatlashtirishning samarali va xavfsiz usulini belgilash, Internetda OAVga hujumlar olib borayotganini inobatga olib, jurnalistlar xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Jurnalistlarning



kasbiy tarmoqlari, assotsiatsiyalari va uyushmalari o'z a'zolari bilan doimiy yaqin aloqada bo'lib turishlari bois, ular tajovvuzlarni kuzatib bogrishlari va jarayonlarni tahlil qilishlari mumkin.

Jurnalistlarga nisbatan zo'rvonlik holatlarini kuzatib borishga qodir bo'lgan guruhlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlik xatti-harakatlarni takrorlashning oldini olish va o'zaro yordam ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jurnalistlar assosiasiyalari va uyushmalari ega bo'lgan jurnalistlarning xavfsizligi bilan bog'liq vaziyat haqidagi batafsil axborotdan axborot kampaniyalarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek media tashkilotlar, siyosatchilar va boshqa muhim sub'ektlarni ularda ishtirok etish uchun jalb qilish maqsadida foydalanish mumkin,

Bunda tajjovuzga uchragan ayol jurnalistning roziligi bilan albatta oshkoralik ta'minlanadi. Ishtirokchilarning ushbu guruhlari o'rtasidagi hamkorlik xavfsizlik sohasidagi tashabbuslar samaradorligini oshirishi mumkin.

## Misollar

**Axborotni to'plash:** Finlyandiya jurnalistlar uyushmasi jurnalistlar qanchalik tez-tez tajovuz ob'ektlari bo'lishlari borasida tadqiqot o'tkazdi, so'rovnoma muammoni yaxshiroq anglab etish va uni hal etish uchun choralar ko'rish imkonini berdi.<sup>10</sup>

**Monitoring uchun alyanslar tashkil qilish:** Janubiy-Sharqiy Evropada jurnalistlarning oltita assosiasiyasi va OAV kasaba uyushmalari [«Jurnalistlar xavfsizligi»](#) tashabbusi doirasida o'z intilishlarini birlashtirdilar.<sup>11</sup> 2016

yilda ishga tushirilgan loyiha mintaqadagi jurnalistlar xavfsizligini huquqiy va siyosiy nuqtai nazardan baholash, shuningdek jurnalistlarga tajovuzlar va bu boradagi xabardorlikni oshirishga yo'naltirilgan. Xususan, Bosniya va Gersegovinada alyansning ayol jurnalistlar uchun ishonch telefoni va tarmog'i ishlab turibdi.

**Sektorlararo uyushmalarni tuzish:** Kanadadagi xususiy sektorning eng yirik kasaba uyushmasi bo'lgan Unifor 2018 yilda [video kampaniya](#) tashkil etib, OAVda faoliyat olib boradigan ayol jurnalistlarga nisbatan Internetdagi jinsiy tegajog'lik va suiiste'molchiliklar haqidagi xabardorlikni oshirdi, ushbu kampaniya media sektordan tashqarida faoliyat olib boruvchi kasaba uyushmalari va kasbiy uyushmalar Internetdagi gender asosidagi tajovuzlarga qarshi kurashda o'z harakatlarini birlashtirishlari mumkinligini ko'rsatib berdi.<sup>12</sup>

**Internetdagi suiiste'molchiliklar haqidagi xabarlar sonini oshirishga qaratilgan kampaniya:** 2019 yilda jurnalistlar Xalqaro federasiyasi Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan gender va jinsiy ta'qib va suiiste'molchiliklar haqidagi xabardorlikni oshirish, hamda jurnalistlarning tajovuzlarga uchragan hamkasblari bilan birdamligini namoyon etishlarini rag'batlantirish maqsadida [#YouAreNotAlone](#) (#SenYolg'izEmassan) nomli kampaniyani ishga tushirdi.<sup>13</sup> Federasiya va uning hamkori bo'lgan OAV birdamligi Janubiy-Sharqiy Osiyo tarmog'i (SAMSN) guruhi [ByteBack](#) («O'zingni himoya qil») kampaniyasini tashkil etishdi, hamda uning natijasi o'laroq, 2017 yilda [«Janubiy Osiyoda kiber tegajog'liklarga qarshi kurash bo'yicha jurnalist Axborotnomasi»](#) chop etildi.<sup>14</sup>

**Zarur holatlarda hokimiyat bilan hamkorlik qilish:** Shimoliy Makedoniya jurnalistlar assosiasiyasi va Ichki ishlar vazirligi

jurnaliyatlarga qarshi jinoyatlar uchun jazosizlik muammosi borasida xabardorlikni oshirish va tajovuz holatlari sodir bo'lganda hamkorlikda ishlash bo'yicha Memorandum imzolashdi.<sup>15</sup>

### › **Xavfsizlik va gender tengligi masalalarining o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga kiritishga ko'maklashish**

OAVning o'zini o'zi boshqarish Konsepsiyasi mamlakat ichidagi OAV va jurnalistika sohasida xalqaro standartlarga tayanadigan hamda mustaqil va sifatli OAVning rivojlanishiga turtki beradigan madaniyat va muhitni yaratishga amaliy hissa qo'shadigan bir qator sub'ektlar, muassasalar va tashkilotlarga bog'liq bo'ladi.

Mashhur OAV, OAV va matubot kengashlari, tahririyatlar uyushmalari, ombudsmenlar, kasaba uyushmalari va o'quv yurtlari OAVning o'zini o'zi boshqarishida, boshqalar bilan bir qatorda, rasmiy yoki norasmiy rol o'ynaydi.<sup>16</sup> Ba'zida davlat bilan muzokaralar natijasida yaratiladigan o'zini o'zi boshqarishning rasmiy mexanizmlari amalda ko'ngillilikka asoslangan, shaffof va barcha uchun ochiq bo'lishi kerak. Ombudsmen instituti hamda OAV vakillik organlaridagi (masalan, OAV ishlari bo'yicha yoki jurnalist axloqi bo'yicha kengashlarda) shikoyatlarni taqdim etish va ko'rib chiqish mexanizmlari ayrim hollarda davlatning repressiv tartibga solish kuchini yumshatish maqsadida, davlat bilan muzokaralardan keyin tashkil qilingan.

OAVning kasbiy standartlari va axloqi xavfsizlik va gender tengligi masalalari bo'yicha tashabbuslar uchun makon taklif etadi. Kompaniyalar, muassasalar va tashkilotlarning keng qamrovi OAV axloqi masalalaridan

mustaqil OAV rivojlanishiga va ularning faoliyati sifatini qo'llab-quvvatlashga yordam beradigan madaniyat va shart-sharoitlarni yaratishga hissa qo'shish uchun foydalanishlari mumkin.

Ommaviy axborot vositalari axloqi, shuningdek davlat tomonidan tartibga solishni susaytirishga yordam beradigan OAV va matbuot kengashlari kabi o'zini o'zi boshqarishning rasmiy mexanizmlarini tashkil qilishga ham turtki beradi. Ba'zi hollarda davlat bilan muzokaralar natijasida tashkil etiladigan o'zini o'zi boshqarishning rasmiy mexanizmlari ko'ngillilikka asoslangan, jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi va o'z faoliyatining shaffofligini ta'minlashi kerak.

O'zini o'zi boshqarish organlari, o'z hamkorlaridan holatlar haqida ma'lumotlarni olishi, hamkasblar bilan muloqotlar olib borishi hamda aksariyat hollarda OAVning e'tirofiga sazovor bo'lishi bois, OAVda gender tengligi va xavfsizlikni ta'minlash masalalarida muhim rol o'ynashi mumkin. Siyosatda rejalashtirilgan o'zgarishlar sodir bo'lganda, OAV obro'li ekspertlarning fikrlariga asoslangan hamkorlikdagi takliflarni ilgari surishi mumkin. Shuningdek, ular xavfsizlik masalalariga e'tiborni tortishlari, ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlarga OAV erkinligi prinsiplariga mos keladigan chora-tadbirlarni taklif etishi mumkin.

OAVning o'zini o'zi boshqarish organlari vaziflariga, masalan, nomlanishidan qat'iy nazar, jurnalistlarga ularning roli, huquq va majburiyatlari hamda maqbul ish uslublari borasida tavsiyalar beradigan asosiy qo'llanma vazifasini o'taydigan axloq kodeksini ishlab chiqish va tadbqiq etish ham kiradi. Axloq kodeksida gender masalalari ham inobatga olinishi va ayol jurnalistlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi kerak.

Yuqorida ko'rib chiqilganidek, ayollarning ishdagi xavfsizligi hamkasblari va rahbariyatga ham bog'liq bo'ladi. OAV o'zini o'zi boshqarishining kuchli tuzilmasi nafaqat axloq kodeksini ishlab chiqishni, balki uning amalga oshirilishini nazorat qiladigan organ, shuningdek kodeksni buzgan shaxslar uchun jazo shakllari mavjud bo'lishini ham nazarda tutadi.<sup>17</sup> Органы саморегулирования СМИ могут гарантировать, что коллективные заключения о стандартах и рекомендуемых методах, используемые журналистами в данном географическом регионе, будут содержать и передовые методы борьбы с преследованием и злоупотреблениями на гендерной почве в Интернете.

СМИ содействуют саморегулированию, внедряя коллективные внутренние нормы и стандарты, а также поддерживая связь с общественностью, например, публикуя сообщения о допущенных ошибках, открыто распространяя информацию о своей работе и позиции редакции, а также учреждая пост омбудсмена в своей организации. Функции такого омбудсмена варьируются в зависимости от СМИ, но обычно он или она действует как посредник между персоналом СМИ, способствуя диалогу между двумя сторонами.

Средства массовой информации, содействующие созданию независимой системы саморегулирования, могут уделять больше внимания вопросам, влияющим на безопасность женщин. К примеру, они могут анализировать, как осуществляется мониторинг случаев гендерного насилия в целом и преследования и злоупотреблений на гендерной почве в Интернете в частности, и что предпринимается для смягчения их последствий.

## Misollar

**Gender kamsitish uchun jazolanmaslikka qarshi birgalikdagi kampaniya:** rossiyalik jurnalist ayol Federasiya Kengashi (Rossiya parlamentining yuqori palatasi) deputatining jinsiy tegajog'liklari haqida shikoyat qilganidan keyin ommaviy kamsitishga uchragan. OAV assotsiatsiyalari va kasaba uyushmasi taqrizchilar va chetdan kuzatuvchilar bo'lib turishiga barham berish uchun o'z harakatlarini birlashtirishdi.<sup>18</sup>

**Shikoyatlarni taqdim etishning sektorlararo mexanizmlaridan foydalanish:** Finlyandiyada ayol jurnalistlarning Internetda ta'qib qilinishi ortidan parlament ombudsmeni ofisi va ommaviy axborot vositalari bo'yicha Kengashga shikoyatlar kelib tushgan.<sup>19</sup>

**Media sanoatining o'zi tomonidan o'rnatiladigan media sanoati standarti:** Axloqiy jurnalistika tarmog'i OAV axloqi standartlarining ishonchli manbasi hisoblanadi. Butun dunyodagi jurnalistlar, muharrirlar, OAV egalari va qo'llab-quvvatlash guruhlarining 70 dan ortiq guruhini birlashtirgan ushbu koalisiya Saving «Yangiliklarni qutqarish» nomli ma'ruzani e'lon qildi, unda ayol jurnalistlarga nisbatan, shu jumladan Internetdagi gender asosidagi zo'ravonlik masalasi ko'rib chiqilgan.<sup>20</sup>

**OAV uchun axloq standartlarini belgilash:** 1916 yilda Shvesiyadagi ommaviy axborot vositalari egalari va jurnalistlar assosiasiyalari tarmoq doirasida o'zini o'zi batafsil tahlil qilish maqsadida OAV axloqi bo'yicha Kengashni ta'sis etishdi.<sup>21</sup> Kengash va uning qoshidagi OAV bo'yicha ombudsmen o'z e'tiborini tortgan, kamsitish mavzusi bilan bog'liq bo'lgan axborot materiallarini, shu jumladan, xofin-qizlarning erkaklar tomonidan tegajog'liq qilinish holatlari haqidagi ayblovlarini ajratib oladi. Shundan so'ng Kengash OAV uchun axloq prinsiplarini

aniq belgilab va asoslab beradigan qaror qabul qiladi va shu orqali kelgusida shu kabi ishlar yuzasidan sub'ektiv fikrlar yuritilishi extimolini kamaytiradi.

**Media tashkilotlarni faol mustahkamlash:** OAV kengashlari va uyushmalari tarmoqlari raqamli texnologiyalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi va yangi kengashlarga media savodxonlikni oshirish bo'yicha tadbirlar o'tkazishda, shikoyatlarni taqdim etish va ko'rib chiqish mexanizmlarini yaratishda, axloq bo'yicha me'yoriy hujjatlarni va qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda ko'maklashadi.<sup>22</sup> Internetdagi jinoyatchilarning qurboniga aylangan ayololarga faol yordam ko'rsatgan kengashlar umumiy tarmoq doirasida o'z tajribalarini boshqa kengashlar bilan o'rtoqlashishi mumkin bo'ladi.

**O'zini o'zi boshqarish tizimi vakillarini o'qitish:** mas'uliyat sohasi turlicha bo'lgan turli shakldagi tashkilotlarga mansub o'zini o'zi boshqarish tizimi a'zolarida ko'p hollarda muntazam uchrashuvlar va tajriba almashish uchun platformalar mavjud bo'lmaydi. Shvesiya tomonidan moliyalashtirilgan xalqaro o'quv dasturida asosiy e'tibor ishtirokchilar OAVga nisbatan siyosatni ishlab chiqish haqida bilib olishlariga, bunga parallel ravishda esa ham erkaklar, ham ayollar duch kelishi mumkin bo'lgan muhim tahdidlar haqida fikr almashishlariga, shuningdek jurnalistlarning xavfsizligini oshirish uchun muloqot tartibini o'rnatishlariga qaratilgan edi.<sup>23</sup>

## Manbalar

- Matbuot bo'yicha Evropa mustaqil kengashlarning Alyansi (AIPCE) [raqamli texnologiyalar davrida o'zini o'zi boshqarish organlarining roli to'g'risida hisobotni](#) e'lon qildi.<sup>24</sup>
- EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha vakili o'zini o'zi boshqarishning roli haqida ikkita rahbariy qo'llanmani chop etdi: [OAVning o'zini o'zi boshqarishi bo'yicha rahbariy qo'llanma](#) va [Tarmoq OAVning o'zini o'zi boshqarishi bo'yicha Yo'l ko'rsatkich](#).<sup>25</sup>
- Evropa Kengashi o'zining 2013 yilgi gender tengligi to'g'risidagi Rezolyusiya bo'yicha tahlilshiy hisobotida Ishtirokchi davlatlar o'zini o'zi boshqarish organlarining gender tengligi bo'yicha ilg'or tajribalari namunalari keltirib o'tgan va mazkur yunalishda Kengash tavsiyalarining bajarilishini tahlil qilgan.<sup>26</sup>





[co.uk/news/gender-on-the-agenda-for-the-future-of-ethical-journalism-not-just-for-women/s2/a737953/](https://www.co.uk/news/gender-on-the-agenda-for-the-future-of-ethical-journalism-not-just-for-women/s2/a737953/).

**21** Swedish Media Ombudsman, <https://medieombudsmannen.se/>. About the Media Ombudsman, <https://www.presscouncils.eu/members-sweden>.

**22** Alliance of Independent Press Councils of Europe and European Federation of Journalists, "Media Councils in the Digital Age", <https://www.presscouncils.eu/Media-Councils-in-the-Digital-Age> and <https://europeanjournalists.org/media-councils-in-the-digital-age/>.

The Media Self-Regulatory Organizations Network (Armenia, Azerbaijan, Belarus, Georgia, Moldova, Ukraine and Russia), <https://www.mediacouncils.org/about-us/>.

**23** NIRAS, "Media Development in a Democratic Framework", 2020, <https://www.niras.com/development-consulting/international-training-programmes/media-development-in-a-democratic-framework/>. "Media regulation in a democratic framework: Eastern Europe" (in Russian), Sida, International Training Programmes, 2020: <https://itp.sida.se/itp/Programcatalog.nsf/0/1C73DB9D0D9257B-6C125839300475B4B?opendocument>.

**24** Raymond A. Harder and Pieter Knapen, Media Councils in the Digital Age: An inquiry into the practices of media self-regulatory bodies in the media landscape today, University of Antwerpen, <https://www.presscouncils.eu/userfiles/files/Media%20Councils%20in%20the%20Digital%20Age.pdf>.

**25** OSCE RfOM, "The Media Self-Regulation Guidebook", 2008, <https://www.osce.org/fom/31497>; OSCE RfOM, The Online Media Self-Regulation Guidebook. 2013, <https://www.osce.org/files/f/documents/d/b/99560.pdf>.

**26** Council of Europe, Committee of Ministers, "Draft analytical report on the follow-up on the implementation of Recommendation CM/Rec(2013) 1 of the Committee of Ministers of the Council of Europe on gender equality and media", GEC(2019) 10, CDMSI (2019)04, 8 November 2019, <https://rm.coe.int/gec-2019-10-cdmsi-gec-analytical-report-cm-gender-equality-and-media/168098bce5>.



# FUQAROLIK JAMIYATI TASHKILOTLARI VA TA'LIM MUASSASALARI

---

## Tavsiya etilgan chora-tadbirlar

---

1. Ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, shuningdek, asosiy ishtirokchilar va butun jamiyatning Internetdagi ta'qib va gender asosidagi zo'rvonlik haqida bilim va xabardorlik darajasini oshirish;
2. Milliy miqyosda mehnat xavfsizligi standartlarini joriy etish va ish joyida jurnalist ayollar uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirish;
3. Jurnalist ayollar xavfsizligi bo'yicha kompleks o'quv va o'quv materiallarini ishlab chiqish;
4. Xavfsizlik va gender tengligi masalalarini jurnalistik ta'lim muassasalari faoliyatiga kiritish.

## **9. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ta'lim muassasalari**

### **Mobilizatsiya, tadqiqot va ilg'or tajriba almashish**

Mazkur bobda Internetda ayol jurnalistlarning ta'qib qilinishiga va ularga nisbatan suiiste'molchiliklarga qarshi kurash borasida faollar, yo'riqchilar, o'qituvchilar va olimlarning hamkorligi masalalari ko'rib chiqiladi.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari (FJT) – jumladan, so'z erkinligi, matbuot erkinligi, OAVni rivojlantirish va xotin-qizlar huquqlari himoyasi bilan shug'ullanuvchi nohukumat tashkilotlari jurnalistlarga – tajovuzlarga va jazodan qochib qutilishga qarshi turishdan tortib, himoyaning amaliy uslublariga o'rgatishgacha bo'lgan turli ko'rinishdagi yordamni ko'rsatishadi. So'nggi yillarda fuqarolik jamiyati tashkilotlari Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan bo'layotgan ta'qiblar va ularga nisbatan suiiste'molchiliklar haqida tez-tez xabar berishmoqda yoki ana shunday xabarlarga o'z munosabatlarini bildirishmoqda.

Bo'lg'usi va bugungi kunda faoliyat olib borayotgan jurnalistlar hamda OAV rahbarlarini tayyorlovchi universitetlar va boshqa o'quv yurtlari jurnalistlar xavfsizligi va gender tengligi masalalariga oid ma'lumotlardan xabardor qilish va bilimlarni tarqatishda ko'makchi bo'lishlari mumkin. Ular, shuningdek, jurnalistlar himoyasiga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha jamoatchilik munozaralarining tashkilotchilari bo'lishlari ham mumkin. Bundan tashqari, universitetlar Internetda ayol jurnalistlarni ta'qib qilishlar va ular nisbatan suiiste'molchiliklar muammosini yaxshiroq anglab etishga yordam beradigan tadqiqotlarni olib borishlari ham mumkin.

### **EXHT Vazirlar Kengashining 3/18-sonli qarorida**

EXHTga a'zo 57 davlat «inson huquqlarining barcha ko'rinish va shakldagi buzilishlaridan va jurnalistlar xavfsizligiga tahdid soladigan, jumladan o'ldirish, qiynash, zo'rvonlik bilan o'g'irlab ketish, ochiqchasiga hibsga olish, ochiqchasiga ushlab turish va ochiqchasiga mamlakatdan chiqarib yuborish, har qanday shakldagi xususan, ular olib borayotgan faoliyatni cheklashga qaratilgan jismoniy, yuridik, siyosiy, texnologik yoki iqtisodiy qo'rqitish, ta'qib va tahdidlardan iborat noqnonuniy xatti-harakatlar»dan chuqur tashvishda ekanliklarini bayon etishdi.

- › **Internetdagi gender asosidagi ta'qiblar va suiiste'molchiliklar haqidagi ma'lumotlar hajmining ko'payishi, shuningdek jamiyatning muhim sub'ektlari va butun jamiyatning bu boradagi bilim va xabardorligini oshirish**

Muammoni hal qilish yo'lidagi birinchi qadam u haqda to'liq tasavvurga ega bo'lish hisoblanadi. Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlarining tizimli monitoringini olib borish murakkab vazifa bo'lishi mumkin. Bunday ta'qib holatlari hamda ular amalga oshiriladigan usullar va kanallar turli-tumandir.<sup>1</sup> Shu bilan birga, o'rganishlardan ma'lum bo'lishicha, gender asosidagi tajovuzlar haqidagi ma'lumotlar ko'p hollarda ijtimoiy va kasbiy stigma, shuningdek shunday tajovuzlar oqibatidagi jarohatlar ehtimoli sababli kamaytirib ko'rsatilar ekan. Jurnalistlarga tajovuz holatlarini kuzatib boruvchi va bu haqda ma'lumotlar taqdim etuvchi aksariyat fuqarolik jamiyati guruhlari kasbiy assosiasiyalar, uyushmalar, ommaviy axborot vositalari Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ta'lim muassasalari. Safarbarlik, tadqiqotlar va ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish ilmiy doiralar va Internetdagi

ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini hujjatlashtirish bilan shug'ullanadigan davlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishlari mumkin. Bularning barchasi bazaviy axborotni jinsga qarab ajratgan holda va tajovuzga sabab bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlar kabi interseksion omillar va o'ziga xosliklarni kuzatib borishni nazarda tutuvchi gender omillarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Gender omillarini hisobga olgan holda hujjatlashtirish nafaqat «nimani» kuzatib borishga, balki «qanday» kuzatib borishga ham taalluqli bo'ladi. O'rganishlar nafaqat ma'lumotlarni yig'ishga, balki ayol jurnalistlarni ushbu jarayonga keng jalb etishga ham qaratilgan bo'lishi zarur. Masalan, butun jarayon davomida Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar aniq bir insonning shaxsiy muammosi bo'lmay, balki butun jurnalistikaga qaratilgan keng ko'lamli tahdidlarning bir qismi ekanini yodda tutish kerak.

Bu esa jamiyatning Internetdagi genderga asoslangan ta'qiblar muammosi haqidagi xabardorligini oshirish uchun sezilarli va muvofiqlashtirilgan harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Ushbu mavzudagi tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshganiga qaramay, ularda mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda turli mavzular va mamlakatlarni qamrab oluvchi qo'shimcha hisobotlar tayyorlash talab etiladi. Bugungi kunda etarlicha foydalanilmay qolayotgan imkoniyatlardan biri esa tadqiqotlar va monitoring bilan band bo'lgan akademik muassasalar va ko'plab fuqarolik jamiyati tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikdir. O'rganish va tadqiqotlarning «qanday» o'tkazilish ham juda muhim – har qanday tadqiqotlar ayol jurnalistlarni jalb qilgan holda olib borishishi, ularning fikrlarini, nuqtai nazarlarini va qarashlarini aks ettirishi hamda amaliyotchi mutaxassislar ularning natijalaridan Internetda ayol jurnalistlar xavfsizligini oshirish uchun foydalana oladigan tarzda tuzilishi va bayon etilishi zarur.

Fuqarolik jamiyati tashkilotlari tadqiqot va o'rganishlarda to'g'ridan to'g'ri ishtirok etish yoki etmasliklaridan qat'iy nazar, ularning ko'pchiligi siyosatchilar, media hamjamiyati va butun jamiyatni xabardor va safarbar qilishda muhim o'rin tutadi. Bu Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi kurash uchun keng ko'lamli jamoaviy safarbarlikda katta yordam berishi mumkin. FJT va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi muvofiqlashtiruv harakatlarning ta'sir kuchini oshirish va ularning bir-birini takrorlashining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hamkorlik turlicha shaklda bo'lishi va turli, ya'ni: global, hududiy, milliy yoki millatlararo darajada amalga oshirilishi mumkin.

## Misollar

**Ma'lumotlarni yig'ish:** Jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi (CPJ) o'ldirilgan, qamoqxonalarda saqlanayotgan va bedarak yo'qolgan jurnalistlar haqida global [ma'lumotlar bazasini](#) yuritadi, undagi ma'lumotlar, jumladan jinsga ajratilgan holda ham beriladi.<sup>2</sup> 2019 yilda CPJ [«Tahdidlar uylarimizga kirib bormoqda»](#) deb nomlangan so'rovnomini e'lon qildi, unda Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlarida Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan bo'layotgan ta'qib va suiiste'molchilik holatlari hujjatlashtirilgan.<sup>3</sup>

**Xavfsiz va anonim xabar berishlarni ta'minlash:** axborot erkinligini himoya qilish platformasi (PDLI) Ispaniyada ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchilik holatlarini hujjatlashtirib borish va ushbu muammoga e'tiborni jalb etish uchun [Observatorio contra el acoso online a mujeres periodistas](#) onlayn platformasini yaratdi.<sup>4</sup> Internetda ta'qiblarga uchragan ayol jurnalistlar onlayn tarzda arizani to'ldirgan holda tashkilotga anonim murojaat qilishlari mumkin.



**Muammoni yaxshiroq tushunib etish va hal qilish uchun tadqiqotlar olib borish:** xotin-qizlar OAV (IWWMF) va TrollBuster tomonidan o'tkazilgan [Tajovuz va tahdidlar: ayol jurnalistlarga va ularning reportajlariga ta'siri](#), nomli tadqiqotning ko'rsatishicha, ayol jurnalistlarning deyarli uchdan ikki qismi Internetda yoki undan tashqarida qandaydir shakldagi tahdid yoki ta'qibga duch kelishgan ekan.<sup>5</sup>

"Nishondagi axborotnoma: jurnalistlar internetda ta'qiblar to'laqiniga duch kelishmoqda" nomli 2019 yildagi ma'ruza «Senzura indeksi» tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan «OAV erkinligini xaritalash» (Mapping Media Freedom) loyiha doirasida taqdim etilgan Internetdagi suiiste'molchilik holatlari haqidagi 162 ta xabar tahlili asosida Evropadagi vaziyat haqida tasavvur uyg'otadi.<sup>6</sup> Ma'ruzani tayyorlashda shuningdek Matbuot va OAV erkinligi Evropa markazi hamda Evropa jurnalistlar federatsiyasi ham ishtirok etgan.

Gen Vic va Media san'at va ko'ngilochar dasturlar Alyansi tomonidan o'tkazilgan "Izohlarni o'qimang: OAVda ishlash uchun onlayn xavfsizlikni kuchaytirish" nomli tadqiqotda Avstraliyada ayol jurnalistlarning onlayn ta'qibga uchrash holatlari o'rganilgan.<sup>7</sup>

OAV va gender masalalari bo'yicha Global alyans (GAMAG) o'zining [«Kommunikatsiya siyosati sohasida gender kun taribini belgilab olish»](#) nomli ma'ruzasida strategik hujjatlar to'plamini jamladi. Ushbu materialda ayol jurnalistlarning Internetdagi xavfsizligi haqida bo'lim mavjud.<sup>8</sup>

Evropa instituti huzuridagi OAV plyuralizmi va OAV erkinligi Markazi "OAV plyuralizmi monitoringi" ni chop etib boradi, unda Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar va a'zolikka nomzod bo'lgan ayrim davlatlarda media

ekotizimning holati va OAVerkinligi hamda jurnalistlarga tahdidlar holati hujjatlashiriladi.<sup>9</sup>

Yevropa jurnalistika observatoriyasi Yevropa universitetlari bilan hamkorlikda "Ayol jurnalistlarning Yevropa ommaviy axborot vositalaridagi o'rnini" mavzusida tadqiqot o'tkazdi.<sup>10</sup>

Fojo Media instituti, shuningdek, Armaniston, Gruzziya, Moldova, Rossiya va [Ukraina media sektorlarida bandlik va martabaning gender jihatlarini o'rgandi](#).<sup>11</sup>

**Hamkorlikdagi platformada tadqiqotlarni va ilg'or tajribalar namunalarini e'lon qilish:** «Media sanoatida gender tengligini ilgari surish» loyihasi universitetlar va jurnalistlar assosiasiyalari hamkorligida amalga oshirilib, ular birgalikda Evropa OAVda gender tengligiga oid turli masalalar bo'yicha tadqiqotlar natijalarini va ilg'or tajribalar namunalarini to'plashadi.<sup>12</sup>

**Tahlil va xabardorlikni oshirish:** «Chegara bilmas reportyorlar» tashkiloti o'zining [«Internetda jurnalistlarni ta'qib qilish – trollar hujumi»](#) nomli ma'ruzasida ChBR tarmog'iga a'zo jurnalistlarga qilingan onlayn hujumlar, jumladan ayol jurnalistlarning ta'qib qilinishiga oid aniq holatlarni tahlil qilgan.<sup>13</sup>

## Manbalar

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarligining nashri Genderni inson huquqlari monitoringiga

integratsiya qilish inson huquqlari buzilishini gender nuqtai nazaridan qanday monitoring qilish bo'yicha ko'rsatmalar beradi.<sup>14</sup>

- Ayollar huquqlari koalitsiyasining Ayollar huquqlari uchun xalqaro koalitsiyasi, gender hujjatlari: Ayollar himoyachilari uchun va to'g'risida qo'llanma WHRDlarga qarshi hujumlarni hujjatlashtirishda gender nuqtai nazarini qanday asosiy oqimga aylantirish bo'yicha foydali ko'rsatmalar beradi.<sup>15</sup>

### › **Milliy darajada mehnat xavfsizligi standartlarini joriy etish hamda ayol jurnalistlarga ish joyida zarur shart-sharoitlarni yaratib berish maqsadida harakatlarni birlashtirish**

Jurnalistlarning xavfsizligi haqida gap borar ekan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarning hamda davlatlar o'z zimmasiga olgan boshqa xalqaro majburiyatlarning milliy darajada bajarilishi muhim o'rin tutadi. Ayrim olingan tashkilotlarning davlatni mas'uliyatli bo'lishga chaqirish borasidagi imkoniyati cheklangan bo'lsa, ko'plab tashkilotlarning birgalikdagi intilishlari juda samarali bo'lishi mumkin. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari, jurnalistika fakultetlari va media sektoriga ta'sir ko'rsatishga intiladigan boshqa tashkilotlar davlatlar tomonidan Internetda va undan tashqarida ayol jurnalistlarni himoya qilish borasidagi majburiyatlarini bajarishlarini ta'minlovchi kelishilgan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun imkoniyatlarni izlab topishlari zarur.

Ayol jurnalistlarning xavfsizligi xalqaro darajada ustuvorlik kasb etishi uchun fuqarolik jamiyati o'zining xalqaro va hududiy davlatlararo tashkilotlardagi ishtirokini kuchaytirishi mumkin (5-bobga ham qarang). Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va boshqa birlashmalar Internetda ayol jurnalistlarga qarshi ta'qib va suiiste'molchilik holatlariga qarshi kurash borasidagi o'z xatti-harakatlarini samaraliroq muvofiqlashtirgan holda BMT mexanizmlari hamda h\u00f4quq himoyasiga qaratilgan hududiy mexanizmlardan samaraliroq foydalanishlari mumkin. Masalan, BMTning inson huquqlari bo'yicha Kengashining maxsus amaliyotlariga xabarlarini, universal davriy tahlillarni tuzib chiqish, shuningdek EXHTning OAV erkinligi masalalari bo'yicha Vakiliga murojaatlar hamkorlikning qulay imkoniyatlari bo'lishi mumkin.

Xalqaro miqyosdagi faoliyatda faol ishtirok etish, shuningdek davlatlar tomonidan o'zlarining xalqaro majburiyatlariga rioya etilishini nazorat qilish va bu haqda xabar berib turish uchun ma'lum bir maxsus bilimlar talab etiladi. Ana shunday tajriba va bilimlarga ega bo'lgan fuqarolik jamiyatining xalqaro va milliy tashkilotlari Internetda gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchilik holatlari muammosi bo'yicha xalqaro standartlari va jihatlarini qamrab olgan ta'limiy seminarlar o'tkazishlari yoki ularni o'tkazishda yordam berishlari mumkin.

## Misollar

**Gender va xavfsizlik masalalari bo'yicha ishchi guruhlarini tashkil etish:** Global Media Development Forum - rivojlanish guruhlari tarmog'i, [ACOS Alyansi](#) – OAV va shtatsiz jurnalistlarning xavfsizligiga yordam beruvchi, matbuot erkinligini himoch qiluvchi guruhlar koalitsiyasi gender masalalari bo'yicha ishchi guruhlarini tashkil etishgan. FJTning xalqaro

koalitsiyasi – 26 ta tashkilotdan iborat tarmoq bo'lib, ular jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash borasidagi o'z faoliyatlarini muvofiqlashtiradilar hamda bu boradagi tashabbuslarini amalga oshirish uchun xatti-harakatlarini birlashtiradilar.<sup>16</sup>

**Harakatlarni birlashtirish va birgalikda moliyaviy ko'mak izlash:** [Media Freedom Rapid Response](#)<sup>17</sup> - - Evropa Ittifoqida so'z erkinligini himoya qilish va jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar koalitsiyasi bo'lib, xavf ostida qolgan jurnalistlarga amaliy, huquqiy va huquq himoyasi borasida yordam ko'rsatadi. Internetda ayol jurnalistlarning ta'qib qilinishi muammosi – koalitsiya faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

**Xalqaro standartlarni tushuntirish:** «Artikl 19» huquqni himoya qilish tashkiloti [«Jazosizlikning intixosi: BMTning jurnalistlar xavfsizligi sohasidagi standartlarini amlaga oshirish bo'yicha qo'llanma»](#), ni chop etdi. Uning maqsadi – inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni jurnalistlar xavfsizligiga nisbatan tushunishni osonlashtirishdan iborat.<sup>18</sup>Bundan tashqari, o'z a'zolarining davlatlararo tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmasini oshirish maqsadida media sohasidagi nodavlat nohukumat tashkilotlari butunjahon tarmog'i – IFEX o'ziga xos [«besh daqiqaliklar»](#) - jurnalistlar xavfsizligi standartlariga rioya etilishining monitoringi uchun ayrim xalqaro standartlarni qo'llash yuzasidan tushunchalar berilgan qisqacha videoroliklarni e'lon qildi.<sup>19</sup>

## Manbalar

- International Media Support kompaniyasining "Jurnalistikani himoya qilish" turkumi jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash uchun hamkorlik tuzilmalari – koalitsiyalar, hamkorlik va xavfsizlik mexanizmlari ishlayotgan mamlakatlardagi amaliyotlarni aks ettiradi. Ushbu turkumdagi reportajlardan biri jurnalist ayollarga bag'ishlangan.<sup>20</sup>

### » **Ayol jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha o'quv va ta'limiy materiallar jamlanmasini ishlab chiqish**

Jurnalistlar bilan yaqin bo'lgan va onlayn jarayonlarni aniqlash tajribasiga ega bo'lgan tashkilotlar jurnalistlarni xavfsizlik masalalariga o'rgatishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari tarmoqda tajovuzga uchrayotgan ayol jurnalistlarning himoyasini kuchaytirishga yordam beradigan o'quv va ta'limiy materiallarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Internetdagi ta'qiblar va suiiste'molchiliklarning xarakter xususiyatidan kelib chiqib, bunday ta'lim raqamli xavfsizlikdan tashqari, yuridik huquqlar va ruhiy-ijtimoiy extiyojlar kabi turli jihatlarini qamrab olgan kompleks yondoshuvni talab etadi. Ayol jurnalistlarni Internetdagi ayollarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi qanday kurashishga o'rgatish, xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirib, ularga o'z kasbiy faoliyatlarini davom ettirish va o'z fikrlarini erkin bayon etish imkonini berishi zarur.

O'z huquqlarini bilish. Ular nimalardan iboratligini va qachon buzilayotganini tushinishni nazarda tutadi.

Huquqiy qo'llab-quvvatlovga extiyoji bo'lgan ayol jurnalistlarga samaraliroq yordam ko'rsatish uchun tashkilotlar o'z faoliyatlarini advokatlar assosiasiyalari bilan hamkorlik orqali kuchaytirishlari mumkin. Jurnalistlarni tayyorlash markazlari hamda huquq sohasi ekspertlari bilan hamkorlik qilish orqali, so'z erkinligini himoya qilish bilan shug'ullanayotgan guruhlar OAVda faoliyat olib borayotgan xodimlar va bo'lg'usi jurnalistlarning Internetdagi gender asosidagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi tura olish qobiliyatlarini mustahkamlashga ham hissa qo'shishlari mumkin.

## Misollar

**Videodarslar:** Matbuot xalqaro instituti (MXI) ayol jurnalistlar uchun Internetdagi ta'qiblarga qarshi kurashning yuridik va psixologik usullari haqidagi [videodarslarni](#) yaratdi.<sup>21</sup>

**Joylarda ish olib bori sh uchun qo'llanma:** [PEN Americaning yozuvchi va jurnalistlarning Internetda ta'qib qilinishiga qarshi kurash bo'yicha Qo'llanmasida](#) bir qancha amaliy tavsiya va maslahatlar jamlangan bo'lib, ular xotin-qizlarga ham qo'l keladi.<sup>22</sup>

**Ruhiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash:** «Dart» jurnalistika va jarohatlar Markazi ruhiy jarohat olgan yoki shunday extimol bo'lgan jurnalistlar uchun manbalarni tavsiya etadi. O'zining [«O'zingizni kiber nafrat va trollardan himoya qilishning besh usuli»](#) nomli blogida Markaz Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning ruhiy-ijtimoiy ta'siridan himoyalani sh usullarini yoritib bergan.<sup>23</sup>

**Internetda xavfsizlikni himoya qilish usullariga o'rgatish:** Free Press Unlimited raqamli xavfsizlik kurslari uchun Totem onlayn platformasini yaratdi.<sup>24</sup> U IWMF tomonidan ishlab chiqilgan va jurnalistlarni Internetdagi suiiste'molchiliklarni va ularning ortida turganlarni aniqlashga o'rgatadigan, shuningdek Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi kurashga tayyorlashning ayrim muhim strategiyalarini tavsiya etadigan [Know Your Trolls \(«O'z trollaringni bil»\)](#) dasturini o'z ichiga olgan.

Tactical Tech tomonidan Germaniyada ishlab chiqilgan [Gendersec Curricula](#), o'quv dasturi 20 dan ortiq mavzuni, shuningdek jurnalistlar uchun dolzarb bo'lgan «adovat tili»ga qarshi kurash; qarshilik ko'rsatish strategiyalari; ijtimoiy tarmoqlardan ijodiy foydalanish; texnologik suverenitet; tashvishni engish uslublari; jismoniy bosimdan qutilish; axborotni aks ettirish va xatarlarni aniqlash kabilarni qamrab olgan o'ziga xos manbadir.<sup>25</sup>

«Jurnalistlar uchun adolat» fondi tomonidan tashkil etilgan Orxan Jemal nomidagi media xavfsizlik Akademiyasi jurnalistlar xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan rus tilidagi onlayn kurslarni taklif etadi.<sup>26</sup>

Bir qancha fuqarolik jamiyati tashkilotlari jurnalistlar uchun himoya masalalariga bag'ishlangan o'quv kurslarini tashkil qilishadi, ular ayrim hollarda o'z ichiga kuchli gender masalasini va Internetdagi ta'qiblarga qarshi kurashish masalalarini ham qamrab olgan bo'ladi. Jurnalistik surishtiruvlar global tarmog'i o'zining [veb-sahifasi](#)da ana shunday kurslar ro'yxatini e'lon qilib boradi.<sup>27</sup>

**O'quv qo'llanmalari va yo'riqchilarni qo'llab-quvvatlash:** Shilqimliklarga qarshi kurash bo'yicha o'qitishga ixtisoslashgan Hollaback guruhi bir qancha [o'quv qo'llanmalari](#) ni chop etgan. U, shuningdek,



koordiniruet inisiativu [Heart Mobning](#) kollegial qo'llab-quvvatlash tashabbusini ilgari surishni muvofiqlashtirib boradi.<sup>28</sup>

TrollBusters «[Sizni Internetda haqorat qilishadimi?](#)» nomli ifografikani yaratdi, unda xotin-qizlar Internetda o'zlari duch kelgan hujumlarning xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirishlari mumkin bo'lgan xatti-harakatlar batafsil bayon etilgan.<sup>29</sup>

### › **Jurnalistlarni tayyorlovchi ta'lim muassasalari faoliyatiga xavfsizlik va gender tengligi masalalarini kiritish**

Jurnalistlarni tayyorlovchi ta'lim muassasalari va uzluksiz ta'lim markazlari talabalarga xavfsizlik, jumladan Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklardan himoyalaniş masalalarini o'rgatishda muhim o'rin tutishi mumkin. Shuningdek, uzluksiz ta'lim markazlari amaliyotchi mutaxassislarining yangi texnologiyalar, jumladan Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklarning ta'siri haqidagi bilimlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

OAVning roli haqidagi ommaviy munozaralar va ilg'on uslublarni qo'llashga ko'maklashish maqsadida xavfsizlik va gender mavzularida maxsus praktikumlar va seminarlar tashkil etish mumkin. Talabalarning bunday bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish uchun jurnalistlar tashkilotlari va ta'lim muassasalari xavfsizlik, shu jumladan, ayol jurnalistlar xavfsizligi sohasida zamonaviy yondoshuv va amaliy tajribalarni o'z faoliyatida qo'llab kelayotgan fuqarolik jamiyati tashkilotlari, alohida jurnalistlar va muhim sub'ektlar bilan hamkorlik qilishlari mumkin.

Bilimlar saviyasini oshirish Internetda ayol jurnalistlarga nisbatan ta'qib va suiiste'molchiliklarga qarshi kurashning optimal usullarini tushunib etish uchun

muhim ahamiyat kas etadi. Jurnalistlarning ta'lim muassasalari o'zlarining tadqiqotchilik vazifasini bajara borib, mazkur yo'nalishdagi akademik tadqiqotlarni kengaytirishlari, shuningdek ilmiy konferensiyalar va tadbirlar tashkil qilishlari mumkin.

Akademik muassasalar va amaliyotchi mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik ham tadqiqotlarni sezilarli darajada boyitishga xizmat qilishi BMTning jurnalistlar xavfsizligi va jazosizlik muammosi bo'yicha 2017 yil uchun harakatlar Rejasining bajarilishi natijalariga bag'ishlangan yig'ilishida ta'kidlab o'tildi.<sup>30</sup>

## Misollar

**Jurnalistlar xavfsizligi masalasini ta'lim dasturiga kiritish:** Jurnalistlar xalqaro federatsiyasi va Livan oliy ta'lim bosh boshqarmasi Jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha kursni e'lon qildi.<sup>31</sup> YUNESKO ham jurnalistika ta'limi bo'yicha namunaviy o'quv dasturini – yangi o'quv dasturlari to'plamini chop etdi.<sup>32</sup> Ozarbayjondagi Boku davlat universiteti jurnalistika fakultetida gender tengligi va OAV erkinligi bo'yicha o'quv dasturi ishlab chiqilgan.<sup>33</sup>

**Maxsus ta'limni tashkil qilish:** Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Texas universiteti huzuridagi Nayt nomidagi jurnalistika Markazi jurnalistlar xavfsizligiga bog'liq masalalar bo'yicha onlayn o'qitishni tashkil etadi.<sup>34</sup>

**Jurnalistlar xavfsizligi masalasi bo'yicha akademik konferensiyalar tashkil qilish:** jurnalistlar xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan ikkita global akademik konferensiya mavjud. Ulardan biri Butunjahon matbuot erkinligi kuni bilan parallel ravishda har yili YUNESKO tomonidan tashkil etiladi.<sup>35</sup> Ikkinchisi, shuningdek, har yili noyabr oyida Norvegiyadagi Oslo

Metropolitan universiteti qoshidagi Xalqaro jurnalistika va ommaviy axborot vositalari markazi tomonidan tashkil etiladi.<sup>36</sup> Ushbu konferensiyaning tezislari Markazning veb-saytida mavjud.<sup>37</sup> Bundan tashqari, Xalqaro OAV va kommunikatsiya tadqiqotlari assotsiatsiyasi har yili jurnalistika tadqiqotlari va ta'lim ishchi guruhining bir qismi sifatida jurnalistlar xavfsizligi bo'yicha bo'limni o'z ichiga olgan konferensiyani o'tkazadi.<sup>38</sup>

### **Jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha akademik tadqiqotlarni**

**rivojlantirish:** keyingi yillarda jurnalistlar xavfsizligi, shu jumladan, Internetdagi ta'qid va suiiste'molchiliklar masalalariga bag'ishlangan akademik tadqiqotlar ko'lami ortib bormoqda. Masalan, 2017 yilda YUNESKOning jurnalistlar xavfsizligi masalalariga bag'ishlangan birinchi Akademik konferensiyasi yakunlari bo'yicha "Jurnalistikaga tajovuz: so'z erkinligini himoya qilish uchun bilimlarni oshirish" nomli kitob nashr etildi, unga tanlangan maqolalar kiritilgan.<sup>39</sup> YUNESKO mazkur yo'nalishdagi akademik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Jurnalist xavfsizligi masalalari bo'yicha dasturni e'lon qildi.<sup>40</sup> Erkin foydalanish mumkin bo'lgan Media and Sommunisation jurnali mavzuga bag'ishlab, "Jurnalistlar xavfsizligi masalalarini qayta anglab yetish" nomli maxsus sonini chop etdi. Unda Norvegiya va Nepalda ayol jurnalistlarga nisbatan sodir etilgan zo'ravonliklar haqida ikkita maqola berilgan.<sup>41</sup>

**Tadqiqotlar sohasida hamkorlikni kengaytirish:** Buyuk Britaniyadagi Sheffitd universiteti huzuridagi OAV erkinligi Markazi jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan tadqiqotchilar o'rtasida hamkorlik va fikr almashishni kuchaytirish maqsadida – [Journalist Safety Research Network](#) – jurnalistlar xavfsizligi masalalari bo'yicha tadqiqotlar Tarmog'ining yaratilishini qo'llab-quvvatlagan.<sup>42</sup> Tarmoqning Facebookda ishtirokchilarini birlashtirgan yopiq sahifasi mavjud.


**Jurnalistlar xavfsizligi masalalarini o'rganish uchun sharoitlar yaratish:**

2018 yilda OAV erkinligi Markazi YUNESKOning OAV erkinligi, jurnalistlar xavfsizligi va jazosizlik muammosi masalalari bo'yicha birinchi Kafedrasiga boshchilik qildi.<sup>43</sup> Shvesiyadagi Gyoteborg universiteti huzuridagi so'z erkinligi bo'yicha YUNESKO kafedrasida hamda Ispaniyadagi malaga universiteti huzuridagi kommunikasiyalar bo'yicha YUNESKO kafedrasida ham jurnalistlar xavfsizligi masalalari bilan shug'ullangan.<sup>44</sup> AQShning Pensilvaniya universiteti qoshidagi Annenberg aloqa va jurnalistika maktabi xavf ostida bo'lgan jurnalistlar haqida tadqiqot o'tkazish va ma'lumot to'plash uchun OAV xavfi markazini tashkil qildi.<sup>45</sup> Kolumbiya universitetining so'z erkinligi bo'yicha global tashabbusi jurnalistlarga hujum qilish holatlarini o'z ichiga olgan amaliyot bazasini yaratdi.<sup>46</sup>

## Havolalar

- 1 Michelle Ferrier, "Attacks and Harassment: The Impact on Female Journalists and Their Reporting", International Women's Media Foundation, TrollBusters, 2018, <https://www.iwmf.org/wp-content/uploads/2018/09/Attacks-and-Harassment.pdf>.
- 2 "1370 Journalists Killed between 1992 and 2020 / Motive Confirmed", Committee to Protect Journalists (CPJ), [https://cpj.org/data/killed/?status=Killed&motiveConfirmed%5B%5D=Confirmed&type%5B%5D=Journalist&start\\_year=1992&end\\_year=2020&group\\_by=year](https://cpj.org/data/killed/?status=Killed&motiveConfirmed%5B%5D=Confirmed&type%5B%5D=Journalist&start_year=1992&end_year=2020&group_by=year).
- 3 Lucy Westcott, "The threats follow us home': Survey details risks for female journalists in U.S., Canada", CPJ news item, 4 September 2019, <https://cpj.org/2019/09/canada-usa-female-journalist-safety-online-harassment-survey/>.
- 4 "La PDLI lanza el 'Observatorio contra el acoso online a mujeres periodistas'", Plataforma en Defensa de la Libertad de Información news item, 2 June 2018, <http://libertadinformacion.cc/la-pdli-lanza-el-observatorio-contra-el-acoso-online-a-mujeres-periodistas>.
- 5 1 ilovadagi hujjatga qarang.
- 6 Valeria Costa-Kostritsky, "Targeting the messenger - Journalists face an onslaught of online harassment", Mapping Media Freedom, 2019, <https://www.indexonensorship.org/wp-content/uploads/2019/01/index-report-online-harassment-webv3.pdf>.
- 7 "Don't read the comments: Enhancing Online Safety for Women Working in the Media", Media Entertainment and Arts Alliance, Gender Equity Victoria, 2019, [https://www.genvec.org.au/wp-content/uploads/2019/10/GV\\_MEEAA\\_PolicyDoc\\_V5\\_WEB.pdf](https://www.genvec.org.au/wp-content/uploads/2019/10/GV_MEEAA_PolicyDoc_V5_WEB.pdf).
- 8 Julie Posetti and Hannah Storm, "Violence Against Women Journalists - Online and Offline", GAMAG, 2019, <https://gamag.net/wp-content/uploads/2019/09/Chapter-7.pdf>.
- 9 European Journalism Observatory, "Where are the women journalists in Europe's media", 2018, <https://en.ejo.ch/research/where-are-all-the-women-journalists-in-europes-media>
- 10 Fojo Media Institute, "Gender aspects of employment and career in the media sector of Armenia, Georgia, Moldova, Russia and Ukraine", 2020, <https://fojo.se/wp-content/uploads/2020/08/Gender-report-2020-ENG.pdf>
- 11 "Media Pluralism Monitor", Centre for Media Pluralism and Media Freedom, <https://cmpf.eui.eu/mpm2020-results>.
- 12 Advancing Gender Equality in Media Industries (AGEMI), "A Resources Bank of good practices", <https://www.agemi-eu.org/mod/page/view.php?id=519>.
- 13 Reporters Without Borders, "Online Harassment of Journalists – Attack of the Trolls", 2018, [https://rsf.org/sites/default/files/rsf\\_report\\_on\\_online\\_harassment.pdf](https://rsf.org/sites/default/files/rsf_report_on_online_harassment.pdf).
- 14 UN Human Rights, "Integrating Gender into Human Rights Monitoring", <https://www.ohchr.org/Documents/Publications/Chapter15-20pp.pdf>.
- 15 Cynthia Rothschild, "Gendering Documentation: A Manual For and About Women Human Rights Defenders", Women Human Rights Defenders International Coalition, 2015, [http://www.ishr.ch/sites/default/files/documents/whrd\\_ic\\_gendering\\_documentation\\_manual\\_1\\_1.pdf](http://www.ishr.ch/sites/default/files/documents/whrd_ic_gendering_documentation_manual_1_1.pdf).
- 16 The informal network can be reached via the address [sojcoalition@lists.riseup.net](mailto:sojcoalition@lists.riseup.net).
- 17 Media Freedom Rapid Response, <https://www.mfrr.eu>.
- 18 Ending impunity: Guide to acting on UN standards on the safety of journalists, ARTICLE 19 news item, 2 November 2019, <https://www.article19.org/resources/ending-impunity-guide-to-acting-on-standards-on-safety-of-journalists/>.
- 19 IFEX 5-minute Explainers, <https://ifex.org/resources/5-minute-explainers/>.
- 20 International Media Support (IMS), "The safety of women journalists: Breaking the cycle of silence and violence", IMS Defending Journalism book series, October 2019, <https://www.mediasupport.org/publication/the-safety-of-women-journalists/>.

- 21 "Tutorials", Ontheline Newsrooms, <https://newsrooms-ontheline.ipi.media/tutorials/>.
- 22 "Online Harassment Field Manual", PEN America, <https://onlineharassmentfieldmanual.pen.org>.
- 23 Ginger Gorman, "Five Ways to Protect Yourself Against Cyberhate and Trolls", Dart Center for Journalism and Trauma news item, 26 June 2017, <https://dartcenter.org/resources/five-ways-protect-yourself-against-cyberhate-and-trolls>.
- 24 Totem project, <https://totem-project.org/>
- 25 Gendersec, <https://gendersec.tacticaltech.org>
- 26 Orkhan Dzhehal Media Safety Academy, <https://ifj.academy>
- 27 "Safety and Security", Global Investigative Journalism Network, <https://gijn.org/safety-and-security-organizations/>
- 28 Heart Mobinitiative, "Hollaback!", <https://www.ihollaback.org/>
- 29 Online Pest Control for Journalists, "What to Do? Where to Go? Infographic", TrollBusters, <https://yoursosteam.wordpress.com/what-to-do-infographic/>.
- 30 UNESCO, "Strengthening the Implementation of the UN Plan of Action on the Safety of Journalists and the Issue of Impunity", 2017, <https://www.ohchr.org/Documents/Issues/Journalists/OutcomeDocument.pdf>
- 31 Michael Foley, Clare Arthurs, Magda Abu-Fadil, "Model course on safety of journalists: a guide for journalism teachers in the Arab States", 2017, <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000248297>
- 32 UNESCO, "Model Curricula for Journalism Education – a Compendium of New Syllabi", 2013, <https://bit.ly/3hMUU3>
- 33 "Baku State University Journalism Faculty approves curriculum on gender equality and media", Council of Europe, 1 April 2019, <https://bit.ly/2ZXMitl>.
- 34 Knight Center for Journalism at the University of Texas, <https://knightcenter.utexas.edu/>.
- 35 "World Press Freedom Day Conference 2020" website, UNESCO, <https://en.unesco.org/com-memorations/worldpressfreedomday>.
- 36 Journalism and Media International Center, Oslo Metropolitan University, <https://uni.oslomet.no/jmic/>
- 37 "Book of Abstracts 2019", MEKK, Oslo Metropolitan University, <https://blogg.hioa.no/mekk/conferences/safety-of-journalists-digital-safety-2019/book-of-abstracts-2019-conference/>.
- 38 International Association of Media and Communication Research, IAMCR, <https://iamcr.org/>.
- 39 Ulla Carlsson and Reeta Pöyhtäri, "The Assault on Journalism: Building knowledge to protect freedom of expression", Nordicom, 2017, <https://www.nordicom.gu.se/en/publikationer/assault-journalism>.
- 40 UNESCO, Research Agenda on the Safety of Journalists, 2015, [https://en.unesco.org/sites/default/files/draft\\_research\\_agenda\\_safety\\_of\\_journalists\\_06\\_2015.pdf](https://en.unesco.org/sites/default/files/draft_research_agenda_safety_of_journalists_06_2015.pdf).
- 41 Kristin Skare Orgeret and William Tayeebwa, "Rethinking Safety of Journalists, In Media and Communication", Open Access Journal, Volume 8, Issue 1 (2020), <https://www.cogitatiopress.com/mediaand-communication/issue/viewissue/161/PDF161>
- 42 "Journalism Safety Research Network", Centre for Freedom of the Media - University of Sheffield, <http://www.cfof.org.uk/our-networks/journalism-safety-research-network/>
- 43 "UNESCO Chair on Media Freedom, Journalism Safety and the Issue of Impunity", CFOM, University of Sheffield, <http://www.cfof.org.uk/about/unesco-chair-on-media-freedom-journalism-safety-and-the-issue-of-impunity/>.
- 44 For example, the UNESCO Chair on Freedom of Expression at the University of Gothenburg organized, in co-operation with UNESCO, a conference on the safety of journalists in 2016: [https://img.gu.se/english/current/news/Nyhets\\_detalj//safety-of-journalists-international-research-conference-paved-the-way-for-academic-research-cooperation.cid1373726](https://img.gu.se/english/current/news/Nyhets_detalj//safety-of-journalists-international-research-conference-paved-the-way-for-academic-research-cooperation.cid1373726).
- 45 Center for Media @Risk, Annenberg School for Communication, University of Pennsylvania, <https://www.ascmediarisk.org/>.
- 46 Global Freedom of Expression Case Law Database, Columbia University, <https://globalfreedomof-expression.columbia.edu/>



# Jurnalistlar va OAV xodimlari

---

## Tavsiya qilinadigan chora- tadbirlar

---

1. Ayol jurnalistlar uchun xatarlar landshaftini monitoring qilish va baholash;
2. Xavfsizlikka, jismoniy, huquqiy, psixologik va raqamli xavfsizlikni ham nazarda tutgan holda kompleks yondoshuvdan foydalanish;
3. Xatarlar va tajovuzlarni hujjatlashtirish va ular haqida xabar berish;
4. Internetda suiiste'molchilik va ta'qiblarga duch kelayotgan hamkasblarni hamda ana shunday xatarga moyil jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash;
5. Qo'llab-quvvatlovning qulay shakllari, jumladan huquqiy mexanizmlari haqida ma'lumot olish.



## **10. Jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari**

### **Birinchi galdagi vazifa - o'zini o'zi himoya qilish va hamkasblarni qo'llab-quvvatlash**

Jurnalistlar faoliyati juda ko'p xatarlar bilan bog'liq bo'ladi, ammo ayol jurnalistlar aynan ayol bo'lganliklari uchun ham qo'shimcha xavflar bilan to'qnash kelishadi. Internetdagi ta'qib va suiiste'molchiliklar erkaklardan ko'ra ayollar ko'proq to'qnash keladigan tajovuzlarga yorqin misol bo'la oladi.<sup>1</sup> Internetda tajovuzlarga duch keladigan ayol jurnalistlar kompleks yechimlarni belgilab olish va amalga oshirishda muhim rol o'ynashadi. Bunday yondoshuv [YXHT vazirlar Kengashining "Jurnalistlar xavfsizligi" nomli № 3/18-sonli qarorida](#) o'z aksini topgan bo'lib, unda YXHTga a'zo davlatlar xavfsizlik konsepsiyasi nafaqat jismoniy zararining mavjud bo'lmasligini, balki zarur mehnat sharoitlari bo'lishini, shuningdek psixologik, huquqiy va raqamli xavfsizlikni ham nazarda tutishini tan olishgan.<sup>2</sup> Yuqoridagi bo'limlarda ko'rib o'tganimizdek, ayol jurnalistlarning xavfsizligini ta'minlash borasida davlat va nodavlat sub'ektlarining o'z majburiyatlari bo'lgani holda, ayol jurnalistlarning o'zlari tajovuzlarning oldini olish, ularning oqibatlarini kamaytirish va ularga munosabat bildirish borasida o'zini o'zi himoya qilishning kompleks yondoshuvlaridan foydalanishmoqda, hamda barcha jurnalistlar ushbu yondoshuvlarni amalga oshirishda o'z hamkasblariga yordam berishlari mumkin.

### **EXHT vazirlar Kengashining № 3/18-sonli qarorida**

EXHTga a'zo 57 ta davlat "jurnalistlarning faoliyati ularning o'zlarini va oila a'zolarini xavfga qo'yishi, jumladan, raqamli texnologiyalardan ham foydalangan holda, zo'rvonlik, shuningdek qo'rqitish va ta'qib ob'ekti bo'lishi mumkin, bu esa jurnalistlarni o'z faoliyatlarini davom ettirishdan qaytarishi va o'zini o'zi senzura qilishga olib kelishi mumkin"ligini tan olishdi. Bundan tashqari, ishtirokchi davlatlar "xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatlari sababli, ayol jurnalistlar to'qnash keladigan o'ziga xos xatar"dan tashvish bildirishdi hamda "ayol jurnalistlar xavfsizligini imkon qadar ta'minlash, ularning tajribalarini va muammolarini samarali hisobga olish muhim"ligini ta'kidlashdi.

### **› Ayol jurnalistlar uchun xatarlar manzarasini monitoring qilish va baholash**

Xavfni baholash jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash uchun tan olingan eng yaxshi amaliyotdir. Har tomonlama himoyani ta'minlash maqsadida, ommaviy axborot vositalari alohida jurnalistlar bilan birgalikda ularning kasbiy faoliyati bilan bog'liq xavf-xatarlarni, shuningdek, ularning ayol jinsi va shaxsini aniqlashning boshqa shakllari bilan bog'liq xavflarni o'z ichiga olgan xavflarni muntazam ravishda baholab borishi kerak.

Topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin jurnalistlar ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilgan xavflarni baholash anketalarini to'ldirishlari va topshiriqni xavfsiz bajarish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerakligini birgalikda aniqlashlari kerak. Bunday xavflarni baholash har bir yangi topshiriq uchun moslashtirilishi va yangilanishi kerak.

Kengroq qilib aytganda, ayol jurnalistlar onlayn ta'qib va zo'rvonlik bo'yicha tadqiqotlardan xabardor bo'lishlari kerak. Bunday hujumlar xavfi kamroq bo'lgan jurnalistlar, masalan, tadqiqot va monitoringda ishtirok etish orqali yuqori xavf ostidagi hamkasblarini qo'llab-quvvatlashga harakat qilishlari kerak. Bunday ishtirok etish ish madaniyatini yaratishga yordam beradi, bunda ayol jurnalistlarga qilingan hujumlar, masalan, onlayn ta'qib va haqorat, umuman jurnalistikaga qilingan hujum sifatida qaraladi. Bu ayol jurnalistlarga xavf-xatarni yaxshiroq baholash, tahdidlarni aniqlash va tajovuzlarlar haqida, ularni odatiy hol sifatida qabul qilmasdan xabar berish imkoniyatini beradi.

### › **Xavfsizlikka, jismoniy, huquqiy, psixologik va raqamli xavfsizlikni ham nazarda tutgan holda, kompleks yondoshuvdan foydalanish**

Jurnalistlar xavfsizligiga kompleks yondashuv jismoniy va raqamli xavfsizlik va psixo-ijtimoiy yordam, shuningdek, jurnalistlar huquqlari bo'yicha o'quv kurslarini o'z ichiga oladi. Ayol jurnalistlar uchun asosiy e'tibor onlayn ta'qib va zo'rvonlik holatlarida o'zini o'zi himoya qilishning professional ko'nikmalaridan xabardor qilish va rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Ayol jurnalistlarga xavfsizlik kurslarida, xususan, onlayn ta'qib va zo'rvonlik belgilarini aniqlash, raqamli xavfsizlik vositalaridan foydalanish va Internetdan xavfsiz foydalanish kabi mavzular bo'yicha qatnashish tavsiya etiladi. Tayyorgarlik bosqichi sifatida jurnalistlar o'zlari foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlar platformalarida mavjud bo'lgan o'z xavfsizliklarini ta'minlash va ma'lumot berish mexanizmlari bilan ishlashni yaxshilab o'rganib olishlari kerak.

Internetdagi ta'qib va zo'rvonlik ko'pincha kuchayadi, ba'zida kichik tajovuzkor harakatlar - yashirin hujumlar va haqoratlar sifatida boshlanadi, lekin tezda jiddiy tahdidlarga aylanadi. Zararsiz bo'lib ko'ringan individual kichik tajovuzkorlik harakatlari to'planib, ayol jurnalistlar uchun jiddiy psixologik

oqibatlariga olib kelishi yoki xavfiroq hujumlar darakchisiga aylanishi mumkin. Ayol jurnalistlar o'zlarining psixologik to'kisligini birinchi o'ringa qo'yishlari muhim - tajovuzkorlikning kichik ko'rinishlariga odatiy hol sifatida qarashni to'xtatish, jarohatlarni tan olishni va o'zlariga yordam berishni o'rganishlari juda muhim.

Jurnalistlar ayol jurnalistlar xavfsizligiga hissa qo'shishlari mumkin bo'lgan yana bir usul, vaqti-vaqti bilan o'zgarib turishi mumkin bo'lgan o'z media tashkilotining Internet xavfsizligi qoidalaridan xabardor bo'lish hamda ta'qib va zo'ravonlik muammosini hal qilish uchun siyosat va protokollarni ishlab chiqishni talab qilishdir, agar bunday protokollar hali mavjud bo'lmasa. Shuningdek, ular ayol jurnalistlar bilan birgalikda xavfiarni baholashni amalga oshirishlari va Unternetdagi genderga asoslangan ta'qib va zo'ravonlikka qarshi kurashish uchun xavfsizlik rejalarini ishlab chiqishlari mumkin.

### › **Xatarlar va tajovuzlarni hujjatlashtirish va ular haqida xabar berish**

Tajovuz sodir bo'lgan taqdirda, ayollar vaziyatni, agar ular uchun qulay bo'lsa, u sodir bo'lishi bilanoq hujjatlashtirishga harakat qilishlari va iloji bo'lsa, ushbu ma'lumotni tegishli ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash xizmatlari bilan baham ko'rishlari kerak. Ayol jurnalistning o'ziga bu ishni qilish noqulay bo'lsa, hamkasblari unga yordam berishlari mumkin. Tajovuzning tabiatiga qarab, hodisa to'g'risidagi hisobotlar rasmiy ravishda ish beruvchilarga, ijtimoiy tarmoq platformalariga va huquqni muhofaza qilish organlariga yuborilishi mumkin.

Ba'zi hollarda ayollar tajovuzkorlik bilan ochiqchasiga yoki to'g'ridan-to'g'ri tajovuzkor bilan bog'lanish orqali o'zaro bayonotlar bilan javob berishni afzal ko'radilar. Bunday javob harakatlari Internetdagi ta'qib va suiiste'mollikka qarshi kurashning kuchli usuli bo'lishi, ammo ba'zi hollarda keskinroq hujumlarga olib

kelishi ham mumkin. Shuning uchun bunday usulni xavfni baholash bilan bir vaqtda qo'llash kerak. Hamkasblar, muharrirlar va/yoki xavfsizlik bo'yicha maslahatchilar bilan maslahatlashish, shuningdek, javob fikrlari eng yaxshi harakat vositasi ekanligini yoki bunday emasligini aniqlashga yordam beradi.

### › **Internetda ta'qib va suiiste'molchiliklarga duch kelayotgan hamkasblarni hamda ana shunday xatarga moyil jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash**

Hamkasb jurnalistlar Internetdagi genderni asoslangan ta'qib va zo'rvonlikka qarshi kurashda ittifoqchi bo'lishlari mumkin. Jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlari hujum xavfi ostida bo'lishi mumkin bo'lgan yoki shaxsiy xususiyatlari yohud kasbiy faoliyati tufayli yuqori xavf ostida bo'lganlarga yordam berish va qo'llab-quvvatlash uchun umumiy tashkiliy madaniyatni shakllantirishga yordam berishlari mumkin (shuningdek, 7-bobga qarang).

Jurnalistlar tajovuz qurboni bo'lgan ayollarga birdamlik ko'rsatishi va ularga zudlik bilan yordam va ko'mak ko'rsatishi mumkin. Ular jamoaviy yordam guruhlarini tuzishi, hamkasblariga nisbatan Internetdagi ta'qib va haqoratlarini hujjatlashtirishlari va jabrlangan ayol jurnalist bunga rozi bo'lsa, turli kanallar orqali bu tajovuzlar haqida xabar berishlari mumkin.

Jamoatchilik tarmoqlari gender asosidagi ta'qib va zo'rvonlikka duch kelgan ayol jurnalistlarga darhol yordam ko'rsatishi mumkin. Ayol jurnalistlar hamkasblari, oila a'zolari va do'stlari kabi o'zlari ishonadigan ayollarning o'zaro yordam tarmoqlarini yaratishlari mumkin. Tajovuz sodir bo'lgan taqdirda, ular qo'llab-quvvatlashni so'rab bunday tarmoqqa murojaat qilishlari mumkin. Jurnalistlarga tajriba va maslahatlar almashish, o'z hamkasblari uchun xavfsizlik bo'yicha qo'llanmalar yaratish uchun hamkorlikda ishlash va onlayn auditoriyalarini ittifoqchi sifatida jalb qilish tavsiya etiladi.

## › Qo'llab-quvvatlovning qulay shakllari, jumladan huquqiy mexanizmlari haqida ma'lumot olish

Internetdagi ta'qib va zo'rvonlikning tabiati murakkab va ko'p qirrali, chunki u milliy qonunlar, mintaqaviy organlar va inson huquqlari xalqaro standartlari tomonidan turlicha himoya qilinadigan inson huquqlarining bir necha sohalarini buzadi. Ayollar gender tengligi, jurnalistlar xavfsizligi, so'z erkinligi, raqamli aloqa hamda milliy va xalqaro qonunchilikka muvofiq boshqa tegishli sohalaridagi huquqlaridan xabardor bo'lish orqali onlayn makonda tezda harakat qilishlari va u bilan bog'liq ko'p qirrali xavflarni tushunishlari mumkin. Shunday qilib, ayol jurnalistlar Internetdagi ta'qib va suiiste'molchilik holatlarida yordam olishning turli mexanizmlarini aniqlashlari mumkin.

Hukumat va hukumatlararo tashkilotlar tomonidan ayol jurnalistlarga taqdim etilishi mumkin bo'lgan himoyadan tashqari, ular o'zlari foydalanadigan onlayn platformalar hamjamiyatlarining shartlari va prinsiplarilari, shuningdek, o'z ish beruvchilarining tegishli Internetdagi o'zaro hamkorlik siyosati bilan tanishishlari foydali bo'lishi mumkin.

Ba'zi hollarda ayol jurnalistlar yuridik yordam ko'rsatuvchi tashkilotlari va tarmoqlar bilan bog'lanish imkoniyatini ko'rib chiqishlari mumkin.

### Manbalar

- TrollBusters [«Sizni Internetda haqorat qilishadimi?»](#) nomli infografikani yaratdi hamda u yerda ayollar o'zlari Internetda duch kelayotgan tajovuzlarning xususiyatidan kelib chiqib, amalga oshirishlari mumkin bo'lgan harakatlar batafsil bayon etilgan.<sup>3</sup>

- [PEN Americaning Internetda yozuvchi va jurnalistlarning ta'qib qilinishiga qarshi kurash bo'yicha dala yo'riqnomasi](#) jumladan xotin-qizlar uchun ham mo'ljallangan bir qator tavsiya va maslahatlarni o'z ichiga olgan.<sup>4</sup>
- Xalqaro matbuot institute tomonidan tayyorlangan [videodarslar](#) ayol jurnalistlar uchun Internetdagi ta'qiblarga qarshi kurashning yuridik va psixologik uslublari haqidagi yo'riqnomalarni ham o'z ichiga olgan.<sup>5</sup>
- [Hol laback!](#) guruhi o'qitishni amalga oshiradi hamda xotin-qizlar ta'qiblarga duch kelishganida qo'llashlari mumkin bo'lgan amaliy vositalarni o'z ichiga olgan bir nechta manbalarni chop etdi.<sup>6</sup> Ham o'zining [HeartMob](#) loyihasi doirasida jamoaviy qo'llab-quvvatlov guruhlari faoliyatiga ko'mak beradi.
- Free Press Unlimited xavfsizlik bo'yicha raqamli ta'limiy materiallarni o'z ichiga olgan [Totem](#) onlayn platformasini yaratdi,<sup>7</sup> undan ayollar OAV Xalqaro jamg'armasi tomonidan yaratilgan [Know Your Trolls \(«O'z trollaringni bilib ol»\)](#) seminarlari ham joy olgan.
- Tacticaltech ayollar uchun amaliy raqamli xavfsizlik navigatsiya vositalarini almashish uchun XYZ platformasini yaratdi.<sup>8</sup> Shuningdek, ular maxfiylikni yaxshilash va raqamli izlarni boshqarish uchun ochiq manbali vositalar, ilovalar va xizmatlar to'plami bo'lgan "Me and My Shadow" ilova markazini yaratdilar.<sup>9</sup>
- Gender zo'ravonligi bo'yicha ko'ngillilarning CHAYN global tarmog'i CHAYN DIY, xavfsizlik bo'yicha onlayn qo'llanmani nashr etishdi.<sup>10</sup>

- Elektron chegaralar Jamg'armasi (Electronic Frontier Foundation)ning - [Surveillance Self-Defense](#) website veb saytidan Internetda xavfsizroq muloqot qilish borasidagi maslahat va vositalarni topish mumkin.<sup>11</sup>
- Digital Defenders Partnershipning [Birinchi yordamning raqamli to'plami \(The Digital First Aid Kit\)](#) dan raqamli xatarlarning eng ro'p tarqalgan turlariga qarshi qanday kurashish mumkinligi haqidagi maslahatlar joy olgan.<sup>12</sup>
- Ayrim tashkilotlar tajovuzga uchragan jurnalistlarga, masalan, IFEX a'zolariga va tajovuzga uchragan jurnalistlarga yordam Tarmog'ida ([Journalists in Distress Network](#)) qatnashuvchi guruhlariga tezkor va yuridik yordam ko'rsatadi.<sup>13</sup> Bu kabi boshqa tashkilotlar sirasiga [Raqamli erkinliklar Jamg'armasi](#), [Access Now](#) va [Matbuot va OAV erkinligi Yevropa markazi kiradi](#).
- Buyuk Britaniyada ayol jurnalistlar uchun "Ikkinchi manba" (Second Source) nomli kasbiy tarmoq tashkil qilingan bo'lib, u ta'qib holatlari hni OAVda ommaga oshkor qilish bilan shug'ullanadi va huquqlardan xabardorlikni oshirishga yordam beradi.<sup>14</sup>
- [OnlineSOS](#) platformasi Internetdagi ta'qiblardan jabr ko'rgan insonlarga o'z tajribalari hamda himoyaning samarali usullarini baham ko'rishlari uchun vosita va imkoniyat taqdim etadi.<sup>15</sup>



## Havolalar

- 1 Mozilla Foundation, "Women journalists feel the brunt of online harassment", April 2019, <https://internehealthreport.org/2019/women-journalists-feel-the-brunt-of-online-harassment/>.
- 2 OSCE, Ministerial Council Decision No. 3/18, "Safety of Journalists", 7 December 2018, <https://www.osce.org/chairmanship/406538?download=true>.
- 3 "What to Do? Where to Go? Infographic", TrollBusters, <https://yoursosteam.wordpress.com/what-to-do-infographic/>.
- 4 "Online Harassment Field Manual", PEN America, <https://onlineharassmentfieldmanual.pen.org/>.
- 5 "Tutorials", On the Line Newsrooms, <https://newsrooms-ontheline.ipi.media/tutorials/>.
- 6 Hollaback!, <https://www.ihollaback.org/>.
- 7 Totem Project, <https://totem-project.org/>.
- 8 XYZ, <https://xyz.informationactivism.org/>.
- 9 "Alternative App Centre", Me and My Shadow, <https://myshadow.org/resources>.
- 10 "Do it yourself online safety", <https://chayn.co/safety/>.
- 11 "Tips, Tools and How-tos for Safer Online Communications", Surveillance Self-Defense, <https://ssd EFF.org/>.
- 12 "Digital First Aid Kit", Digital Defenders Partnership, <https://www.digitaldefenders.org/digitalfirstaid/>.
- 13 Committee to Protect Journalists, Journalists in Distress (JID) Network, <https://cpj.org/emergency-response/journalists-in-distress-network.php>.
- 14 The Second Source, <http://www.thesecondsource.co.uk>.
- 15 Online SOS, <https://onlinesos.org/>.



## Mualliflar haqida

Doktor Silvia Chokarro jurnalist va soʻz erkinligi huquqi himoyachisi. “Artikl 19” xalqaro tashkilotida huquqlarni himoya qilish boʻlimi boshligʻi. IFEX Kengashi aʼzosi va Sheffild universiteti va Markaziy Evropa universitetining ixtisoslashgan organlari aʼzosi. Oxirgi 20 yil davomida u axborot agentliklari, fuqarolik jamiyati guruhlari va YUNESKO kabi hukumatlararo tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, BMTning Jurnalistlar xavfsizligi va jazosizlik muammosi boʻyicha Harakat rejasini ishlab chiqish ustida ishlagan. Gender muammolari va ommaviy axborot vositalariga oid bir qancha nashrlar muallifi. @silviachocarro

Sara Klark “Artikl 19” da Yevropa va Markaziy Osiyo boʻyicha guruh rahbari. U Columbia Free Expression eksperti hamda Yevropa matbuot va ommaviy axborot vositalari erkinligi markazining huquqiy qoʻmitasi aʼzosi. PEN International tashkilotida olti yil davomida siyosatni ishlab chiqish va axborot-targʻibot ishlariga rahbarlik, tashkilotning BMT va mintaqaviy inson huquqlari mexanizmlari bilan oʻzaro hamkorligini nazorat qildi. BMTning IHBOKB, QMBOKB, EXHT, Oksford va Garvard universitetlarida soʻz erkinligi, boshpana va migratsiya bilan bogʻliq masalalar boʻyicha maslahatchilik qilgan. @sarah\_m\_clarke

Paulina Gutierrez - inson huquqlari boʻyicha xalqaro huquqshunos, soʻz erkinligi va gender tengligi himoyachisi. “Artikl 19” tashkilotidagi “Huquq va siyosat” dasturida fuqarolik harakati va himoya uchun maydonni taʼminlash, shu jumladan nafrat qoʻzgʻatish, genfer xususiyatlari, norozilik namoyishlari va jurnalistlar himoyasi bilan bogʻliq masalalar doirasidagi faoliyatga boshchilik qiladi. Ilgari “Artikl 19”ning Meksikadagi mintaqaviy idorasida raqamli huquqlar strategiyasini ishlab chiqishga rahbarlik qilgan. Lotin Amerikasida inson huquqlari sohasidagi siyosatni oʻrganish va inson huquqlarining buzilishi holatlari boʻyicha huquq va maslahatlar berish boʻyicha 12 yillik tajribaga ega. @paulinagtzr

Judy Taing "Artikl 19" tashkilotida gender masalalari va jinsiy munosabatlar bo'limi boshlig'i. U "Mx Uslubi" kompleks gender strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etgan. Shuningdek, Ayollar OAV Xalqaro Jamg'armasining Internetdagi ta'qiblar bo'yicha maslahat kengashi a'zosi. "Artikl 19"ga kelguniga qadar u Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Kambodjada qizil kxmerlar ustidan sud jarayonlariga qo'maklashish bo'yicha birgalikda sud jarayonlarini olib borayotgan sudyalarda Devonxonasida ishlagan. @jislu1atd

## Ilovalar

### Nº 3/18-qaror Jurnalistlar xavfsizligi<sup>1</sup>

Vazirlar kengashi,

EXHTda qabul qilingan soʻz erkinligi, ommaviy axborot vositalari erkinligi va axborotning erkin aylanishi huquqlariga oid barcha tegishli majburiyatlarni, jumladan 1975-yilgi Xelsinki Yakuniy aktida, 1990-yilgi Kopengagen hujjatida aks etgan, hamda ishtirokchi davlatlar tomonidan tasdiqlangan soʻz erkinligi huquqi oʻ ichiga oʻz fikrida sobit qolish hamda axborot va gʻoyalarni davlat hokimiyatining aralashuviz va davlat chegaralaridan qatʼiy nazar olish va tarqatish erkinligini olishini yana bir bor tasdiqlagan holda,

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, ayniqsa uning 19-moddasiga, shuningdek, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro paktga (FSHXP) va ayniqsa, uning 19-moddasiga muvofiq har bir inson oʻz fikr va soʻz erkinligi huquqiga ega ekanligini, u demokratik jamiyatning eng muhim ustunlaridan biri, uning taraqqiyoti va rivojlanishining asosiy shartlaridan biriligini yodda tutgan holda,

soʻz erkinligi huquqi faqat qonunda nazarda tutilgan va MSHXPning 19-moddasi 3-bandida koʻrsatilgan sabablarga koʻra zarur boʻlgan cheklovlarga duchor boʻlishi mumkinligini unutmagan holda,

EKXXning inson mezonlari boʻyicha 1991-yilda Moskvada boʻlib oʻtgan yigʻilishining hujjatida taʼkidlanganidek, mustaqil ommaviy axborot vositalari erkin va ochiq jamiyat va hisobdor davlat tizimlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishda alohida rol oʻynashini yana bir bor tasdiqlagan holda,

yana bir bor tasdiqlagan holda, jurnalistika va texnologiya rivojlanib borayotganini va bu jamoatchilik muhokamasiga hissa qo'shishi, shu

bilan birga jurnalistlar xavfsizligiga tahdid soladigan xavfiar doirasini kengaytirishi mumkinligini tan olgan holda,

tegishli Barqaror rivojlanish maqsadi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish sogasidagi Kun tartibi maqsadlarini amalga oshirish uchun jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash va himoya qilish muhimligini tan olgan holda,

jurnalistlarning faoliyati ularni va ularning oila a'zolarini, shu jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali, zo'raonlik, qo'rqitish va ta'qib qilish xavfiga duchor qilishi, jurnalistlarni o'z faoliyatlaridan voz kechishga majburlashi yoki o'zini o'zi senzura qilishga olib kelishi mumkinligini tan olgan holda,

jurnalistlarga nisbatan asossiz cheklash choralarini qo'llash ularning xavfsizligiga ta'sir qilishi, jamoatchilikni xabardor qilishiga imkon bermasligi va shu tariqa soz erkinligi huquqini amalga oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini xavotir bilan qayd etib,

o'z hududidagi ommaviy axborot vositalari xorijiy axborot manbalari va axborot xizmatlaridan cheklolarsiz foydalanishi lozimligini, davlat chegaralaridan qat'iy nazar, jamoatchilik axborot va g'oyalarni davlat organlarining aralashuvisiz, shu jumladan xorijiy nashrlar va eshittirish dasturlari orqali olish va tarqatishda bir xil erkinlikdan foydalanishini yana bir bor tasdiqlagan holda, va bu huquqni amalga oshirish bo'yicha har qanday cheklashlar, 1991-yil EKXKning Inson mezonari bo'yicha Moskva yig'ilishining hujjatida qayd etilganidek, qonun bilan va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanishini yana bir bir tasdiqlagan holda,

shaxsiy hayotga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda aralashishdan himoyalaniish huquqining buzilishi jurnalistlar xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkinligidan xavotir bildirgan holda,

inson huquqlarining har qanday buzilishi va jurnalistlar xavfsizligiga zarar yetkazuvchi, jumladan, qotillik, qiynoqlar, zo'rlik bilan yo'qolib qolish, o'zboshimchalik bilan hibsga olish va o'zboshimchalik bilan chiqarib yuborish, qo'rqitish, ta'qib qilish va har qanday shakldagi tahdidlar bilan bog'liq noqonuniy xatti-harakatlardan jumladan, jismoniy, huquqiy, siyosiy, texnologik yoki iqtisodiy tahdidlar, hamda ular bajarayotgan ishlarni bostirishga qaratilgan xatti-harakatlardan chuqur tashvishda ekanini bildirgan holda,

jurnalist ayollar o'z ish faoliyati bilan bog'liq, xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish sababli duch keladigan alohida xavfdan xavotir bildirgan holda va ayol jurnalistlarning xavfsizligini maksimal darajada ta'minlash, ularning tajribalari va muammolarini samarali hisobga olish muhimligini ta'kidlagan holda,

saylovlarni yoritishda, xususan, jamoatchilikni nomzodlar, ularning platformalari va davom etayotgan bahs-munozaralar haqida xabardor qilishda jurnalistlarning muhim rolini e'tirof etib, hamda tahdidlar va jurnalistlar duch kelishi mumkin bo'lgan zo'ravonlikka ulanib ketadigan tajovuzlardan jiddiy xavotir bildirgan holda, jurnalistika surishtiruvining muhimligini va ommaviy axborot vositalarining tekshiruvlar olib borishi va ularning natijalarini, repressiyalardan qo'rqmasdan, shu jumladan, Internetda e'lon qilish qobiliyati mamlakatlarimizda muhim ijtimoiy rol o'ynashi, jumladan, davlat institutlari va mansabdor shaxslarni so'roqqa

tortishda muhim rol o'ynashi mumkinligini tan olgan holda, jurnalistlar mehnatiga, jamoatchilik ishonchi va jurnalistikaning adolatligiga bo'lgan

ishonchga putur yetkazadigan maqsadli kampaniyalarning kuchayishidan xavotir bildirib va bu jurnalistlarga nisbatan tahdid va zo'rvonlik xavfini oshirishi mumkinligini tan olgan holda,

shuningdek, siyosiy yetakchilar, davlat amaldorlari va/yoki hokimiyat vakillari jurnalistlarga nisbatan qo'rqitish, tahdid qilishga yo'l qo'yishayotganidan, ularga nisbatan zo'rvonlikka ko'z yumishayotganidan yoki shu kabi holatlarni qoramayotganidan tashvishga tushgan holda, jurnalistlar xavfsizligiga, xususan, terrorchi guruhlar va jinoiy tashkilotlar tomonidan tahdid kuchayib borayotganidan chuqur xavotir bildirgan holda, raqamli texnologiyalar asrda jurnalistlar xavfsizligiga alohida xavf-xatarlar, jumladan, jurnalistlarning xakerlik, noqonuniy yoki o'zboshimchalik bilan kuzatuv yoki kommunikatsiyalarni ushlab xavfiga duchor bo'lishi, bu ularning so'z erkinligi va erkin bo'lish huquqidan foydalanishiga putur yetkazayotganini, shaxsiy hayotga o'zboshimchalik bilan aralashish yoki noqonuniy tajovuzdan himoyalangan erkinligi buzilishiga olib kelishini, ishtirokchi-davlatlar jurnalistlarga qarshi har qanday tajovuzlar va maqsadli dushmanona xatti-harakatlarni qoralashlarini hamda 1994-yilda EKXKning Budapesht sammitida ta'kidlanganidek, bunday tajovuzlar va xatti-harakatlar uchun bevosita aybdorlarni javobgarlikka tortishga intilishlarini yana bir bor ta'kidlaydi. Jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun mas'ul shaxslarni sudga tortilishi kelajakdagi tajovuzlarning oldini olishning muhim shartlaridan biriligini tan olib,

2-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e'lon qilingan – jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun jazosizlikka barham berish Xalqaro kuni (JQXK) sifatida nishonlanishi muhimligini ta'kidlab, jurnalistlarga

nisbatan zo'rvonlik hujumlari jazosiz qolayotgan jazosizlik muhitini tashvish bilan qayd etadi va hukumatlar, qonun chiqaruvchi va sud



hokimiyatining jurnalistlar uchun xavfsiz faoliyat muhiti yaratish va ularning xavfsizligini ta'minlash, xususan, jurnalistlarga qarshi jinoyatlar uchun barcha aybdorlarni ochiq qoralash va javobgarlikka tortishdagi rolini tan olish, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining qurolli to'qnashuvlar sharoitida jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari va ular bilan bog'liq xodimlarga nisbatan sodir etilgan barcha huquqbuzarlik va suiiste'molchiliklarni qoralangan 1738 (2006) va 2222 (2015) rezolyutsiyalarini eslatib, hamda ularda qurolli to'qnashuvlar hududlarida xavfli xizmat safarida bo'lib turgan jurnalistlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari va ular bilan bog'liq bo'lgan xodimlar, fuqarolik maqomiga zid bo'lgan har qanday xatti-harakatni qilmasliklari sharti bilan oddiy fuqarolar sifatida tan olinishini va oddiy fuqarolarga qo'llaniladigan himoyadan foydalanishlarini eslatib, ishtirokchi-davlatlarni quyidagilarga chaqiradi:

1. EXHTda qabul qilingan barcha majburiyatlarini jumladan ularning soz erkinligi va ommaviy axborot vositalari erkinligi bilan bog'liq xalqaro majburiyatlarini, xususan, chegaralardan qat'iy nazar, axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini hurmat qilish, rag'batlantirish va himoya qilish orqali to'liq rioya qilish;
2. Ommaviy axborot vositalari erkinligiga taalluqli qonunlari, siyosati va amaliyoti ularni xalqaro huquqiy va boshqa majburiyatlariga to'liq muvofiqlashtirib, ularni qayta ko'rib chiqish, kerak bo'lganda esa ularni bekor qilish yoki o'zgartirishlar kiritish, toki ular jurnalistlarning huquqbuzarliklarni amalga oshirish imkoniyatlarini cheklamasligi uchun. ularning mustaqil ravishda va ortiqcha aralashuvlarsiz ishlashi;
3. Jurnalistlarga nisbatan qotillik, qiynoqlar, ularni o'g'irlash, o'zboshimchalik bilan hibsga olish va chiqarib yuborish, qo'rqitish, ta'qib qilish va har qanday shakldagi jismoniy, huquqiy, siyosiy,

texnologik tahdidlar kabi barcha hujum va zo'rvonlik harakatlarini ochiq va so'zsiz qoralash. yoki iqtisodiy, o'z ishini bostirish va/yoki o'z tahririyatlarini, shu jumladan ziddiyatli vaziyatlarda noqonuniy ravishda majburan yopish uchun foydalanilgan;

4. Shuningdek, jurnalist ayollarga o'z faoliyati bilan bog'liq hujumlarni, jumladan, jinsiy zo'rvonlik, tazyiq, qo'rqitish, tahdid va zo'rvonlik, shu jumladan raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali sodir etilgan hujumlarni ochiq va aniq qoralash;
5. O'zboshimchalik bilan hibsga, garovga olingan yoki o'g'irlangan barcha jurnalistlarni zudlik bilan va so'zsiz ozod qilishga chaqirish;
6. Kelajakdagi xurujlarning oldini olishning asosiy elementi sifatida aybdorlarni javobgarlikka tortish va jabrlanuvchilarning tegishli himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun javobgarlikni, jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jurnalistlarga nisbatan zo'rvonlik va tahdidlar bo'yicha tezkor, samarali va xolis tergov o'tkazishni ta'minlash orqali jurnalistlarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun jazosiz qolishga chek qo'yish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ko'rildi;
7. Siyosiy rahbarlarga, davlat amaldorlariga va/yoki hokimiyat vakillariga jurnalistlarni qo'rqitish, tahdid qilish yoki zo'rvonlikni ma'qullashdan tiyilish, jurnalistlar duch kelishi mumkin bo'lgan xavf yoki tahdidlarni kamaytirish hamda jurnalistlar daxlsizligiga putur yetkazmaslik, shuningdek, mustaqil jurnalistikaning ahamiyatiga hurmatga bo'lish belgilab berildi;

8. Jurnalistlarning shifrlash va anonimlashtirish texnologiyalaridan foydalanishiga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda to'sqinlik qilishdan, shuningdek, noqonuniy yoki o'zboshimchalik bilan kuzatuv usullarini qo'llashdan tiyilib, bunday harakatlar jurnalistlarning inson huquqlarini amalga oshirishiga tajovuz qilish ekanligini ta'kidlab o'tish. O'z navbatida bu ularni zo'rvonlik ob'ektiga aylanish xavfiga duchor qilishi va xavfsizligini xavf ostiga qo'yishi mumkin;
9. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar jurnalistlar xavfsizligini ta'minlash zarurati bilan bog'liq tushuntirish va o'qitish ishlarini amalga oshiradi, zarur hollarda fuqarolik jamiyatini bunday faoliyatga jalb etishga ko'maklashadi;
10. Jurnalistlarga qarshi hujumlar va zo'rvonlik holatlari to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish hamda xabar qilishning milliy tizimini imkon qadar yaratish yoki mustahkamlash;
11. Ishtirokchi davlatlarning inson huquqlari borasidagi xalqaro qonunchiligi bo'yicha majburiyatlarini bajarishda, tuhmat to'g'risidagi qonunlarda jurnalistlar xavfsizligiga putur yetkazishi va/yoki ulardagi mavjud tsenzuraga samarali ta'sir qilishi, axborot tarqatishga xalaqit berishi mumkin bo'lgan haddan tashqari sanksiya yoki jazo choralarini qo'llamaslikni ta'minlash;
12. Jurnalistlarni himoya qilishga oid amaldagi qonunchilik bazasini va EXHTning barcha tegishli majburiyatlarini yanada samaraliroq joriy etish;

13. EXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakili bilan, jumladan, jurnalistlar xavfsizligi masalasida to'liq hamkorlik qilish;

14. EXHTning OAV erkinligi bo'yicha vakilini o'z mandatiga muvofiq jurnalistlar xavfsizligini himoya qilish va uni EXHTga a'zo barcha davlatlarda yaxshiroq tatbiq etish uchun himoya qilishda davom etishni rag'batlantirish.

## Havolalar

**1** The Ministerial Council of the Organization for Security and Co-operation in Europe, 7 December 2018, <https://www.osce.org/files/f/documents/a/c/462187.pdf>



Internetda jurnalist ayollarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik jurnalistlik kasbi uchun asosiy tahdidga aylanib, ayol jurnalistlarning o'z kasbiy faoliyatlarini bajarishlariga putur etkazmoqda, ularning so'z erkinligiga bo'lgan huquqlarini poymol qilmoqda, jamiyatning barcha a'zolarining axborotdan erkin va ochiq foydalanishiga to'siqlik qilmoqda.

#SOFJO tashabbusining bir qismi sifatida nashr etilgan ushbu Qo'llanma EXHT mintaqasidagi davlatlar va nodavlat tashkilotlarga jurnalist ayollarning onlayn xavfsizligini yaxshilash bo'yicha real choralar ko'rishda yordam berishga qaratilgan tahdidga nisbatan javobni ifodalaydi. Taqdim etilgan barcha usullar xalqaro standartlar va majburiyatlarni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatadi. #SOFJO ma'lumotnomasi asosiy manfaatdor tomonlarga eng dolzarb va erishish mumkin bo'lgan chora-tadbirlar majmuini tavsiya qiladi, ular birgalikda ayol jurnalistlar o'z kasbiy faoliyatini onlayn tarzda xavfsizroq amalga oshirishlari mumkin bo'lgan o'zaro bog'langan asosni tashkil qiladi.

Afsuski, internetda ayol jurnalistlarning ta'qib va haqoratlanishi virtual masala emas, balki bu haqiqiy yechimga muhtoj bo'lgan haqiqiy muammodir.

So'zdan amaliy ishga o'tish vaqti keldi.